

8



Asosiy qonun – sha’nimiz va qadrimiz himoyachisi

10



Qonunchilik hujjatlari ijrosi ustidan davlat nazoratini takomillashtirish asoslari

14



Davlat fuqarolik xizmatchisini rag‘batlantirishda davlat xizmati modelining o‘rni

20



O‘zbekistonda “Legal tech”ni qo‘llashning ahamiyati

26



AKT sohasiga mas’ul tashkilotlarga kelayotgan murojaatlarni sifatli ko‘rib chiqish omillari

46



“Benefitsiar mulkdor” benefitsiar mol-mulkning subyekti sifatida

50



Ota-onalikdan mahrum qilish asoslari va oqibatlari

54



Ayollarni oilaviy zo‘ravonlikdan muhofaza qilish masalalari

58



Jasorat tarannumi

62



Advokatning mediator sifatidagi faoliyati

Mamlakatimizda jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, manfaatlari va erkinliklari himoya qilinishini ta'minlash, aholining davlat organlari bilan munosabatlarini qulaylashtirish, shuningdek, davlat ishlarini boshqarishda faol ishtirok etishini ta'minlashga katta e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi 158-farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston – 2030" strategiyasi fikrimizning yorqin dalilidir.

Insonni qadrlash – – O'zbekiston siyosatining ustuvor yo'nalishi





1992-yil 8-dekabrda O‘zbekiston Konstitutsiyasining 35-moddasida har bir shaxs bevosita o‘zi va boshqalar bilan birgalikda vakolatli davlat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga ega ekanligi belgilangan hamda 1994-yil 6-mayda “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi qonun qabul qilingan bo‘lsa-da, aholi va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash borasida jiddiy kamchiliklar bor edi.

Ularni bartaraf etish bo‘yicha ko‘p ishlar qilindi va O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Vazirlar Mahkamasining 2016-yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturining ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan majlisida so‘zlagan nutqida¹, shuningdek, 2017-yildagi aholiga qilgan murojaatida² “...xalq bilan yaqindan muloqot qilish, uning dardu tashvishlari, hayotiy muammolarini samarali hal etish bo‘yicha yangi tizim yaratildi” deb ta’kidladi. 2017-yilning “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlar yili” deb e‘lon qilinishi mamlakatimizda insonni qadrlash hamda uning huquqlari, manfaatlar va erkinliklarini himoya qilishga e‘tiborni keskin o‘zgartirdi. Aynan shu davrdan boshlab O‘zbekiston Konstitutsiyasining 2-moddasida belgilangan “Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas’uldirlar” degan normaning ijrosi chinakam ta’minlana boshladi. 2017-yildan boshlab xalq bilan muloqot, insonlarni rozi qilish davlat faoliyatining asosiy maqsadi etib belgilandi. Murojaatlar bilan ishlash tizimi isloh qilinib, yangi institut va mexanizmlar, yondashuvlar, zamonaviy texnologiyalar joriy etildi. Davlat rahbariga murojaat qilish imkoniyati kengaytirildi, virtual qabulxonalar, xalq qabulxonalar faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashni takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi 4947-farmoni bilan 2017 – 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi, uni “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlar yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi tasdiqlandi.

Dasturga muvofiq 2017-yil 11-sentyabrda yangi tahrirdagi “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi qonun O‘zbekiston Prezidenti tomonidan imzolandi. Unga “elektron murojaat”, “takroriy murojaat”, “anonim murojaat”, “videokonferensaloqa”, “murojaatning dublikati”, “davlat ishtirokidagi tashkilot” kabi tushunchalar kiritilib, O‘zbekiston Prezidentining xalq qabulxonalar va virtual qabulxonasi, ularning asosiy vazifalari, huquq va majburiyatlari belgilandi.

Mazkur qonunning ijrosini ta’minlash uchun 2018-yil 7-mayda Vazirlar Mahkamasining “Davlat organlarida, davlat muassasalarida va davlat ishtirokidagi tashkilotlarda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to‘g‘risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida”gi 341-qarori qabul qilindi. Nizomda davlat organlarida, davlat muassasalarida va davlat ishti-

¹ <https://www.norma.uz/ru/muhim->


² https://www.norma.uz/ru/muhim_voqealar/uzbekiston_respublikasi_prezidenti_shavkat_mirziyevning_oliy_majlisga_murojaatnomasi

roqidagi tashkilotlarda murojaatlarni qabul qilish tartibi, ko'rib chiqish muddatlari, javob berish shakllari belgilab berildi.

Aholi murojaatlari bilan ishlash tizimini mutlaqo yangicha tashkil qilish choralari bo'yicha O'zbekiston Prezidenti rahbarligida 2021-yil 23-iyulda o'tkazilgan videoslektor yig'ilishida davlat organlari, tashkilotlar, mahalliy hokimliklarga jiddiy topshiriqlar berildi. Har bir davlat organi va tashkilotida haftada kamida bir marta murojaatlar bilan ishlash masalasi muhokama qilinishi belgilandi.

Ko'rilayotgan choralar tufayli fuqarolarning ko'plab murojaatlarida ko'tarilgan muammolar yechimini topib, murojaatlarning kamayish tendensiyasi kuzatilmoqda.

2024-yilning 1-choragida respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlariga jismoniy va yuridik shaxslardan jami 325,8 mingta murojaat kelib tushgan, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 10 foiz kam.



Shu bilan birga, fuqarolar davlat organlari va davlat muassasalari rahbarlari faoliyatidan, ayniqsa ular tomonidan o'z vaqtida qabul qilinmayotgani va murojaatlari har doim ham qonun talablariga muvofiq ko'rib chiqilmayotganidan shikoyat qilayotgan holatlar hamon kuzatilayapti.

“O'zbekiston – 2030” strategiyasida joylardagi muammolarni o'z vaqtida aniqlab, ularni hal etish choralari ko'rilishi bo'yicha murojaatlarning kami-



da 80 foizi mahalliy darajada qanoatlantirilishini ta'minlash, barcha darajalardagi davlat organlari va davlat muassasalarida takroriy murojaatlar ulushini kamida ikki barobar qisqartirish, elektron va mobil ilova orqali murojaat qilish imkoniyatini yaratish hamda hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni mahallaning o'zida hal qiladigan xalqchil tizim yaratish masalalari qo'yilgan bir davrda davlat organlari va ijro etuvchi hokimiyat organlari mansabdorlarining yuqoridagi kamchiliklarga yo'l qo'yishi murojaatlar bilan ishlashdagi davlat siyosatini to'g'ri tushunmayotganini anglatadi. Ular murojaatlar asosida muammolarni aniqlash hamda hal etish, murojaatlarning ko'payishi sabablarini tahlil qilib, xulosa chiqarishlari shart.

Shuningdek, “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risi”gi qonun hamda hukumatning 341-qarori bilan tasdiqlangan “Davlat organlarida, davlat muassasalarida va davlat ishtirokidagi tashkilotlarda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risida”-gi namunaviy nizomga murojaatlar bilan ishlashda jiddiy xatolarga yo'l qo'ygan mas'ul shaxslarning javobgarligini kuchaytirish bo'yicha qo'shimchalar kiritilishi lozim.

Sharof GALTEMIROV,
Vazirlar Mahkamasi bo'lim boshlig'i



Konstitutsiyada

mulk huquqining kafolatlari

Konstitutsiya mamlakatning asosiy huquqiy hujjati bo'lib, unda davlatning asosiy tamoyillari, fuqarolarning huquq va erkinliklari belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Konstitutsiyasi 2023-yil 30-aprelda yangidan qabul qilingan bo'lib, mamlakat hududida fuqarolarning mulk huquqlarini yanada mustahkamlashga va ularga kafolatlar berishga qaratilgan muhim o'zgarishlarni o'z ichiga oladi.

Konstitutsiyada mulk huquqining asosiy tamoyillari belgilangan va uning tegishli moddalarida mulk huquqi va uni himoya qilishning turli jihatlari nazarda tutilgan.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada mulk huquqiga oid bir qancha o'zgartirishlarni ko'rishimiz mumkin. Xususan, tadbirkorlar qonunchilikda taqiqlanmagan har qanday faoliyatni amalga oshirishga va o'z faoliyati yo'nalishlarini mustaqil tanlashga haqli ekani mustahkamlandi. Davlatning qulay ishbilarmonlik va investitsiyaviy muhitni ta'minlashi, halol raqobat uchun sharoit yaratishi, monopol faoliyatni qonun bilan tartibga solishi va cheklashi belgilab qo'yildi.

Shu bilan birga Asosiy qonunimizda yer xususiy mulk bo'lishi mumkinligi aniq belgilandi. Bu haqda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: "Taraqqiyotning ko'p asrlik tajribasi shuni ko'rsatadiki, xususiy mulksiz, uning ishonchli kafolatsiz kuchli ijtimoiy davlatni qurib bo'lmaydi. Shu bois Asosiy qonunimizda xususiy mulk himoyasini ta'minlash uchun zarur bo'lgan konstitutsiyaviy kafolatlarni kuchaytirishimiz lozim"¹ deb ta'kidlagan edi.

Konstitutsiyamizning 41-moddasiga ko'ra har bir shaxs mulkdor bo'lishga haqli. 65-moddaga asosan xususiy mulk daxlsizdir. Mulkdor o'z mol-mulkidan qonunda nazarda tutilgan hollardan va tartibdan tashqari hamda sudning qaroriga asoslanmagan holda mahrum etilishi mumkin emas.

Yuqorida keltirilgan konstitutsiyaviy normalardan kelib chiqib ayta olamizki, mamlakatimizda mulk huquqini, avvalo, davlat tan oladi va uning daxlsizligini e'tirof etadi.

Konstitutsiyadagi normalar yurtimizda huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati, xususiy mulk ustuvorligiga asoslangan iqtisodiyotni qurish, xalqimiz uchun tinch, obod va farovon hayot barpo etish, O'zbekistonning xalqaro maydonda munosib o'rin egallashida mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi².

"Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida"gi xalqaro paktning 11-moddasida "Paktda ishtirok etuvchi davlatlar har bir kishi o'zi va oilasi uchun yetarlicha oziq-ovqat, kiyim-



Mulk huqining kafolatlari Konstitutsiyada mustahkamlangani va mulkdorlarga berilayotgan imtiyoz va kafolatlar mazkur huquqning dolzarbligini anglatadi. Bir qator xalqaro hujjatlarda ham mazkur huquq kafolatlangan. Jumladan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 12-moddasida "Hech kimning shaxsiy va oilaviy hayotiga o'zboshimchalik bilan aralashish, uy-joyi daxlsizligiga, uning yozishmalaridagi sirlarga yoki uning nomus va sha'niga o'zboshimchalik bilan tajovuz qilinishi mumkin emas. Har bir inson xuddi shunday aralashuv yoki tajovuzdan qonun orqali himoya qilinish huquqiga ega"ligi belgilangan³.

kechak va uy-joy hamda turmush sharoiti to'xtovsiz yaxshilanib borishini o'z ichiga oladigan yetarli turmush darajasi bo'lish huquqini e'tirof etadi. Mazkur ishtirokchi davlatlar ushbu huquqlar amalga oshirilishini ta'minlash uchun zarur choralarni ko'radi, ayni paytda erkin kelishuvga asoslangan xalqaro hamkorlikning bu boradagi muhim ahamiyatini e'tirof etadi" deb qayd etilgan⁴.

Konstitutsiyamiz xususiy mulkning himoyasini kafolatlaydi. Xususiy mulk egalari o'z mulklarini tasarruf etishda to'siqlarsiz va huquqiy kafolatlar asosida foydalanish imkoniyatiga ega. Bu huquqni davlat himoya qiladi va noqonuniy tortib olish, rekvizitsiya qilish qat'iy man etiladi. Konstitutsiyaning 47-moddasiga ko'ra "Har kim uy-joyli bo'lish huquqiga ega. Hech kim sudning qarorisiz va qonunga zid tarzda uy-joyidan mahrum etilishi mumkin emas. Uy-joyidan mahrum etilgan mulkdorga uy-joyning qiymati hamda u ko'rgan zararlarning o'rni qonunda nazarda tutilgan hol-

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг матбуот хизмати. https://t.me/Press_Secretary_Uz/1918.

² Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. O'quv qo'llanma. Mualliflar jamoasi. - Toshkent: "Yuridik adabiyotlar publish", 2024-y. 93-bet.

³ <https://constitution.uz/oz/pages/humanrights>.

⁴ <https://lex.uz/docs/-2686000>.

larda va tartibda oldindan hamda teng qiymatda qoplanishi ta'minlanadi".

Yuqoridagi moddadan kelib chiqib ayta olamizki, mulk huquqi faqat qonuniy asosda cheklanishi mumkin. Bu cheklovlar jamoat manfaatlarini, milliy xavfsizlik yoki ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash maqsadida qonuniy tartibda amalga oshiriladi va fuqarolarning asosiy huquqlariga ziyon yetkazmasligi kerak.

Mamlakatimizda xususiy mulkni himoya qilish bilan bog'liq normativ-huquqiy hujjatlar so'ngi yillarda ancha takomillashdi. Shu bilan birga mazkur huquqlarni himoya qilish borasida ba'zi muammolar ham mavjud. Masalan, ko'chmas mulk egasini rozi qilmasdan hamda turar joylar baholanmasdan turib davlat va jamoat ehtiyojlari uchun yer uchastkasining olib qo'yilayotgani natijasida fuqarolarning huquqlari buzilmoqda va ularning davlat idoralari o'rtasida ovora bo'lishiga sabab bo'lmoqda.

2022-yilning 24-avgust kuni O'zbekiston Prezidentining "Mulk huquqining daxlsizligini ishonchli himoya qilish, mulkiy munosabatlariga asossiz aralashuvga yo'l qo'yimaslik, xususiy mulkning kapitallashuv darajasini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi.

Ammo islohotlarga qaramay qonunlardagi yuridik kolliziyalar, korrupsiogen omillar haligacha bartaraf etilmagani yoki aniqlik kiritilmagani, shuningdek, davlat organlari mansabdor shaxslarining qonunni noto'g'ri talqin etishi sababli hali ham tadbirkorlar huquqlari va mulk daxlsizligi buzilish holatlari kuzatilmoqda.

Masalan, bir qator tadbirkorlarning Toshkent viloyati Yangiyo'l tumanidagi "Yangiyo'l savdo kompleksi" MCHJ hududidagi savdo do'konlari buzilishi munosabati bilan kompensatsiya to'lanmayotgani haqidagi murojaati ombudsmanning alohida ish yurituviga olindi. Aniqlanishicha, Vazirlar Mahkamasining bayoni hamda Yangiyo'l shahar hokimining qaroriga asosan Yangiyo'l shahrining Registon va Niyozbosh ko'chalari bir-biriga bog'lash belgilangan. Shu maqsadda temiryo'l ustidan ko'priq qurilishi munosabati bilan "Yangiyo'l savdo kompleksi" MCHJ hududidagi bir necha bino buzilgan. Vakilning aralashuvi bilan murojaatda qayd etilgan fuqarolarning 35 ta savdo do'koni uchun 8 nafariga 781,4 mln so'm miqdorida kompensatsiya to'lanib, 6 nafariga 315,9 mln so'm kompensatsiya to'lash bo'yicha viloyat hokimligiga so'rov kiritildi⁵.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, fuqarolarning mulkiy huquqlarini himoya qilish bilan bog'liq qonun hujjatlari hamda amaliyotini takomillashtirish uchun quyidagilar taklif etiladi:

- Davlat va jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yilayotgan yer uchastkalari joylashgan hudud haqidagi barcha ma'lumotlar mahalliy hokimlikning rasmiy veb-saytida e'lon qilinishi lozim.
- Hududlarda davlat va jamoat ehtiyojlari uchun yer uchastkalari olib qo'yilishi munosabati bilan taklif qilinadigan barcha uy-joy va binolar aniq ko'rsatilgan elektron baza shakllantirilishi va fuqaro uni borib ko'rish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Bu shaffoflikni ta'minlaydi va korrupsiyaning oldini olishga xizmat qiladi. Shuningdek, hokimiyat va fuqaro o'rtasida yuzaga keladigan turli nizolarga barham beradi.
- Davlat va jamoat ehtiyojlari uchun buzilgan xususiy mulk o'rniga ajratiladigan mulk, uy-joy yoki binoning fuqarolarga berilish muddati aniq belgilab qo'yilishi, bunda har bir kechiktirilgan kun uchun fuqaroga penya to'lanishi zarur.

Rustam XURSANOV,

Toshkent davlat yuridik universiteti
Fuqarolik huquqi kafedrasida katta o'qituvchisi,
yuridik fanlar doktori

⁵ Jasur Islamov. Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) kotibiyatining murojaatlar bilan ishlash sektori mudiri/ "Xususiy mulkka bo'lgan huquqning kafolati". <https://ombudsman.uz/oz/docs/xususiy-mulkka-bolgan-huquqning-kafolati>

ASOSIY QONUN – sha'nimiz va qadrimiz himoyachisi

Mamlakatimizda bugungi kunda deyarli barcha sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar qatorida inson huquqlari sohasida qilinayotgan ijobiy harakatlar va ularning natijasi barchamizni O'zbekistonning yangilangan dunyosida yashayotganimizni qalban his qilishimizga chorlamoqda.



¹ Xalq so'zi online, (<https://www.xs.uz/uz/post/inson-huquq-va-erkinliklarini-ishonchli-himoya-qilish-davlatning-konstitutsiyaviy-mazhburiyati-sifatida-belgilanishi-lozim-shavkat-mirziyoev>); Народное слово онлайн; Folk word online.

Albatta, inson qadrini ulug'laydigan tamoyillar negizida qabul qilinayotgan qonun hujjatlarining barchasi yurtimizda adolatni ta'minlaydi, shu jumladan aholining huquq va imkoniyatlarini kengaytiradi desak mubolag'a bo'lmaydi.

2023-yili O'zbekiston Konstitutsiyasi yangicha nigohlar bilan, yangi tahrirda qabul qilindi. Konstitutsiyada avvalo inson qadri eng oliy ne'mat va qadriyat sifatida, shuningdek, erkinlik va tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik g'oyalari belgilandi.

O'zbekiston Konstitutsiyasini faxr bilan butun xalqimizning sha'ni va qadri himoyachisi sifatida tan oldik.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish davlatning konstitutsiyaviy majburiyati sifatida belgilanishi lozim"¹.

Inson manfaati yo'lida davlatimiz mana shunday majburiyatlarni o'z zimmasiga olar ekan, biz albatta Konstitutsiyamiz kafolati ortida yuksak marralarga o'zimizga ishongan holda erishishga harakat qilamiz.

Shu o'rinda inson huquq va erkinliklari har kimga tug'ilganidan boshlab berilishi nuqtayi nazaridan qaraydigan bo'lsak, shaxsan men ayol sifatida dunyoga kelganimdan Allohga behisob shukrlar aytaman. Sababi, ayol zoti qadr topgan va e'zozlangan elda yashamoqdaman.

Ta'kidlab o'tish joizki, Konstitutsiyamizning 58-moddasi bilan xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi belgilab berildi, bundan tashqari xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlar ta'minlanishi kafolatlandi.

Shu bilan birga ayollarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo'shatish va ish haqini kamaytirish taqiqlandi.

Bu qoidalar shu kunga qadar oliy yuridik kuchga ega bo'lgan Konstitutsiya darajasida ko'rsatilmagan edi.

O'zbekiston Jinoyat kodeksining 148-moddasida ayolning homiladorligi yoki shaxsni yosh bolani parvarish qilayotganini bila turib ishga olishdan g'ayriqonuniy ravishda bosh tortish yoki

ishdan bo'shatish – bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanishi belgilandi².

Bundan tashqari, bolalar mehnatining ularning sog'lig'iga, xavfsizligiga, axloqiga, aqliy va jismoniy rivojlanishiga xavf soluvchi, shu jumladan ta'lim olishiga to'sinlik qiluvchi har qanday shakli taqiqlandi.

Jinoyat kodeksining 148¹-moddasida voyaga yetmagan shaxs mehnatidan uning sog'lig'iga, xavfsizligiga yoki axloq-odobiga ziyon yetkazishi mumkin bo'lgan ishlarda foydalanish, xuddi shunday qilmish uchun ma'muriy jazo qo'llanganidan keyin sodir etilgan bo'lsa jinoiy javobgarlik darajasida ko'rib chiqish ham belgilab qo'yildi³.

Davlat yoshlarning ham shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta'minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag'batlantiradi.

Davlat yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun sharoit yaratadi.

Konstitutsiyamizda "Inson – jamiyat – davlat" tamoyili huquqiy jihatdan rasmiylashtirilishi natijasida davlatimiz va jamiyatimizning siyosiy huquqiy qiyofasi ham o'zgarmoqda. Insonning haq-huquqlarini muhofaza qilish, baxt-saodatini ta'minlash davlat siyosatining asosiy mazmuni, bundan tashqari barcha davlat organlari faoliyatining eng ustuvor maqsadiga aylanmoqda.

Yana bir e'tiborli jihati shundaki, xorijiy davlatlarda istiqomat qilayotgan vatandoshlarimiz ham e'tibordan chetda qolmasdan ularni ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-gumanitar va boshqa sohalarida qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, davlatimizda yaratilayotgan ushbu imkoniyatlarning barchasi aholining farovon yashashi, o'z huquq va imkoniyatlaridan to'liq foydalanishiga xizmat qiladi.

Nurya BERDINIYAZOVA,

Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligining huquqiy axborot bo'yicha bosh maslahatchisi, 2-darajali yurist

² O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi, 148-modda, (<https://lex.uz/acts/-111453>), 22.09.1994-y.

³ O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi, 148¹-modda, (<https://lex.uz/acts/-111453>), 22.09.1994-y.

Milliy davlatchiligimiz taraqqiyotining yangi bosqichi – “Yangi O‘zbekiston” sharoitida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan O‘zbekiston milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari yuz tutdi. Yangi tarixiy bosqich inson qadr-qimmatini ulug‘lash, uning haq-huquqlarini amalda ro‘yobga chiqarish sari uzoq kutilgan qadamlar tashlangani bilan ham ahamiyatlidir.



Qonunchilik hujjatlari ijrosi ustidan

davlat nazoratini
takomillashtirish asoslari



Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak degan tamoyil jamiyatdagi ustuvor qoidalardan biri sifatida belgilandi. Mazkur organlarning faoliyatida xalq bilan muloqot eng asosiy mezonga aylandi. Biroq davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, "...boshqaruv tizimi sifatini oshirishda "Xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak" degan asosiy tamoyilni amalda to'liq ta'minlash bo'yicha hali ko'p ish qilishimiz zarur"¹.

2023-yil 30-aprelda yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyaning 15-moddasida O'zbekiston Respublikasida Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi so'zsiz tan olinishi, Konstitutsiya mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega ekanligi, to'g'ridan-to'g'ri amal qilishi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil qilishi mustahkamlab qo'yildi².

Darhaqiqat, qonun ustuvorligi kafolatlangan huquqiy davlatchilik har qanday mamlakatda iqtisodiy farovonlik va siyosiy-huquqiy barqarorlikni ta'minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Binobarin, huquqiy davlatda qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniylikni mustahkamlash orqali jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti kafolatlanadi. Bunda qonunchilik hujjatlari ijrosi ustidan davlat nazorati g'oyat dolzarb va muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlat nazorati qonuniylik va mamlakat xavfsizligi, fuqarolarning hayoti va sog'lig'i xavfsizligi, ularning mol-mulkini

muhofaza qilish, atrof-muhit, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash maqsadida amalga oshiriladi.

O'zbekiston qonunchiligida parlament nazorati, konstitutsiyaviy nazorat, prokuror nazorati, budjet, moliyaviy, valyuta, bojxona, eksport, soliq, ekologiya, sanitariya, fitosanitariya nazorati kabi qator tushunchalar qo'llaniladi.

Chunonchi, ijro hokimiyati tizimiga kiruvchi, nazorat-tekshiruv vakolatiga ega idoralar tomonidan muayyan sohalarga ixtisoslashgan holda qonuniylikning ta'minlanishi, shu jumladan, davlat boshqaruvi organlari faoliyatining samaradorligi, ularga yuklatilgan vazifalarning ijrosi yuzasidan davlat nazorati (kontrol) amalga oshiriladi. Respublikamizda har bir sohada qonunchilik hujjatlari ijrosini nazorat qilishga ixtisoslashgan 40 taga yaqin davlat nazorat-tekshiruv idoralari faoliyat ko'rsatadi. Ular tomonidan mamlakatimizda qonuniylikni ta'minlash, qabul qilinayotgan qonunchilik hujjatlari hamda dasturlar

ijrosini ta'minlash borasida ko'p ishlar qilingan va qilinmoqda.

Bugungi kunda davlat nazoratini tashkil etish, shu jumladan nazorat-tekshiruv idoralari faoliyati samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan ayrim tashkiliy-huquqiy muammolar mavjud.

Birinchidan, davlat nazorati tushunchasi, uning shakllari, davlat nazoratini amalga oshiruvchi organlar, davlat nazorati mexanizmlarini qonun darajasida belgilash, davlat nazorati tizimida prokuror nazoratining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashtirib olish zaruriyati yuzaga kelgan.

Nazorat-tekshiruv idoralari faoliyati, nazorat tadbirlarini amalga oshirish mexanizmlari yaxlit qonun hujjatida tartibga solinmagani, vakolatlari va funksiyalarining aniq chegaralari belgilanmagani davlat nazorati tizimini samarali tashkil etish imkonini bermaydi.

Xususan, davlat nazorati huquqiy asoslarini yaratish borasida Rossiyaning ijobiy tajribasini ko'rsatib o'tish joiz. Mazkur davlatda "Rossiya Federatsiyasida davlat nazorati va hududiy nazorat to'g'risida"gi federal qonun³ qabul qilingan bo'lib, unda nazorat organlarining vazifa va funksiyalari, tegishli mexanizmlar, nazorat organlari ro'yxati aniq belgilangan.

Ikkinchidan, bugungi kunda mamlakatimizda nazorat-tekshiruv vakolatiga ega bo'lgan idoralarning yarmidan ko'pi (36 tadan 19 tasi) bevosita o'zi nazorat qiladigan vazirlik tarkibida faoliyat ko'rsatmoqda. Nazorat qiluvchi va nazorat qilinuvchi

¹ Шавкат Мирзиёев: Халқимиз ҳаммадан зийрак ва улуг'дир // <https://president.uz/uz/lists/view/3314>.

² Ўзбекистон Республикаси Конституцияси // <https://lex.uz/docs/6445145>

idoraning bir rahbar qo‘l ostida to‘planishi kutilgan natijaga erishishga imkon bermaydi, davlat nazoratining xolisligi va mustaqilligiga putur yetkazadi.

Tahlillarga ko‘ra, birgina 2023-yilda davlat nazorati olib boriladigan sohalarda aniqlangan jami 7,4 trln so‘mlik moliyaviy qonunbuzilishlarning qariyb 40 foizi huquqni muhofaza qiluvchi organlar hissasiga to‘g‘ri kelishi shundan dalolat beradi.

Zero, O‘zbekiston Prezidentining 2017-yil 8-sentyabrdagi 5185-farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasida Ma‘muriy islohotlar konsepsiyasi”ning⁴ Iqtisodiyot tarmoqlariga ma‘muriy ta‘sir ko‘rsatishni yanada qisqartirish va boshqaruvning bozor mexanizmlarini kengaytirishga doir III bo‘limi 4-bandida nazorat vakolatiga ega ijro etuvchi hokimiyat organlarini ularning nazoratidagi xo‘jalik boshqaruvi organlari hisobidan moliyalashtirish amaliyotidan voz kechish belgilangan edi.

Uchinchidan, qonunlarning bajarilishi ustidan prokuror nazorati – maxsus vakolatlar bilan amalga oshiriladigan davlat nazoratining muhim shakli hisoblanadi. Prokuraturaning mavjudligi qonuniylik ehtiyojidir.

O‘zbekiston hududida konstitutsiya va qonunlarga rioya etilishi ustidan prokuror nazorati mustaqil faoliyat bo‘lib, mazkur faoliyatni prokuratura organlaridan tashqari hech qanday davlat va nodavlat organlari, muassasalar, tashkilotlar,

jamoat birlashmalari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, mansabdor shaxslar bajarishi mumkin emas.

Prokuratura davlat nazorati organi ekan, o‘z vazifalarini amalga oshirishda mavjud nazorat-tekshiruv idoralari bilan o‘zaro bog‘liq holda faoliyat yuritadi.

Hozir prokuratura organlari va 30 ga yaqin nazorat-tekshiruv idoralari o‘rtasida o‘zaro hamkorlik bo‘yicha tartiblar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilgan. Shunday bo‘lsa-da, prokuratura va davlat nazorat-tekshiruv idoralari qonunlar ijrosi ustidan nazorat faoliyatining chegaralari va shakllari aniq belgilanmagani amaliyotda ko‘plab muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Aniqroq aytadigan bo‘lsak, muayyan sohada qonunlar ijrosi bilan bog‘liq nuqson va kamchiliklar yuzasidan murojaatlarni ko‘rib chiqish, muammolarni bartaraf etish majburiyatini yuklash, umuman olganda muayyan soha nazoratiga mas‘ul va javobgar organni belgilashda ko‘plab chalkashliklar mavjudligi ayni haqiqatdir.

Shu nuqtayi nazardan, bugungi kunda rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasi hamda milliy qonunchiligimiz talablarini inobatga olgan holda, “Davlat nazorati to‘g‘risida”gi qonunni qabul qilish, unda davlat nazorati turlari va shakllari, amalga oshirish asoslari va mexanizmlari, vakolatlar chegaralarini aniq belgilab qo‘yishga kuchli ehtiyoj yuzaga kelgan.

Fikrimizcha, mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar jarayonida “Davlat nazorati to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi davlat nazorati sohasida yagona yondashuvni joriy etish, davlat nazoratining umumiy maqsad va vazifalarini, prinsiplarini va asosiy yo‘nalishlarini belgilash, nazorat organlari ishidagi o‘zaro takrorlashlarning oldini olish va faoliyatini optimallashtirish, eng muhimi – davlat nazorati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, mazkur qonunning qabul qilinishi “Prokuratura to‘g‘risida”gi qonunda davlat nazoratining muhim shakllaridan biri sifatida prokuror nazorati vazifalarini to‘g‘ri anglashga imkon beradi.

Bundan tashqari, qonunchilikda prokuror nazoratiga doir normalarni takomillashtirishga ham ehtiyoj yuzaga kelgan. Jumladan, amaldagi “Prokuratura to‘g‘risida”gi qonun prokuror nazoratini amalga oshirish shakllarini to‘la aks ettirmaydi. Qonunning 21-moddasida qonunlar ijrosini tekshirish prokuror nazoratining yagona shakli sifatida qayd etilgan bo‘lsa-da, amaliyotda prokuror nazoratini amalga oshirishning boshqa shakllari ham keng qo‘llanmoqda.

Shu nuqtayi nazardan O‘zbekiston Prezidentining “Yo‘qilg‘i-energetika sohasida davlat nazorati mexanizmlarini takomillashtirish va “raqamli energonazorat” tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi 77-farmoni⁵ 5-bandida prokuror monitorin-gi va axborot-tahlil faoliyatini

³ Федеральный закон “О государственном контроле (надзоре) и муниципальном контроле в Российской Федерации” от 31.07.2020 N248-ФЗ// Электрон манба. URL: https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_358750.

⁴ O‘zbekiston Prezidentining 2017-yil 8-sentyabrdagi 5185-farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasida Ma‘muriy islohotlar konsepsiyasi // Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 17.03.2021-y., 06/21/6188/0216-son.

⁵ O‘zbekiston Prezidentining 2023-yil 24-maydagi “Yo‘qilg‘i-energetika sohasida davlat nazorati mexanizmlarini takomillashtirish va “raqamli energonazorat” tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi 77-farmoni // Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 26.05.2023-y., 06/23/77/0298-son.

yuritish asoslarini belgilash nazarda tutildi.

Axborot texnologiyalari shiddat bilan rivojlanayotgan hozirgi davrda prokuratura faoliyatini ham raqamlashtirish, zamonaviy axborot dasturlarini joriy etish borasida ko'plab yutuqlarga erishildi, prokuraturaning axborot tizimlari boshqa davlat idoralarning axborot bazalariga integratsiya qilindi.

Shu jihatdan, qonunda "prokuror nazorati tadbiri" tushunchasini belgilab, qonunlar ijrosini tekshirish bilan birga, prokuror monitoringini o'tkazish, axborot-tahlil faoliyatini yuritish, nazorat qiluvchi organlarning qonun buzilishi to'g'risidagi materiallarini ko'rib chiqishni prokuror nazorati tadbirlari shakllari sifatida belgilash va ularni o'tkazish asoslarini qonunda nazarda tutish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bundan tashqari, nazorat tadbirlari ustidan shikoyat qilish tartibini kiritish prokuror nazorati faoliyatida qonuniylikka rioya etilishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Yana bir masala. Prokuratura organlari faoliyatini tartibga soluvchi boshqa sohalarga oid qonunlarda ham turli nomuvofiqliklar mavjud. Masalan, O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 29-avgustdagi "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi qonuni 23-moddasida "xo'jalik shartnomalarini tuzish, bajarish, o'zgartirish va bekor qilish bilan

bog'liq bo'lgan qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazoratni qonunlarga muvofiq prokuratura organlari amalga oshiradilar.

Bu organlar aybdor shaxslarni qonunda belgilangan javobgarlikka tortish, xo'jalik yurituvchi subyektga yetkazilgan zararni qoplash yuzasidan zarur chora-tadbirlarni ko'radilar"⁶ deb belgilangan.

Holbuki, tadbirkorlik subyektlari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar ustidan nazorat prokuratura organlari vakolatlaridan allaqachon chiqarilgan va huquqiy amaliyot sifatida ham barham topgan.

Binobarin, "Prokuratura to'g'risida"gi qonunning 23-moddasida xo'jalik faoliyatiga va boshqa faoliyatga prokurorning bevosita aralashishiga, shuningdek idoraviy boshqaruv va tekshiruv organlarining vazifalarini bajarishiga yo'l qo'yilmaydi"⁷ deb ko'rsatilgan.

Boshqa qonun hujjatlarida ham, jumladan, xo'jalik yuritish sohasida, tadbirkorlik subyektlari tomonidan qonunlarga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirishdagi prokuror nazoratining ishtirokini huquqiy jihatdan tartibga solishda jiddiy muammolar saqlanib qolmoqda.

Masalan, "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risida"gi qonunning 2-moddasiga ko'ra, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati ustidan prokuror nazorati tartibida amalga oshiriladigan davlat na-

zorati tegishli qonun hujjatlari bilan ham tartibga solinadi⁸.

Bu sohada prokuror nazoratini avvalgidek keng talqin qilish iqtisodiyotga davlat aralashuvini kamaytirish, biznes rivojiga xalaqit qilmaslik, sui-iste'molchilik va korrupsiyaning oldini olish, ortiqcha va takrorlanuvchi funksiyalarni bartaraf etish nuqtayi nazaridan maqbul bo'lmagan holatdir.

Qonunchilikka muvofiq xo'jalik yurituvchi subyektlar, ularning tadbirkorlik sohasidagi o'zaro aloqalari prokuror nazoratining obyekt yoki predmeti hisoblanmaydi. "Prokuratura to'g'risida"gi qonunda xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatini nazorat qilish tartibi, asoslari va shakllari nazarda tutilmagan.

Qolaversa, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini nazorat qilishga mas'ul nazorat-tekshiruv idoralari mavjud bo'lib, prokuraturaning ushbu idoralar faoliyatini takrorlab, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati ustidan u yoki bu shaklda nazoratni amalga oshirishi davlat kuch va vositalarining noo'rin, behuda sarflanishini anglatadi.

Bu masalalarni tegishli qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, "Davlat nazorati to'g'risida"gi qonunni qabul qilish orqali hal etish mumkin, deb hisoblaymiz.

Halim BOLTAYEV,

Bosh prokuratura boshqarma boshlig'i,
Huquqni muhofaza qilish
akademiyasi magistraturasi tinglovchisi

⁶ O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi qonuni 23-moddasi // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 22.02.2024-y., 03/24/911/0142-son.

⁷ O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi qonuni 23-moddasi // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 19.02.2024-y., 03/24/909/0133-son.

⁸ O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risida"gi qonuni 2-moddasi // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 22.02.2024-y., 03/24/911/0142-son.

Davlat fuqarolik xizmatchisini rag'batlantirishda

davlat xizmati modelining
o'rne



Bugungi kunda mamlakatimizda davlat fuqarolik xizmatini isloh qilishga katta urg'u berilmoqda. Xususan, O'zbekiston Prezidentining 2017-yil 8-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasida ma'muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 5185-farmonining qabul qilinishi ma'muriy sohadagi islohotlarga asos bo'ldi.

Mazkur farmon bilan tasdiqlangan Ma'muriy islohotlar konsepsiyasining VI bobida professional davlat xizmatining samarali tizimini shakllantirish, ijro etuvchi hokimiyat organlari tizimida korrupsiyaga qarshi kurashishning ta'sirchan mexanizmlarini joriy etish belgilangan. Unga ko'ra davlat xizmatchilarining professional korpusini yaratish maqsadida davlat xizmatini tashkil etish va davlat xizmatining huquqiy maqomini, kadrlar zaxirasini shakllantirish, xizmatga qabul qilishning shaffof mexanizmlarini joriy etish nazarda tutilgan.

Davlat xizmatini yangicha yondashuv asosida takomillashtirish shu sohada ishlab chiqilayotgan va qabul qilinayotgan qonun hujjatlari-ning ilmiy asoslarni yaratish uchun tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi. O'zbekistonda "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi qonun va yangi tahrirdagi Mehnat kodeksining qabul qilinishi davlat fuqarolik xizmatiga kadrlarni tanlashning samarali mexanizmini joriy etish, davlat xizmatchilarining huquqlarini kafolatlash va faoliyatini oqilona rag'batlantirishning huquqiy asoslarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Mamlakatda davlat xizmatining qaysi modeli yoki pozitsiyasi qabul qilinganiga qarab jahon olimlari davlat xizmatchilarining ish haqi, moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy ta'minotining ikkita modelini ajra-

tib ko'rsatishadi. Bular karyera hamda pozitsion modellardir.



Karyera modeliga ega mamlakatlarda davlat xizmati bir necha asrlar oldin qabul qilingan rasmiylikning an'anaviy tamoyillariga asoslanadi. Bunda davlat o'z xodimlarini ijtimoiy va moddiy ta'minlash bo'yicha majburiyatlarni zimmasiga oladi.

Karyera modeliga ega klassik mamlakatlardan biri **Germaniya**. U yerda davlat xodimining ish haqi miqdorini aniqlashda ma'lumoti, kasbiy malakasi va ushbu turdagi faoliyatga qobiliyati xizmat uchun muhimdir. Shu bilan birga davlat xizmatchilarining ish haqi darajasi xodimning ijtimoiy mavqeyiga mos bo'lishi lozim. Shunda xodim lavozimiga mos turmush tarziga ega bo'ladi. Shunga qaramay davlat xizmatchilarining ish haqi xususiy sektor xodimlarining maoshidan past. Biroq bu farq davlat xizmatchilariga beriladigan ijtimoiy kafolatlar va ijtimoiy ta'minot bilan qoplanadi. Shunday qilib, nemis amaldorining maoshi asosan u qilgan ish hajmiga bog'liq emas, balki uning ma'lumoti va maqomi darajasiga ko'proq

bog'liq. Bunday qonun bilan belgilangan ish haqi va ijtimoiy kafolatlar tizimi tufayli kam malakali xodimlar Germaniyada davlat xizmatiga kirishga moyildirlar, yuqori malakali xodimlar iqtisodiyotning xususiy sektorida ishlashni afzal ko'rishadi¹.

Karyera modeli sharoitida davlat xizmatchilarining rasmiy ish haqi miqdori, shuningdek, taqdim etilgan barcha qo'shimcha to'lovlar, xususan, bonuslar, nafaqalar va qo'shimcha to'lovlar qonunchilik darajasida belgilanadi.

Germaniyada davlat xizmatchilarining maoshi bir nechta tarkibiy qismdan iborat. Ish haqining eng muhim elementi – lavozim uchun rasmiy ish haqi, bu umumiy daromadning taxminan 85 foizini tashkil qiladi. Bundan tashqari, davlat xizmatchilariga turli qo'shimcha to'lovlar va nafaqalar to'lanadi. Ular mos ravishda ish haqining 15 foizini tashkil qiladi. Mahalliy nafaqa mavjud, uning miqdori xodimning oilaviy holati (turmush qurgan-qurmaganiga) bog'liq. Bu qo'shimcha to'lov foizda emas, balki aniq pul miqdorida belgilanadi². Yana kichik oylik jamg'arma nafaqasi, chet elda ishlash uchun qo'shimcha to'lov mavjud. Eng muhim nafaqa vazirlar nafaqasi bo'lib, u ishlaydigan barcha mansabdor shaxslarga to'lanadi.

Germaniyada ijtimoiy kafolatlar tizimi qonunchilik darajasida mustahkamlangan. Davlat xizmatchilariga har yili olti haftalik pulli ta'til berila-

di. Shu bilan birga ta'tilga chiqishda (odatda yozda) ta'til to'lovi xodimning oilaviy ahvoriga qarab to'lanadi. Haftada besh kundan ortiq muntazam ishlaydigan amaldorlar (bayramlar, dam olish kunlari) ta'tiliga yana sakkiz kungacha dam olish kuni qo'shilishi mumkin.

Germaniyada davlat xizmatchilarining ish haqi va ijtimoiy ta'minot shaklida moddiy rag'batlantirishi ularning davlatga xizmat ko'rsatishi bilan bog'liq ortib borayotgan talab va cheklovlarni qoplaydi. Bu ularning munosib turmush darajasini ta'minlaydi. Mamlakat keng va yaxshi tashkil etilgan mexanizmga ega bo'lsa-da, olimlar davlat xizmatchilarining ishini rag'batlantirish uchun davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish maqsadida davlat xizmatchilarini moddiy rag'batlantirish uchun yanada moslashuvchan vositalarni joriy etish zarurligini ta'kidlashmoqda³.

Davlat xizmatining pozitsion modeliga ega bo'lgan mamlakatlarda, masalan, AQSh, Kanada, Buyuk Britaniya, Fransiyada rag'batlantirishning individual va moslashuvchan shakllari hamda tizimlari ustunlik qiladi.

Bundan tashqari bir qator mamlakatlar davlatning tartibga solish va huquqni qo'llash sohasida inson resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishga katta e'tibor qaratmoqda. Har bir davlat o'z tajribasi, mamlakatdagi siyosiy, ijtimoiy va



¹ The german public service – structure and statistics. Second, enlarged edition 2005 Copyright Derlien 2005, pp.36-40.

² <https://lohtastik.de/s/salary-search/114096/3>.

³ Blachly, F. F., & Oatman, M. E. The position of civil servants in Germany. The Southwestern Political and Social Science Quarterly, 10(2), pp. 171-189. <http://www.jstor.org/stable/42880804>.

iqtisodiy vaziyatdan kelib chiqib, davlat xizmatchilarini rag'batlantirish samaradorligi va shakllarini baholash bo'yicha tizimlarini shakllantiradi hamda ishlab chiqadi.

AQShda 1883-yilda Pendlton qonuni (The Pendleton Act) qabul qilingan. Amerikalik huquqshunoslarning so'zlariga ko'ra, bu qonun davlat fuqarolik xizmatchilariga birinchi marta rag'batlantirishni qo'llash va samaradorlikni baholash tizimini belgilab berdi⁴.

1993-yilda AQSh Kongressi qabul qilgan "Hukumat faoliyati natijalari to'g'risida"gi qonun marmuriy usullarni bozor tamoyillari va mexanizmlariga yaqinlashtirish yo'nalishida xizmatni takomillashtirishning ustuvor yo'nalishini belgiladi. Qonunning normalari ijroiya amaldorlarining rasmiy faoliyatiga biznes qoidalari bilan bog'liq ba'zi jihatlarni joriy etish zarurati tufayli yuzaga keldi. Ushbu vazifani hal qilish doirasida ular ko'rsatadigan xizmatlarning miqdori va sifatiga katta o'rin berildi.

Davlat xizmatining rahbar kadrlari uchun rasmiy ish haqining ma'lum miqdorini belgilashda ularning xizmat vazifalarini bajarish sifati quyidagi mezonlar asosida baholanishi belgilandi:

- boshqaruv ishining samaradorligi;
- ish sifatini oshirish, jumladan, hujjatlar hajmini kamaytirish;
- pulni tejash, xizmat vazifalarini o'z vaqtida bajarish;
- davlat xizmatchisiga bo'ysunadigan shaxslarning samaradorligi va ijro intizomining boshqa ko'rsatkichlari⁵.

Davlat xizmatchilarining boshqaruv kadrlarini rag'batlantirishga kelsak, AQShda quyidagi choralar qo'llanadi: minnatdorchilik, bonuslar, ish haqini oshirish, lavozimga ko'tarilish, malakasini oshirish, faxriy unvonlar berish. Bular umumiy tartibda faqat faoliyati muvaffaqiyatli deb baholangan davlat xizmatchilariga beriladi.

Shu bilan birga mukofotni to'lash uchun bir nechta shartlar bajarilishi kerak:

birinchidan, bir martalik bonus miqdori rasmiy ish haqi miqdorining 20 foizidan oshmasligi lozim;

ikkinchidan, har bir bo'limda yuqori menejment xodimlarining 50 foizdan ko'prog'i ko'tarilishi mumkin emas⁶.

Maxsus tartibda bo'lim boshlig'i yoki prezident jamoat manfaatlarini himoya qilishdagi alohida xizmatlar yoki ishga qo'shilgan hissa uchun pul bilan rag'batlantirishi mumkin. Qoida tariqasida bu bonuslar miqdori 10 ming dollar, alohida hollarda 25 ming dollarni tashkil etadi. Faxriy va taniqli davlat xizmatchisining faxriy unvoni har 4 yilda bir martadan bir yil muddatga beriladi.

AQShda davlat xizmatchilarini ijtimoiy himoya qilish yetarlicha rivojlangan tizimga ega ekanini ta'kidlash lozim. AQSh davlat xizmatining "ijtimoiy paketi" juda yuqori. Bu samarali xizmatning omillaridan biri va xodimlarning davlat xizmatida ishlashini va pensiya yoshiga qadar ishlash istagini ushlab turadigan sababdir. AQShda davlat xizmatchilarining dastlabki maoshi yuqori bo'lmaydi va yiliga taxminan 25 000 dollarni tashkil qiladi. O'rtacha ish haqi va turmush darajasini hisobga olgan holda bu katta miqdor emas. Lekin u har yili oshib boradi. Ularga qo'shimcha maosh to'lanadi. Fuqarolarni davlat xizmatiga jalb qilishning muhim jihati tibbiy sug'urta hisoblanadi. AQShda tibbiy xizmatlar ancha qimmat. Tibbiy yordam uchun xarajatning bir qismini davlat xizmati organlarining shahar bo'limlari to'laydi, qolgan qismini ularning kasaba uyushmalari tashkil etgan tibbiy sug'urta jamg'armasi to'laydi. Bu yerda davlat xizmati xodimlari oila tarkibiga qarab ko'p yoki kam miqdorda pul olishadi. Tibbiy sug'urta davlat xizmatchisi nafaqaga chiqqanidan keyin ham saqlanadi.

2004-yil boshidan beri AQShda sog'lom turmush tarzini olib boradigan davlat xodimlarini rag'batlantirish dasturlari ishlab chiqildi. Misol uchun, Arkanzasda ushbu xodimlar tibbiy sug'urta uchun ariza berishda naqd pul mukofoti yoki chegirmalar olishlari mumkin. Davlat xizmatchisi

⁴ <https://www.archives.gov/milestone-documents/pendleton-act#:~:text=The%20Pendleton%20Act%20 provided %20 that,were%20covered%20by%20 the%20law.>

⁵ Gilbert B. Siegel. Designing and Creating an Effective Compensation Plan(Chapter 27). Stephen E. Condrey and James L. Perry. Handbook of Human Resource Management in Government[M]. Jossey-Bass A Wiley Imprint, 2010, pp. 663-685.

⁶ <https://www.commerce.gov/hr/practitioners/compensation-policies/general-pay/overseas-pay-for-civil-service-employees.>

nafaqaga chiqqandan so'ng o'rtacha oylik ish haqining to'rtidan uch qismini olishi mumkin⁷.

AQShda yiliga bir marta nafaqat xodimlar, balki bo'lim boshlig'i ham o'z faoliyatining samaradorligini baholash tartibidan o'tadi. Shu bilan birga ushbu bo'lim xodimlar faoliyati samaradorligini tekshirishning maxsus tizimini shakllantiradi. Ushbu tizim yordamida menejer va xodimlarning maqsadlari belgilanadi, menejerning maqsadlari esa to'g'ridan-to'g'ri tashkiliy va individual ishlashdan kelib chiqadi. Maqsadlar ko'rsatilgan shartnomani bo'lim boshlig'i va xodimlari imzolaydi. Shartnomada faoliyat samaradorligi, mehnat sifati, resurslardan foydalanish samaradorligi va innovatsion rivojlanish imkoniyati ko'rsatiladi.

Ushbu tizim davlat xizmatchilarini rag'batlantirishning bir qismi hisoblanadi, bu ularning ish samaradorligiga bevosita ta'sir qiladi. Agar shartnoma shartlari bajarilmasa, menejer xodimni ishdan bo'shatish huquqiga ega. Shunisi e'tiborga loyiqki, bo'lim boshlig'ining ishlashi bevosita bo'ysunuvchilarining ishlashiga bog'liq⁸.

Mavjud ish haqi tizimining asosini tashkil etgan davlat xizmatchilarini rag'batlantirishning asosiy prinsipi "teng ish uchun teng ish haqi" va "natija bo'yicha farqlash"dir. Yuqori darajadagi davlat rahbarlarining ish haqi darajasi kongress a'zolari oladigan to'lov bilan bevosita bog'liq. Ya'ni kongressdagilar o'z maoshlarini oshirish uchun ovoz berganda, davlat xizmatlari menejerlarining maoshlarini oshirish uchun ham ovoz beradi⁹.

Buyuk Britaniyada davlat xizmatchisining ish haqi uning faoliyatini baholash bilan chambarchas bog'liq. Ushbu baholash murakkab bo'lib, rahbar bilan suhbat va attestatsiyadan iborat. Agar attestatsiyada davlat xizmatchisi qoniqarsiz deb topilsa, u boshqa menejer tuzilmasiga o'tkaziladi.

Buyuk Britaniyada davlat xizmatining eng muhim tamoyillaridan biri xizmatchilarga davlat boshqaruvining turli sohalarida qobiliyatlari, ko'nikmalarini namoyish etish va xizmatda rivojlanish imkoniyatini berishdir. Karyera o'sishi ish tajribasi va bilimining qanchalik o'sishiga hamda ushbu bilimlarning erishilgan rasmiy lavozimga

mos kelishiga bog'liq.

Attestatsiya tugagandan so'ng davlat xizmatchisi o'z ishining natijalari, baholash mezonlari bo'yicha sharhlardan xabardor qilinishi kerak. Ish faoliyatini baholash natijalari davlat xizmatchisiga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Chunki ular kasbiy rivojlanish, o'qitish, mukofotlash, rag'batlantirish, ish haqini oshirish, qo'shimcha bonuslar, shuningdek, ishdan bo'shatish zarurati kabi turli qarorlar uchun asosdir.

Buyuk Britaniyada ish haqi miqdorini belgilash masalasini maxsus bo'lim va idoralar amalga oshiradi. Shunisi e'tiborga loyiqki, ushbu qiymatlarni aniqlash uchun JEGS (job evaluation and grading support) texnikasi qo'llanadi. Uning yordamida turli omillar va maxsus kompyuter dasturlari asosida ma'lum bir funksiyaning ahamiyatini baholash mumkin¹⁰.

Davlat xizmatchilariga haq to'lashning bunday tizimida pul mukofoti miqdori ular amalga oshirayotgan faoliyatning samaradorligi va ahamiyatini baholash bilan bog'lanadi. Ya'ni mansabdor shaxsning maoshi ma'lum darajada uning lavozimlarni tasniflashdagi mavqeyiga bog'liq. Maksimal va eng kam ish haqi chegaralari aniqlangan bo'lsa-da, lekin bu chegaralar ichida barcha nafaqalar va bonuslar davlat xizmatchilari faoliyatining samaradorligi asosida belgilanadi.

Buyuk Britaniyada davlat xizmatchilarini rag'batlantirishning asosiy turi to'g'ridan-to'g'ri ishlash natijalariga asoslangan moliyaviy rag'batlantirish hisoblanadi. Shu sababli ko'plab mutaxassislar mavjud tizimni davlat xizmatchilarining ish faoliyatini yaxshilash uchun samarasiz deb bilishadi.

Fransiyada 2022-yil 1-martdan "Davlat xizmati kodeksi" kuchga kirgan bo'lib, u 8 ta tomda mujassamlashgan 1265 ta moddadan iborat. Aynan ushbu kodeksning bir tomi davlat xizmatchilari faoliyatini baholashga bag'ishlangan. Ilgari davlat xizmatchilarining faoliyatiga ma'lum bir shkala asosida baho qo'yish bilan cheklanilgan. Dastlab bu amaliyot davlat xizmatchilarini lavozimga ko'tarishda foydali bo'lgan. Zamon talablari o'zgarishi bilan Fransiya bu amaliyotdan voz kechdi.

⁷ Zhao Long, Shen Anqi. China-US Civil Service Wages and Benefits Comparative[J]. Institute of Public Administration of Chengdu, 2009, pp. 13-15. (in Chinese).

⁸ O'sha joyda.

⁹ Кононов, Е. В. Опыт развитых государств в сфере оценки и стимулирования труда государственных служащих в соответствии с результатами этой деятельности // Региональная экономика и управление: электронный научный журнал. - №4 (24). - ст №2403. - 2010. URL: <http://eee-region.ru/article/2403/>.

¹⁰ <https://www.gov.uk/government/publications/job-evaluation-and-grading-support-jegs-for-civil-servants>.

Ayni vaqtda har yili o'tkaziladigan kasbiy intervyu asosida "davlat xizmatchisining kasbiy qiymati" baholanib, baholash natijalari davlat xizmatchisining hujjatlari majmuyida saqlanadi va davlat xizmatchisi ular yuzasidan shikoyat berish huquqiga ega¹¹.

Fransiya tajribasiga e'tibor bersak, hozirgi vaqtda davlat xizmatchilarining motivatsiyasi bevosita ularning faoliyatini baholashga bog'liq. U ikkita protseduradan iborat: baholash suhbat va sertifikatlash. Baholash suhbat har yili bo'lib o'tadi va oddiy norasmiy suhbatga o'xshaydi, uning davomida nafaqat maqsad va vazifalarga erishish, balki davlat xizmatchisining malakasini oshirish zarurati, martaba ko'tarilishi, sertifikatlash natijalari, shuningdek, davlat departamenti ishini tashkil etish muhokama qilinadi. Xodimning faoliyatini baholash individual natijalarga erishgani hamda ularning belgilangan maqsad va vazifalarga muvofiqligiga bog'liq.

Normativ-huquqiy hujjatlarda sertifikatlash paytida davlat xizmatchilarini baholash mezonlari aniq ko'rsatilgan, ammo ular ko'pincha sezilarli o'zgarishlarga duch kelishadi.

Eng muhim mezonlar:

- umumiy va o'ziga xos ko'nikmalar;
- vaziyatga moslashish;
- davlat apparati faoliyatiga qiziqish;
- boshqa xodimlar bilan munosabat o'rnatish;
- jamoada ishlash qobiliyati;
- jamoani boshqarish qobiliyati,
- ish samaradorligi;
- davlat apparati vazifasini tushunish;
- turli sohalaridagi murakkab vazifalarni bajarish qobiliyatiga ega bo'lishdan iborat.

Baholash yanada obyektiv bo'lishi uchun ballni ko'paytira oladigan xodimlar ulushi 20 foizdan oshmasligi qoidasi joriy etildi. Bundan tashqari, xodimning attestatsiya bahosini bir necha mansabdor shaxs tasdiqlashi kerak, avval uni ikki nafar menejer tasdiqlaydi, ulardan biri xodim bevosita ishlaydigan bo'linmadan, ikkinchisi keyingi darajadan, keyin baholash maxsus komissiya bilan muvofiqlashtiriladi¹².

Har bir xodimning ish samaradorligi uning lavozimga ko'tarilishiga, shuningdek, ish haqiga

alohida ta'sir ko'rsatmaydi. Chunki ular qat'iy tartibga solinadi. Amaldorlarning martabasi uning martabalar va eshelonlar tizimidan o'tishiga, eshelonning o'sishi ish stajiga va unvonning oshishi bevosita xodimni lavozimga ko'tarish to'g'risida qaror qabul qiladigan bo'lim boshlig'iga bog'liq. Bu qaror ko'p hollarda ish natijalariga bog'liq emas.

Rivojlangan mamlakatlarda davlat xizmatini yanada jozibador va samarali qilishga, ish haqi tizimini adolatli qilishga qaratilgan yangi tamoyillarga bosqichma-bosqich o'tish kuzatilmoqda. Tizimning moslashuvchanligini oshirishga, mehnat natijalariga asoslangan ish haqi va uni isloh etishga qaratilgan tizimni tobora ko'p davlatlar qabul qilmoqda.

Xorijiy mamlakatlar tajribasini tahlil qilgan holda mamlakatimizda davlat fuqarolik xizmatchisini rag'batlantirishning karyera modelini joriy qilish, bu borada "Davlat fuqarolik xizmatchilarini rag'batlantirish strategiyasi"ni ishlab chiqish va unda quyidagi ustuvor yo'nalishlarga e'tibor qaratish lozim:

- yaxshi ishlagan davlat fuqarolik xizmatchisiga yaxshi ish haqi to'lash;
- JEGS (job evaluation and grading support) texnikasini qo'llash;
- iqtisodiyotning xususiy sektoridagi o'xshash lavozimlarga haq to'lash bilan davlat xizmati lavozimiga haq to'lash darajasini qiyoslash;
- har yili ish haqini avtomatik ravishda oshirish bilan emas, balki ish haqini baholash omillarini moslashuvchan tarzda aniqlash;
- davlat organlariga tabaqalashtirishni joriy etishga imkon berish orqali ish haqi tizimini nomarkazlashtirish.

Tizimning bunday afzalliklari individual motivatsiyani kuchaytiradi, xususiy sektor bilan jiddiy raqobat sharoitida eng malakali ishchilarni jalb qilish imkoniyatini ochadi, davlatning ish haqi xarajatlarini kamaytirib, davlat xizmatchilarining mutlaq ish haqi darajasini oshiradi.

Alisher JURAYEV,

Toshkent davlat yuridik universiteti
Ma'muriy va moliya huquqi kafedrasida o'qituvchisi

¹¹ <https://argos.uz/oz/press-center/news/522>.

¹² Кононов, Е. В. Опыт развитых государств в сфере оценки и стимулирования труда государственных служащих в соответствии с результатами этой деятельности // Региональная экономика и управление: электронный научный журнал. – №4 (24). – ст. №2403. – 2010. URL: <http://eee-region.ru/article/2403/>.



O'zbekistonda "Legal tech" (huquqiy texnologiya)ning jadal sur'atlarda o'sishi huquqiy va moddiy baza potentsiali bilan bog'liq. Lekin raqamli texnologiyalar orqali yuridik xizmatlar tezroq tadbiiq etilganda muammolar bo'y ko'rsatadi.

Milliy huquq tizimimizda, xususan yuridik xizmatlar faoliyatida asosan quyidagi huquqiy texnologiyalar joriy etilgani va ularning bir qator afzalliklarini ko'rishimiz mumkin.

O'zbekistonda "Legal tech"ni qo'llashning ahamiyati

Lex.uz

“Lex.uz” huquqiy axborot izlash tizimi hisoblanadi. Tizim normativ-huquqiy hujjatlarni oson hamda qulay shaklda izlash va ular bilan tanishish imkonini beradi.

“Lex.uz” huquq va huquqiy axborotlashtirish sohasida davlatning asosiy huquqiy axborot resursi bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasida qabul qilingan barcha qonun hujjatlarini e‘lon qiladigan yagona rasmiy elektron manbadir.

“Lex.uz”dan foydalanishni, normativ-huquqiy hujjatlarning rasmiy nashr etilishini, ularning turkumlashtirilgan hisobini va nazorat nusxalarining elektron shaklda yuritilishini ta‘minlash “Adolat” milliy huquqiy axborot markazining asosiy vazifasi hisoblanadi.

Mazkur axborot resursi aholining keng qatlami foydalanishi uchun ochiq bo‘lib, qo‘shimcha ro‘yxatdan o‘tishni talab qilmaydi.

“Lex.uz” 2007-yilning 1-mayidan rasmiy ishga tushirilgan.

2010-yil 1-yanvardan esa “Lex.uz”dan tekin foydalanish joriy etilgan.

“Lex.uz” normativ-huquqiy hujjatlardan bepul, keng ko‘lamda foydalanish imkonini beruvchi yagona axborot-huquqiy tizim hisoblanadi.

“Lex.uz”ga 2017-yil 25-sentabrdan normativ-huquqiy hujjatlar e‘lon qilinadigan rasmiy manba maqomi berildi.



project.gov.uz

Bu portal 2019-yil 1-yanvardan pilot loyihasi sifatida normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish va kelishishning yagona elektron tizimi sifatida sinov tariqasida ishga tushirilgan.

regulation.gov.uz

Bu portalda esa normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokama qilinadi.

Mazkur portal modernizatsiya qilingan. Unda qonunchilik hujjatiga ilova qilinadigan axborot-tahliliy materiallar joylanadi.

Axborot-tahliliy materiallarsiz loyihani portalga yuklab bo‘lmaydi. Foydalanuvchilar loyiha nima uchun ishlab chiqilgani, unda nima nazarda tutilgani va davlat budjetidan qancha xarajat talab qilinishi haqida o‘qishlari mumkin.

“E-huquqshunos” elektron tizimi

Bu tizim 2021-yil 1-oktabrdan davlat tashkilotlariga yuridik xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq barcha ma‘lumot va jarayonlarni to‘liq elektron ravishda yig‘ish, qayta ishlash, tahlil qilish va amalga oshirish uchun bosqichma-bosqich joriy etildi.

“E-huquqshunos” elektron tizimi quyidagi asosiy imkoniyatlarga ega:

- elektron tizimga ichki buyruq, shartnomalar va boshqa yuridik tusdagi hujjatlarning namunalarini kiritish hamda mavjud hujjatlar loyihalari namunalaridan erkin foydalanish;
- elektron tizimdan foydalanuvchi tashkilotlar tomonidan shaxsiy kabinetga kirish, har qanday hujjat loyihasi va unga tahliliy materiallarni tayyorlash, qayta ishlash va xulosa olish uchun markazlarga yuborish;

O‘zbekiston Adliya vazirligi qoshidagi “Adolat” milliy huquqiy axborot markazi tomonidan “Legal tech” tizimi ishga tushirilgan. Tizimda 1226 ta hujjat va shartnoma mavjud.

“E-huquqshunos” elektron tizimi 2021-yil 1-oktabrdan davlat tashkilotlariga yuridik xizmat ko’rsatish bilan bog’liq barcha ma’lumot va jarayonlarni to’liq elektron ravishda yig’ish, qayta ishlash, tahlil qilish va amalga oshirish uchun bosqichma-bosqich joriy etildi.

- yuridik xizmat ko’rsatish markazlarining mas’ul xodimlari tomonidan tegishli xulosa tayyorlash, hujjatlarni elektron raqamli imzo bilan tasdiqlagan holda, elektron tizimga biriktirish hamda o’zaro hujjat almashish;

- elektron tizimdan foydalanuvchi tashkilotlar tomonidan markazlardan ijobiy xulosa olinganidan so’ng takrorlanmaydigan maxsus raqam berish va elektron tarzda qabul qilish hamda ushbu hujjatlarni avtomatik tarzda izchil ketma-ketlikda raqamlash;

- davlat tashkiloti faoliyatini takomillashtirish bo’yicha takliflarni tizimga biriktirish, ularni tahrir qilish, takliflarni elektron raqamli imzo bilan tasdiqlash hamda yuborish;

- targ’ibot bilan bog’liq materiallarni elektron tizim orqali almashish;

- davlat tashkilotlariga talabnoma, sudlarga ariza yoki da’vo arizalarini kiritish uchun ularning loyihalarini tayyorlash, tahrir qilish va elektron raqamli imzo bilan tasdiqlab kiritish;

- yuridik xizmat ko’rsatiladigan tashkilotlarga nisbatan o’tkaziladigan tekshirishlarda masofaviy tarzda ishtirok etish hamda ularga huquqiy maslahatlar berish.

“E-qaror” elektron tizimi

- 2021-yil 1-iyuldan “E-qaror” elektron tizimi orqali ishlab chiqilgan hokim qarorlariga avtomatik tarzda raqam beriladi. Tizimda qarorlar e’lon qilib boriladi (xizmat doirasida foydalanish uchun mo’ljallangan hujjatlar bundan mustasno).

2021-yil 1-iyuldan:

- barcha mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari va farmoyishlari, shu jumladan, xizmat doirasida foydalanish uchun mo’ljallangan qarorlari va farmoyishlarini ishlab chiqish, kelishish, qabul qilish (chiqarish), ro’yxatga olish va e’lon qilish “E-qaror” elektron tizimi orqali amalga oshiriladi;

- “E-qaror” elektron tizimini chetlab o’tgan holda mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari va farmoyishlarini qabul qilish (chiqarish)ga yo’l qo’yilmaydi. Bunday hujjatlar yuridik kuchga ega emas hamda u qabul qilingan paytdan e’tiboran hech qanday huquqiy oqibatlarni keltirib chiqarmaydi;

- mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlarining tartibga solish ta’sirini baholash “E-qaror” elektron tizimidan foydalangan holda amalga oshiriladi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari va farmoyishlari “E-qaror” elektron tizimi orqali ishlab chiqiladi, kelishiladi, qabul qilinadi (chiqariladi), ro’yxatga olinadi va e’lon qilinadi.

Manfaatdor tashkilotlar “E-qaror” elektron tizimi orqali kelgan loyihani 3 kun muddatda:

- ish yurituviga qabul qiladi hamda ko’rib chiqadi;

- elektron raqamli imzo qo’yish yo’li bilan kelishadi (viza qo’yadi) yoki zarurat bo’lganda loyiha yuzasidan ishlab chiquvchiga elektron tizim orqali taklif va e’tirozlarini ko’rsatgan holda javob xatini kiritadi;

- kelishilgan loyihani ishlab chiquvchiga yuboradi.

Ishlab chiquvchi 3 kun muddatda hujjat loyihagini elektron tizimdan oladi va uni yakuniy ko’rib chiqadi. Loyihani elektron tizim orqali mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organiga yoki mahalliy vakillik organi kotibiyatiga kiritadi.

Mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organining tegishli tarkibiy bo’linmasi, mahalliy vakillik organlari kotibiyati 3 kun muddatda “E-qaror” elektron tizimi orqali kelib tushgan hujjatlar loyihalarini ish yurituviga qabul qiladi. Loyihani elektron raqamli imzo qo’yish yo’li bilan kelishadi (viza qo’yadi) yoki zarurat bo’lganda uni ishlab chiquvchiga elektron tizim orqali taklif va e’tirozlarini ko’rsatgan holda qaytaradi.

Kelishilgan hujjat loyihasini mahalliy davlat hokimiyati organining yuridik xizmatiga kiritadi.

Mahalliy davlat hokimiyati organining yuridik xizmati hujjat loyihasi elektron tizim orqali kiritilgandan keyin 2 kun muddatda:

- hujjat loyihasini elektron tizim orqali ish yurituviga qabul qiladi hamda loyihani ko'rib chiqadi;

- hujjat loyihasini elektron raqamli imzo qo'yish yo'li bilan kelishadi (viza qo'yadi) yoki taklif va e'tirozlari mavjud bo'lsa, loyihani ishlab chiquvchiga qaytaradi;

- hujjat loyihasini imzolash uchun mahalliy ijro etuvchi yoki vakillik hokimiyati organi rahbariga kiritadi.

Hujjat loyihasi normativ tusga ega bo'lgan taqdirda, mahalliy davlat hokimiyati organining yuridik xizmati:

- loyihani Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portaliga jamoatchilik muhokamasi o'tkazilishi uchun joylashtiradi;

- jamoatchilik muhokamasi yakunlangandan so'ng loyiha bo'yicha belgilangan tartibda xulosa tuzadi;

- loyihani huquqiy ekspertizadan o'tkazish uchun hududiy adliya organlariga belgilangan tartibda tegishli hujjatlarni ilova qilgan holda kiritadi.

Hududiy adliya organi mahalliy davlat hokimiyati organi yuridik xizmati tomonidan normativ tusga ega bo'lgan hujjat loyihasi kiritilgandan so'ng belgilangan muddatlarda:

- loyihani belgilangan tartibda huquqiy ekspertizadan o'tkazadi, loyiha qonunchilik hujjatlariga muvofiq bo'lsa xulosa beradi va bu haqida elektron tizim orqali mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organi yoki mahalliy vakillik organini xabardor qiladi;

- loyiha bo'yicha taklif va e'tirozlar mavjud bo'lsa, loyihani mahalliy davlat hokimiyati organining yuridik xizmatiga qaytaradi.

Loyihaga hududiy adliya organi tomonidan munosabat bildirilgandan keyin mahalliy davlat hokimiyati organining yuridik xizmati 2 kun muddatda:

- adliya organining ijobiy xulosasi bo'lgan taqdirda, loyihani imzolash uchun mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organi yoki mahalliy vakillik organi rahbariga kiritadi;

- loyiha hududiy adliya organi tomonidan taklif va e'tirozlar bilan qaytarilgan bo'lsa, uni qayta ishlab chiqadi va hududiy adliya organiga belgilangan tartibda elektron tizim orqali qayta kiritadi;

- mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organi, mahalliy vakillik organi rahbari yoki hududiy adliya organi tomonidan loyihani qabul qilish maqsadga muvofiq emas degan xulosaga kelingan taqdirda, bu haqda loyihani ishlab chiquvchiga xabar beradi.

Mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organi yoki mahalliy vakillik organi rahbari:


- hujjat loyihasini elektron raqamli imzo orqali imzolaydi, imzolangan va maxsus raqam bilan ro'yxatga olingan hujjatni "E-qaror" elektron tizimi bosh sahifasida avtomatik tarzda e'lon qiladi (xizmat doirasida foydalanish uchun mo'ljallangan hujjatlar bundan mustasno);

- hujjat loyihasini qabul qilish (chiqarish)ni maqsadga muvofiq emas deb topgan taqdirda, uni belgilangan tartibda qayta ko'rib chiqish uchun yuridik xizmat xodimiga yoki ishlab chiquvchiga qaytaradi.

my.gov.uz

Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida (my.gov.uz) tovarlarni elektron deklaratsiya qilish, qurilish-montaj ishlari boshlanishi to'g'risidagi xabarnomani ro'yxatdan o'tkazish, davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun ariza berish kabi davlat xizmatlari bajarila-

“Advice.uz” huquqiy axborot portalida jismoniy va oilaviy tadbirkorlik, davlat soliqlari, soliq imtiyozlari, transport, bank ishi, yer, uy-joy, ijtimoiy masalalar, sog'liqni saqlash kabi huquqiy masalalar, shu jumladan, fuqarolarni qiziqtirgan masalalar bo'yicha ma'lumot beriladi. Hozir portaldagi 34 ta bo'lim va 1600 dan ortiq kontent o'zbek, rus hamda ingliz tillarida mavjud. Portaldagi kontentlar doimiy ravishda yangilanadi.



“E-qaror” elektron tizimini chetlab o‘tgan holda mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari va farmoyishlarini qabul qilish (chiqarish)ga yo‘l qo‘yilmaydi. Bunday hujjatlar yuridik kuchga ega emas hamda u qabul qilingan paytdan e‘tiboran hech qanday huquqiy oqibatlarni keltirib chiqarmaydi.

di. Shuningdek, ko‘chmas mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlar va tadbirkorlar uchun boshqa xizmatlar ko‘rsatiladi.

Advice.uz

“Advice.uz” huquqiy axborot portalida jismoniy va oilaviy tadbirkorlik, davlat soliqlari, soliq imtiyozlari, transport, bank ishi, yer, uy-joy, ijtimoiy masalalar, sog‘liqni saqlash kabi huquqiy masalalar, shu jumladan, fuqarolarni qiziqtirgan masalalar bo‘yicha ma‘lumot beriladi. Hozir portalda 34 ta bo‘lim va 1600 dan ortiq kontent o‘zbek, rus hamda ingliz tillarida mavjud. Portalda kontentlar doimiy ravishda yangilanadi. So‘nggi chorak ichida (yanvar-mart) 80 ta kontent qo‘shilgan. 841 ta kontent to‘liq monitoring qilingan. Qonunchilikdagi o‘zgartirishlarga muvofiqlashtirish maqsadida yangilangan. Asosiy ekranda “Mehnat munosabatlari”, “Uy-joy ijara masalalari”, “Voyaga yetmaganlar huquqlari”, “Gender tenglik va xotin-qizlar masalalari”, “Sport”, “Yuridik xizmat (huquqiy hujjat namunalari)”, “Mahalla” va “Korrupsiyaga qarshi kurashish” nomli yangi bo‘limlar yaratilgan. “Yangiliklar” bo‘limiga qonunchilikdagi 2500 ta yangilik va ma‘lumot joylashtirilgan. Portalga hozirga qadar 4 milliondan ortiq foydalanuvchi kirgan. Portal orqali bir kunda o‘rtacha 300 ta murojaat keladi.

Biznesga maslahat

“Biznesga maslahat” interfaol axborot portali tadbirkorlar uchun bir qator qulayliklarni yaratib beradi:

1. Nihoyatda keng ma‘lumotlar va maslahatlar bazasi.

Portalda mingga yaqin huquqiy ma‘lumot va tavsiya joylashtirilgan. Jumladan, biznesni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishdan tortib uni tugatishgacha, xodimlarni ishga olish, infratuzilmalarga ulanish va yer olish, litsenziya va ruxsat berish tartib-taomillaridan o‘tish, bank, soliq va bojxona sohasiga oid 800 ga yaqin ma‘lumot va tavsiya aks ettirilgan.

Shuningdek, portalga joylashtirilgan ma‘lumotlar yuzasidan 20 dan ortiq vazirlik, idora va jamoat tashkilotining takliflari olingan.

Qayd etish kerak, ma‘lumotlar va tavsiyalar sodda, xalqchil va barcha uchun tushunarli tilda bayon etilgan.

2. Hujjatlarning namunalari va shakllari berilgan.

Portalda huquqiy ma‘lumotlarni joylashtirish bilan cheklanilmasdan, tadbirkorlik uchun zarur 100 dan ortiq hujjatning namunaviy shakllari ham joylangan.

Masalan, banklarga taqdim etiladigan to‘lov topshiriqnomasi, inkasso topshiriqnomasi kabi to‘lov hujjatlari shakllari, xodimlarni ishga qabul qilishda ular bilan tuziladigan mehnat shartnomasining va boshqa shu kabi hujjatlarning namunalari erkin foydalanish uchun joylashtirilgan.

3. Portal orqali turli xizmatlardan foydalanish mumkin.

Portalda 200 ga yaqin turli xizmatlardan foydalanish imkoniyati yaratilgan.

Jumladan, “Ro‘yxatdan o‘tkazish” qismida ro‘yxatdan o‘tkazish va tadbirkorlik subyektlarining turlari ko‘rsatilgan. Ro‘yxatdan o‘tkazish havolasi orqali “fo.birdarcha.uz”ga kirish va tadbirkor sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tish mumkin bo‘ladi.

Shuningdek, tadbirkorlik faoliyati uchun yer uchastkasini olmoqchi bo'lsangiz, "Joy olish" kontenti orqali bo'sh yerlarni olish tartibi bilan tanishib chiqasiz. So'ng yerni olish uchun havola orqali "E-ijro auksion" savdo maydonchasiga kirib auksionda ishtirok etasiz.

4. Portaldan foydalanishda qulaylik yaratish maqsadida uning mobil ilovasi ham ishga tushirilgan.

"Biznesga maslahat" portalidan mobil telefonlar orqali ham foydalanish imkoniyati yaratildi. Buning uchun portalning mobil ilovasini yuklab olish kifoya.

5. Portal orqali tadbirkorlarning onlayn murojaatlari qabul qilinadi.

Umuman olganda, "Biznesga maslahat" portali tadbirkorlar bilan ishlashni, ularning muammolarini hal etishni, qisqa muddatlarda ularga yordam berishni va tadbirkorlikka keng jalb etishni yangi bosqichga ko'tardi.

Yurxizmat.uz

Hozir O'zbekiston Adliya vazirligi qoshidagi "Adolat" milliy huquqiy axborot markazi tomonidan "Legal tech" tizimi ishga tushirilgan. Tizimda 1226 ta hujjat va shartnoma mavjud.

"Bu nima uchun kerak?" degan savol yuzaga keladi. Texnologiyalar taraqqiy etgan davrda istalgan hujjatni, ma'lumotni internet tarmog'i orqali olish imkoni mavjud. Misol uchun istalgan shartnomani "Google" orqali topamiz, albatta. Bilamizki, shartnoma tomonlarning o'zaro huquq va majburiyatlarini belgilab beradi. Izlash natijasida kelib chiqqan u yoki bu shartnoma yuridik jihatdan qanchalik darajada to'g'ri tuzilgan, amaldagi qonunchilikka mos keladimi kabi savollarga javob bermaydi. Shu maqsadda yangi tizim ishga tushirilgan bo'lib, platformada foydalanuvchiga tayyor shartnoma berilmaydi, balki dastlab tegishli savolnoma to'ldiriladi. Kutilgan natijadan kelib chiqqan holda foydalanuvchiga yuridik

ekspertizadan o'tkazilgan shartnoma taqdim etiladi. Bu kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari faoliyatida yaxshi samara beradi. Chunki ko'p hollarda shartnomalarda eski, amalda bo'lmagan normalar qo'llanilishiga guvoh bo'lamiz.

Kichik va o'rta biznes vakillari, aholining kam ta'minlangan qatlamlariga, shuningdek, boshqa jismoniy va yuridik shaxslarga huquqshunoslar ishtirokisiz huquqiy hujjatlarni avtomatlashtirilgan holda elektron shaklda tayyorlash, olish va foydalanish imkonini beruvchi o'z-o'ziga huquqiy xizmat ko'rsatish elektron axborot mutlaqo bepul.

Bugungi kunda tizimni UNICEF, USAID va UNDP kabi xalqaro tashkilotlar ko'magida rivojlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilmoqda.

"Yurxizmat.uz" sayti, uning maqsad va vazifalari, saytdagi hujjatlar namunari to'g'risida doimiy ravishda targ'ibot o'tkaziladi.

Kurslar.huquqiyportal.uz

Bu sayt esa huquqiy savodxonligini oshirish istagida bo'lgan barcha fuqarolar uchun elektron kurslarni taqdim etadi. Kursda ishtirok etish uchun "Ro'yxatdan o'tish" tugmasi orqali ro'yxatdan o'tiladi. Portalda 20 ga yaqin o'quv kursi joylashtirilgan.

Saytda kerakli huquqiy kurs uchramasa, kursga buyurtma qilish sahifasi orqali murojaat etiladi.

Kurslardagi darslar o'zlashtirilgandan keyin test sinovi o'tkaziladi. 100 balldan kamida 56 ballni to'plagan qatnashchilarga avtomatik tarzda maxsus elektron sertifikat taqdim etiladi.

Mazkur axborot tizimlarining yaratilishi foydalanuvchilar ortiqcha sarson bo'lishining oldini olishga, ularning vaqti va mablag'ini tejashga, shuningdek, aholining huquqiy bilimlarini oshirishga imkon yaratadi.

Furqat TOJIYEV,

Toshkent davlat yuridik universiteti izlanuvchisi

Mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organining tegishli tarkibiy bo'linmasi, mahalliy vakillik organlari kotibiyati 3 kun muddatda "E-qaror" elektron tizimi orqali kelib tushgan hujjatlar loyihalarini ish yurituviga qabul qiladi. Loyihani elektron raqamli imzo qo'yish yo'li bilan kelishadi (viza qo'yadi) yoki zarurat bo'lganda uni ishlab chiquvchi-ga elektron tizim orqali taklif va e'tirozlarini ko'rsatgan holda qaytaradi. Kelishilgan hujjat loyahasini mahalliy davlat hokimiyati organining yuridik xizmatiga kiritadi.

Hozirgi raqamlashtirish jadallashgan bir davrda O'zbekistonda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasiga oid davlat organlari va tashkilotlariga kelib tushayotgan murojaatlar soni ko'payib bormoqda.



AKT SOHASIGA

**mas'ul tashkilotlarga kelayotgan
murojaatlarni sifatli ko'rib
chiqish omillari**

Murojaatlarning aksariyati takroriy – telekommunikatsiya tarmog‘iga ulanish, telekommunikatsiya xizmatlarini ko‘rsatishga oid. Bu murojaatlarning ko‘pligi davlat organlari va tashkilotlarining amaldagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan vazifa va funksiyalarini yetarlicha amalga oshirishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Masalan, bitta murojaatni hal qilish uchun murojaatni ko‘rib chiquvchi shaxs murojaat etuvchi bilan gaplashishi yoki unga tushuntirish berishi hamda uning murojaatidagi masalalarni yechishi uchun hech bo‘lmaganda 2-3 soat vaqtini sarflaydi. Agarda bunday murojaatlar 10 ta va undan ortiq bo‘lsa, demak, bitta xodimning bir kunlik ish vaqti faqatgina murojaatlarni hal qilish uchun ketadi. Bu esa tegishli davlat organining oldiga qo‘yilgan vazifalarni to‘liq bajarishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Konstitutsiyasiga asosan insonning huquq va erkinliklarini ta‘minlash davlatning oliy maqsadidir. Davlat inson hamda fuqaroning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquq va erkinliklarini ta‘minlaydi. Inson o‘z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, jamiyat hamda davlatning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga putur yetkazmasligi shart.

Alohida ta‘kidlab o‘tish kerakki, har bir murojaat ortida inson taqdiri bor. Biroq murojaatlarning haddan tashqari ko‘pligidan ma‘lumki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga oid qonun buzilishlarining soni katta. Demak, insonlarning huquq va manfaatlariga boshqa shaxslar daxl qilmoqda. Mazkur vaziyatda muammoni yechish uchun nima qilish kerak, degan savol tug‘iladi. Fikrimizcha, murojaatlarni ko‘rib chiqishning tizimlashtirilgan tartibiga o‘tish lozim.

O‘zbekiston axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirining 2020-yil 30-iyundagi 208-mh-buyrug‘i bilan tasdiqlangan Telekommunikatsiya xizmatlarini ko‘rsatish qoidalarining 286-bandiga asosan operator va provayderlar telekommunikatsiya xizmatlarini ko‘rsatishda abonent/foydalanuvchilarning murojaatlarini (yozma yoki axborot-kommunikatsiya

tizimlari orqali) kelib tushgan kundan boshlab o‘n besh kun ichida, materiallarni qo‘shimcha o‘rganish zarur bo‘lganda abonentni yozma ogohlantirgan holda bir oygacha bo‘lgan muddat ichida ko‘rib chiqiladi¹.

Biroq amalda bu norma yetarlicha ishlamaydi. Ya‘ni murojaatchining asosli murojaatiga javob bo‘lmaydigan, uni sarson qiladigan, provayder va operator uchun foydali, ammo murojaat etuvchi uchun foydasiz shakldagi javoblar ko‘plab topiladi.

Telekommunikatsiya xizmatlarini ko‘rsatish qoidalarining 266-bandiga asosan telefon tarmog‘idan foydalana olishni ta‘minlash ishlarini bajarish muddatlari:

- texnik imkoniyatni o‘rganish va texnik imkoniyat bo‘lmagan taqdirda ariza beruvchiga asoslangan rad etishning aniq sabablari ko‘rsatilgan javobini berish 7 kundan oshmasligi kerak;
- texnik imkoniyat bo‘lganda shartnoma tuzilgan kundan boshlab 10 ish kunida ulanish;
- texnik imkoniyat bo‘lmaganda, yetishmaydigan aloqa liniyalari ariza beruvchining hisobidan o‘tkazilishini hisobga olgan holda – pudrat shartnomasi tuzilgan sanadan boshlab 180 kungacha bo‘lishi kerak.

Biroq bu norma ham amalda ishlamaydi. Sababi esa oddiy, ya‘ni tadbirkorlik subyektlarini tekshirish uchun o‘rnatilgan to‘siqlar tufayli yetarlicha nazorat qilinmayapti. Nazoratni amalga oshiruvchi organ o‘z nazorat predmetini amalga oshirmoqchi bo‘lsa uning faoliyatiga turli to‘siqlar vujudga keladi. Tadbirkorlik subyektlarini tekshirish taqiqlangan va boshqa qoidalar tufayli aholining huquq va manfaatlarini o‘z vaqtida amalga oshirishda bir talay muammo vujudga keladi.

Bundan tashqari bu kabi murojaatlar shu paytgacha qadar O‘zbekistonning 2017-yil 11-sentabrda gi “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi qonuni asosida hal qilinmoqda. Vaholanki, mazkur qonunning 1-moddasiga asosan ushbu qonunning maqsadi davlat organlari va davlat muassasalariga, shuningdek ularning mansab-

¹ Ўзбекистон Республикаси ахборот технологиялари ва коммуникацияларини ривожлантириш вазирининг 2020 йил 30 июндаги 208-мх-буйруғи (рўйхат рақами 3275, 2020 йил 30 июнь) (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 30.06.2020 й., 10/20/3275/1194-сон) билан тасдиқланган Телекоммуникация хизматларини кўрсатиш қоидалари // lex.uz – Ўзбекистон Республикаси Қонунчилик маълумотлари миллий базаси.

dor shaxslariga jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Ushbu qonunning ko'rib chiqish tartibi ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi, fuqarolik protsessual, jinoyat-protsessual, jinoyat-ijroiya, iqtisodiy protsessual qonunchilik va boshqa qonun hujjatlari bilan belgilangan murojaatlarga, davlat organlarining, shuningdek ular tarkibiy bo'linmalarining o'zaro yozishmalariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Demak, operator va provayderlar hamda abonent o'rtasidagi munosabatlar bo'yicha yuborilgan murojaatlarni "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi qonun asosida ko'rib chiqish maqsadga muvofiq emas. Bundan qonunchilik hujjatlarida maxsus vakolatli organ-



ning majburiyati sifatida ko'rsatilgan holatlar mustasno.

Mazkur vaziyatda kelib tushayotgan murojaatlar bo'yicha Raqamli texnologiyalar vazirligi yoki uning tizimidagi tashkilotlarning telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatishga oid masalalar bo'yicha abonentning iste'molchi sifatidagi

huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlashi amaliyotidan voz kechish kerak. Har bir abonentga amaldagi qonunchilik hujjatlari talablari asosida operator va provayderga qanday murojaat qilish zarurligini tushuntirish lozim. Ushbu tushuntirishdan kelib chiqib, murojaat etuvchi tegishli operator va provayderga o'zi yoki o'z vakillari orqali murojaat qilishi va uning murojaatidagi holatlar asosli bo'lib, murojaati o'z vaqtida ko'rib chiqilmasa, murojaatidagi asosli holatlarni operator yoki provayder hal etmasa, u holda nazorat organiga to'g'ridan-to'g'ri murojaat etib, qonun buzilishi haqida xabardor etishi maqsadga muvofiq. Ushbu vaziyatda nazorat organi qonun buzilishini tekshirishi yoki ma'muriy ish qo'zg'atishi yo bajarilishi majburiy ko'rsatmani berish yo'li bilan qonun buzilishi bo'yicha javobgarlik muqarrarligini ta'minlashi kerak.

Bir qarashda bu sansalorlikdek ko'rinishi mumkin, biroq aholining huquqiy ongi va madaniyatini oshirib, murojaatlarni ko'rib chiqishning yagona amaliyotini yo'lga qo'yish orqali boshqa shaxslarning, jumladan davlatning huquq va manfaatlariga putur yetishining oldi olinishi mumkin. Bundan tashqari telekommunikatsiya sohasida maxsus vakolatli organ sifatida Raqamli texnologiyalar vazirligiga qonunchilikda ko'rib chiqishning boshqacha tartibi berilgan bo'lsa ham barcha murojaatlarni unga yo'llash orqali uning regulyatorlik funksiyalarining vaqtida amalga oshishiga sun'iy to'siqlar ko'payib bormoqda. Shuningdek, boshqa shaxslarning ham huquq va manfaatlariga putur yetkazilmoqda. Raqamli texnologiyalar vazirligi murojaatni "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi qonunning 25-moddasiga asosan vakolatli organga yuborishi yoki tegishli operator va provayderga yuborishi ham mazkur qonunning tartibga solish doirasiga nisbatan noto'g'ridir. Ushbu holatda maxsus vakolatli organ murojaat etuvchiga uning huquq va manfaatlarini amalga oshirish tartibini tushuntirishi qonuniydir. Qolaversa, vakolatlari doirasida o'rganishni tashkil qilish bilan bog'liq holatlar bo'lmasa, u holda murojaatchining huquq va manfaatlarini amalga oshirish tartibini tushuntirishi va uning amalga oshishiga ko'maklashishi zarur bo'ladi.

Prezidentning 2018-yil 21-noyabrdagi 4024-qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat bo'yicha davlat inspeksiya-

O'zbekiston Konstitutsiyasiga asosan insonning huquq va erkinliklarini ta'minlash davlatning oliy maqsadidir. Davlat inson hamda fuqaroning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquq va erkinliklarini ta'minlaydi.

si to'g'risida"gi nizomga asosan inspeksiya monitoring va tekshirishlar natijalari bo'yicha aniqlangan qoidabuzarliklar haqida qarorlar qabul qiladi, ko'rsatmalar beradi va ularni bartaraf etish muddatlarini belgilaydi.

Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat bo'yicha davlat inspeksiya tashkiliy-huquqiy shaklidan va idoraviy mansubligidan qat'i nazar xo'jalik yurituvchi subyektlarga, yuridik va jismoniy shaxslarga, shuningdek, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish va rivojlantirishda qoidabuzarliklarga yo'l qo'yan mansabdor shaxslariga davlat nazorati doirasida olib borilgan o'rganishlar, monitoring, tekshirishlar natijasida aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etish to'g'risida bajarilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar berish huquqiga ega.

Prezidentning 2023-yil 25-yanvardagi "Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo'lga qo'yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi 14-farmonga asosan yangi tashkil qilingan va qayta tashkil qilingan vazirlik va idoralar faoliyati tugatilgan yoki qayta tashkil qilingan vazirlik va idoralarning tegishli huquq va majburiyatlari bo'yicha huquqiy vorisi hisoblanadi.

Mazkur vaziyatda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlaridan kelib chiqib monitoring qilinishi hamda monitoring natijalari bo'yicha tadbirkorlik subyekti sifatida operator yoki provayder amaldagi qonunchilik talablarini buzayotgan holat aniqlansa, vakolatli nazorat organi sifatida Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiya har bir qonun buzili-



shini bartaraf qilish bo'yicha tadbirkorlik subyektiga ko'rsatma berishi kerak. Agar ushbu ko'rsatma vaqtida bajarilmasa, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 198-moddasiga asosan hokimiyat vakilining qonuniy talablarini bajarimaslik yoki xizmat vazifalarini bajarishiga to'sqinlik qilish uchun javobgarlik borligini inobatga olish maqsadga muvofiq. Biroq bu norma ham axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida yetarlicha ishlamaydi. Bundan tashqari, misol uchun 2024-yilning birinchi yarim yilligida umuman tekshirish o'tkazilmagan, 2022-2023-yillar davomida esa hokimiyat vakilining qonuniy talablarini bajarimaslik yoki xizmat vazifalarini bajarishiga to'sqinlik qilish uchun javobgarlikni qo'llash masalasini nazorat qiluvchi organ hal qilmagan.

Fikrimizcha, bu vaziyatda tekshirishlarga oid masalada korrupsion holatlarga chek qo'yish va monitoring qilish, o'rganish jarayonlari hamda bular bo'yicha ma'muriy huquqbuzarlik ishini qo'zg'atish va yuritishga doir amaldagi "huquqiy bo'shliq" to'ldirilishi lozim.

Yuborilayotgan asosli murojaatdagi holat to'liq ko'rib chiqilishi va batafsil javob berilishi va undagi masalalar hal qilinishi murojaatlar bilan ishlashning muhim xususiyatidir. Shu sababdan ham murojaat vaqtida va to'g'ri hal qilinishi uchun uni ko'rib chiquvchi mas'ulga to'g'ri yetib borishi kerak. Ana shundagina davlat organlari va tashkilotlariga nisbatan aholining ishonchi oshadi, aholining huquqiy madaniyati yuksaladi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasiga oid davlat organlari va tashkilotlariga kelib tushayotgan murojaatlar kamayadi va murojaatlarni sifatli ko'rib chiqish tizimi yo'lga qo'yiladi.

Amiriddin ANORBOYEV,

Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Madrid tizimi bo'yicha 2022-yilda 15543300 ta tovar belgisini xalqaro ro'yxatdan o'tkazish bo'yicha talabnoma berilgan. Shundan 4,9 foizi AQSH, 3,2 foizi Hindiston, 3,1 foizi Turkiya, 2,9 foizi Yevropa Ittifoqi davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan bo'lsa, birgina Xitoy tomonidan berilgan talabnomalar 48,3 foizni tashkil qilgan¹.



Noan'anaviy tovar belgilarini muhofaza qilish

Xitoy tajribasi misolida

¹ <https://www.wipo.int/edocs/pubdocs/en/wipo-pub-943-2023-en-wipo-ip-facts-and-figures-2023.pdf>.



Korxonalarining iste'molchi e'tiborini jalb qilish uchun kechadigan doimiy raqobati yangi tovar belgilarining paydo bo'lishiga va rivojlanishiga yordam beradi. Ma'lumki, Xitoy jahon iqtisodiyotida sanoat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi mamlakatlar ichida yuqori o'rinni egallab, kiyim-kechak va poyabzal, o'yinchoqlardan tortib kompyuter va ofis texnikalari, turli texnologiyalardan avtomobillargacha bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqaradigan "jahon fabrikasi"ga aylandi². Shu sababli Xitoyning noan'anaviy tovar belgilarini himoya qilishga oid siyosatini o'rganish muhimdir.

Xitoyning "Tovar belgilari to'g'risida"gi qonuniga³ ko'ra, tovar belgisi sifatida ro'yxatdan o'tkazish uchun har qanday vizual belgilar, jumladan so'zlar, grafik belgilar, harflar, raqamlar, uch o'lchamli belgilar, ranglar kombinatsiyalari taqdim etilishi mumkin (8-modda). Bu belgilar bir jismoniy, yuridik shaxsning tovarlarini boshqa jismoniy va yuridik shaxslarning xuddi shunday tovarlaridan ajratib ko'rsatadi. Qonunning ushbu moddasidan ko'rinib turibdiki, Xitoyda uch o'lchamli (ko'lamli) belgilar, ranglar kabi noan'anaviy tovar belgilarini ro'yxatdan o'tkazish imkoniyati mavjud. Biroq qonun talabiga ko'ra, tovar belgisi vizual xususiyatga ega, ya'ni inson ko'zi bilan ko'rishi mumkin bo'lgan belgi bo'lishi kerakligi qayd etilgan.

Qonunda tovar belgilarini ro'yxatdan o'tkazish uchun muayyan belgi qanday mezonlarga javob berishi kerakligi ko'rsatilgan. Bunda ayrim noan'anaviy tovar belgilariga qo'shimcha talablar qo'yiladi.

Tovar belgilarini muhofaza qilish layoqatining umumiy shartlari mazkur qonunning 9-11-moddalarida belgilangan bo'lib, unga ko'ra ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim etilgan belgilar:

- ko'zga ko'rinadigan xususiyatlarga ega bo'lishi;
- farqlash qobiliyatini ko'rsatishi;
- uchinchi shaxslarning huquqlarini buzmasligi kerak.

Ushbu qonunda tovar belgilari sifatida ro'yxatdan o'tkazilishi mumkin bo'lmagan belgilarining yopiq ro'yxati nazarda tutilgan. Masalan, rasmiy nomlar, Xitoyning davlat ramzlari, markaziy davlat organlarining nomlari, markaziy davlat organlari joylashgan muayyan obyektlarning nomlari, shuningdek markaziy davlat organlari bilan bog'liq binolarning nomlari va tasvirlari bilan bir xil yoki adashtirish darajasidagi o'xshash belgilar (10-modda) shular jumlasidandir. Shuningdek, "Tovar belgilari to'g'risida"gi qonunda shunday belgilar borki, ular tovar belgilari sifatida qat'iy ro'yxatdan o'tkazilmaydi.

BUNDAY BELGILARGA:

- 1) faqat tovar belgilaridan foydalaniladigan tovarlarning umumiy nomlari, konstruksiyalari yoki modellarini o'z ichiga olgan belgilar;
- 2) tovar belgilari qo'llaniladigan tovarlarning sifati, asosiy xomashyosi, funksiyasi, ishlatilishi, og'irligi, miqdori yoki boshqa xususiyatlariga bevosita aloqador bo'lgan belgilar;
- 3) o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lmagan belgilar (11-modda) kiradi.

¹ <https://www.wipo.int/edocs/pubdocs/en/wipo-pub-943-2023-en-wipo-ip-facts-and-figures-2023.pdf>.

² Самбурова Е., Мироненко К. Китай в мировом хозяйстве в контексте глобализации // Мировое и национальное хозяйство. 2017. № 1. URL: <https://mirec.mgimo.ru/upload/ckeditor/files/mirec-2017-1-samburovamironenko.pdf> (дата обращения: 26.03.2).

³ Adopted at the 24th meeting of the Standing Committee of the Fifth National People's Congress on August 23, 1982; Amended according to the Decision on Amending the Trademark Law of the People's Republic of China at the 34th Session of the Standing Committee of the 7th National People's Congress on February 22, 1993 for the first time; Amended according to the Decision on Amending the Trademark Law of the People's Republic of China at the 24th Session of the Standing Committee of the 9th National People's Congress on October 27, 2001 for the second time.

Hozir Xitoyda noan'anaviy tovar belgilarini ro'yxatdan o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilishda iste'molchilar orasida uzoq muddatli va keng qo'llanilishi hamda taniqliligi asosiy mezon bo'lib xizmat qilmoqda. Shu o'rinda Xitoyda noan'anaviy tovar belgilarini muhofaza qilishning o'ziga xos xususiyatlarini tushunish uchun bunday belgilarning alohida turlarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Hajmli tovar belgilari. Xitoyning "Tovar belgilari to'g'risida"gi qonunining 12-moddasida uch o'lchamli tovar belgisiga qo'shimcha talablar belgilangan. Agar bunday belgilar:

- faqatgina tegishli tovarlarning xususiyatiga xos bo'lgan shakliga ishora qilsa;
- agar bu tovarning texnik funksiyasiga oid bo'lsa;
- tovarlarga moddiy qiymat berish zarurati bilan bog'liq bo'lsa, bunday belgi tovar belgisi sifatida ro'yxatdan o'tkazilishi mumkin emas.

Xitoyda birinchilardan bo'lib "Ferrero S.p.A." kompaniyasining uch o'lchamli tovar belgisi (ro'yxatdan o'tgan raqami G783985) ro'yxatdan o'tkazildi. Bu uch o'lchamli "Ferrero Roche" konfetining zar qog'ozga o'ralgan tasvirini anglatadi, uning ustida oq fonli va oltin qirrali oval yorliq, qizil chiziqli jigarrang zar qog'oz asosida joylashgan (1-rasm).



1-rasm. "Ferrero S.p.A." kompaniyasining uch o'lchamli tovar belgisi

"Ferrero" kompaniyasi ushbu tovar belgisini faqat sud orqali ro'yxatdan o'tkazishga muvaffaq bo'ldi⁴. Xitoyning patent idorasi ushbu belgini ro'yxatdan o'tkazishni rad etishiga sabab shuki, so'ralgan tovar belgisi shunchaki konfetni qadoqlash shakli bo'lib, uning tovar ishlab chiqar-

uvchisini ko'rsatmaydi. Natijada "Ferrero" kompaniyasi patent idorasining qaroridan norozi bo'lib sudga murojaat qiladi. Da'vogar "Ferrero" kompaniyasi uch o'lchamli belgi dunyo bo'ylab keng tarqalgani sababli farqlanish xususiyatiga egaligini va iste'molchi bunday qadoqlashlarni ushbu kompaniya bilan bog'lashini isbotlaydi. Pekin sudi da'vogarning dalillarini qo'llab-quvvatlagan holda, mazkur uch o'lchamli belgi tovar belgisi sifatida muhofaza layoqatiga egaligi, u "Ferrero" kompaniyasiga tegishli ramziy dizaynga aylangani, iste'molchilar shu orqali tovarning ishlab chiqaruvchisini aniqlay olishi haqidagi to'xtamga keldi.

Sudning hal qiluv qarorida potensial talabgorlar uchun hajmli tovar belgisini ro'yxatdan o'tkazish bo'yicha qo'llanma ham taqdim etildi. Masalan, tovar belgisi uchun talabnoma berishdan oldin uch o'lchamli belgilar keng qo'llanilishi va iste'molchilar orasida taniqli bo'lishi kerak. Bunday belgilash juda oddiy bo'lmasligi, tovarlarning o'z toifasi uchun odatiy bo'lgan hech bir farqlovchi xususiyatlarga ega bo'lmasligi lozim.

2018-yilda – ro'yxatdan o'tish uchun talabnoma topshirilganidan 2 yil o'tib, "Procter & Gamble Company"ning "Head & Shoulders" brendi ostida ishlab chiqariladigan shampun va boshqa tovarlar uchun hajmiy tovar belgisiga (ro'yxatdan o'tish raqami 19119659) huquqiy muhofaza taqdim etiladi (2-rasm).


Da'vogar "Head & Shoulders" shampun va sochlarni sovutish konditsionerining idishi o'z turidagi mahsulot uchun noodatiy ekanini isbotlashga muvaffaq bo'ldi, chunki idishning o'ziga xos ko'k rangli qopqog'i va bir tomoni o'ziga xos shaklda bo'lgan. Bunday qadoqlash uzoq vaqt va keng miqyosda foydalanish natijasida iste'molchilar orasida keng ma'lum bo'lib, bozorga tegishli qadoqlashda chiqarilgan tovarlar xaridorlarga ularni "Procter & Gamble Company" mahsuloti sifatida identifikatsiya qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, da'vogar sovun kabi tovarlarni ishlab chiqarish uchun bunday qadoqlash keng qo'llanilganini isbotlay olmadi, natijada shampun va soch konditsioneridan boshqa tovar toifalari uchun taqdim etilgan hajmli tovar belgisini ro'yxatdan o'tkazish haqidagi da'vo rad etiladi⁵.

⁴ Intellectual Property Owners Association International Trademark Law and Anti-Counterfeiting Committee. Shape Trade Marks – An International Perspective. 2015. P. 42 // URL: <https://ipo.org/wp-content/uploads/2015/06/IPShapeTrademarks.pdf> (data obraçeniya: 26.06.2024).



2-rasm. “Procter & Gamble Company”ning uch o‘lchamli tovar belgisi

Rangli tovar belgilari. Xitoyda rangli tovar belgisi sifatida faqat ranglar kombinatsiyasi (qo‘shilishi) ro‘yxatdan o‘tkazilishi mumkin. Qonunning bunday talqini “Tiffany & Co.” kabi yirik rangli zargarlik buyumlarini ishlab chiqaruvchi kompaniyalarga faqat bitta rangni tovar belgisi sifatida muhofaza qilish huquqini beradi. Shu bilan birga, ba’zi hollarda nafaqat ranglar kombinatsiyasi, balki kombinatsiyaning shakli ham muhimdir⁶. Xitoyda bir holatda kulrang, oq va sariq ranglar kombinatsiyasiga himoya berilmagan, chunki bunday kombinatsiya allaqachon ro‘yxatdan o‘tgan tovar belgisi bilan adashtirish darajasida o‘xshash bo‘lgan, chunki ikkala kombinatsiya ham kulrang, oq va sariq rangli uchta chiziqning to‘g‘ri burchakli kombinatsiyasidan iborat bo‘lgan (3-rasm).



3-rasm. Bir-birini farqlash xususiyatiga ega bo‘lmagan ranglar kombinatsiyasi shakllari

Biroq, Xitoyda ko‘k va yashil ranglarning ikkita kombinatsiyasiga himoya berilgan, chunki ushbu kombinatsiya shakllari bir-biridan farq qilib, iste‘molchini tovarning kelib chiqishi haqida chalg‘itish xususiyatiga ega emas (4-rasm).



4-rasm. Bir-biridan farqlash qobiliyatiga ega bo‘lgan ranglar kombinatsiyasi shakllari

Umumiy tovar belgilarida bo‘lgani kabi, Xitoyda ranglar kombinatsiyasini tovar belgisi sifatida ro‘yxatdan o‘tkazishga mazkur ranglar kombinatsiyasi avvaldan farqlanish qobiliyatiga ega bo‘lsagina yo‘l qo‘yiladi.

“Duracell” bilan bog‘liq nizoli ish hujjatlariga ko‘ra (ro‘yxatga olish raqami 3037973), o‘sha vaqtda “Duracell” brendiga ega bo‘lgan “Gillette” kompaniyasi 2001-yilda rangli tovar belgisini – batareyalar uchun mis va qora ranglar kombinatsiyasini ro‘yxatdan o‘tkazish uchun talabnoma bergan. Talabnomada ko‘rsatilgan ranglar kombinatsiyasida umumiy hajmning 1/3 qismini mis rangi va 2/3 qismini esa qora rang tashkil etgan (5-rasm)⁷.



5-rasm. Duracell batareyalari uchun rangli tovar belgisi, hozir “U.S. Operations Inc.” kompaniyasiga tegishli.

Xitoy patent idorasiga ro‘yxatdan o‘tkazish uchun ranglar kombinatsiyasiga ega tovar belgisi taqdim etilib, “Gillette” kompaniyasi ko‘rsatgandek, tovar belgisi shakli faqat tovar belgisi uchun ishlatiladigan ranglar nisbatini tasvirlash maqsadida ishlatilgan. Talabnoma beruvchi taqdim etilgan shakldagi tovar belgisining yuqori obro‘-e‘ti-

⁵ URL: http://spw.sbj.cnipa.gov.cn/alpx/201806/t20180612_274581.html

⁶ Wu G. Q. Non-Traditional Trademarks in China, 2017 // URL: <https://niuyie.com/non-traditional-trademarks-in-china/>

⁷ Duracell rasmiy sayti. URL: <https://www.duracell.ru/%D0%BC%D1%8B-duracell/>



borga ega bo'lganini, iste'molchi tovar belgisidagi ranglar kombinatsiyasi asosida talabnoma beruvchining tovarlarini boshqa ishlab chiqaruvchilarning o'xshash tovarlaridan ajrata olishini ta'kidlaydi. Bundan tashqari, talabnoma berilgan tovar belgisi dunyoning 30 dan ortiq davlatida tan olinib, ro'yxatga olingan va muhofazalangan, bu esa qo'llanilayotgan tovar belgisining o'ziga xos xususiyatlari shubha tug'dirmasligini isbotlaydi⁸. Biroq tovar belgilari bo'yicha patent idorasi talabnoma beruvchining vajlarini qo'llab-quvvatlamaydi va tovar belgisini ro'yxatdan o'tkazishni rad etadi. Chunki ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim etilgan ranglar kombinatsiyasi faqat tovarning tashqi ko'rinishini aks ettirgan bo'lib, farqlanish xususiyatlariga ega bo'lmagan. Bu esa Xitoyning "Tovar belgilari to'g'risida"gi qonunining 11-moddasi talablariga ziddir. "Gillette" kompaniyasi bu qarordan norozi bo'lib, Xitoyning Patent kengashiga qarorni qayta ko'rib chiqishni so'rab murojaat qiladi. Kengash takroriy ekspertiza o'tkazib, te-

gishli ranglar kombinatsiyasi talabnoma beruvchi tovarining farqlovchi belgisi bo'lib qolgani va iste'molchilar talabnoma beruvchining tovarlarini boshqalar tomonidan ishlab chiqarilgan shunga o'xshash tovarlardan (bataryalardan) ranglar kombinatsiyasi asosida ajrata olishlari mumkin degan xulosaga keladi.

"Gillette" kompaniyasi o'z da'vosini asoslash uchun turli hujjatlarni, masalan, reklama plakatlaridan tortib uchinchi shaxslar "Duracell" bataryalarining ko'rinishi, shakli, xususan, rangidan taqlidan foydalanganlik uchun jarima solingan holatlar bo'yicha sud qarorlarigacha taqdim etadi.

Tovushli tovar belgilari. Tovush tovar belgisi sifatida bozorda katta ahamiyatga ega. Xitoyda to'vush 2014-yilda "Tovar belgilari to'g'risida"gi qonunga o'zgartishlar kiritilganidan so'ng tovar belgisi sifatida muhofaza layoqatiga ega bo'ldi. 2016-yilda birinchi tovushli tovar belgisi "China Radio International" kompaniyasi musiqasi⁹ ro'yxatdan o'tkazildi (6-rasm).

⁸ URL: http://spw.sbj.cnipa.gov.cn/alpx/201902/t20190212_281424.html.

⁹ Arthur Wu. Protection for non-traditional trademarks lags behind in China, 2019 // URL: <https://www.worldtrademarkreview.com/brand-management/protection-non-traditional-trademarks-lags-behind-china>.



6-rasm. “China Radio International” tovushli tovar belgisi, nota yozuvi shaklida taqdim etilgan

Xitoyning tovar belgilarini tekshirish va ekspertiza qilish standartlariga ko‘ra, tovush belgisi musiqiy tovushlar (musiqiy asarlar) va musiqiy bo‘lmagan tovushlardan, masalan, tabiat, hayvonlar tovushlaridan yoki musiqiy va musiqiy bo‘lmagan tovushlar kombinatsiyasidan iborat bo‘lishi mumkin. Musiqa ovozi notalar orqali aks ettiriladi. Musiqasiz tovushli tovar belgisi so‘zlar bilan ta’riflanadi. So‘zma-so‘z tavsifi aniq, to‘liq va tushunarli bo‘lishi kerak.

Tovush belgisini ekspertizadan o‘tkazish quyidagilarni o‘rganishni o‘z ichiga oladi:

– ro‘yxatga olinmaydigan so‘z yoki tovushlarni o‘z ichiga olishi (masalan, milliy madhiyani);

– tovushning o‘ziga xos xususiyatlari bormi (masalan, bolalar oziq-ovqati uchun bolalarning kulgan tovushini ro‘yxatga olish mumkin emas, chunki bu turdagi tovarlar uchun odatiy hol bo‘lib, ular to‘g‘ridan-to‘g‘ri tovar iste‘molchilarini ko‘rsatadi; juda oddiy tovush, qo‘shiq, musiqa yoki odatda ishlab chiqarishda ishlatiladigan tovush ro‘yxatga olinmaydi);

– tovush boshqa tovush yoki vizual belgi bilan bir xil yoki adashtirish darajasigacha o‘xshashmi (masalan, “yahoo” so‘zli tovar belgisi hisoblana-di va “yahoo” so‘zi tovushli tovar belgisi sifatida ro‘yxatdan o‘tkazilishi mumkin emas).

Xitoyda tovushli tovar belgisini ro‘yxatdan o‘tkazish bo‘yicha qiziqarli nizoli ish yuqori texnologiyali biznesning turli sohalarda, shu jumladan internet-xizmatlar, sun‘iy intellekt va elektron ko‘ngilochar sohalarga ixtisoslashgan “Tencent” yirik xolding kompaniyasi bilan bog‘liq. “Tencent” kompaniyasi mashhur xabar almashish xizmatlaridan biri “QQ”ga egalik qiladi. “QQ” tizimiga kiruvchi xabarlar kelib tushganda servis olti notali “DiDiDiDiDiDi” tovushli signal chiqaradi. Ushbu tovushni ro‘yxatdan o‘tkazish uchun “Tencent” kompaniyasi talabnoma beradi. Ammo

Xitoyning patent idorasi uni juda oddiy, funksional (dasturiy ta‘minotning bir qismi) va farqlovchi xususiyatga emas deb rad etdi. Talabnoma rad etilgach kompaniya Pekin intellektual huquqlar sudiga shikoyat qiladi. Pekin sudi “Tencent” kompaniyasi uzoq vaqtdan beri bu tovushli signalni keng qo‘llangani, bu tovushli tovar belgisi farqlash qobiliyatiga ega bo‘lgani sababli da‘voni qanoatlantiradi. “QQ” 1999-yilda paydo bo‘lgan va shuncha yildan buyon yangi xabarlar uchun aynan shu tovushdan foydalanib kelgan. “QQ” xizmati yuz millionlab faol foydalanuvchilarga ega. Tovush “QQ” bilan birgalikda teleko‘rsatuv va boshqa ommaviy axborot vositalarida namoyish etilgan. Sud, shuningdek, ro‘yxatdan o‘tkazish uchun talab qilingan tovush dasturiy ta‘minotning natijasi emas, balki maxsus yaratilgan tovush ekanini va shuning uchun u funksional emasligini ta’kidladi¹⁰.

Xitoyda noan’anaviy tovar belgilarini himoya qilishga oid qonunchilikni rivojlantirish uchun huquqiy va amaliy baza yaratilgan. Mamlakat sudlari tomonidan uch o‘lchamli (havoli), rangli va tovushli tovar belgilari kabi noan’anaviy tovar belgilarini himoya qilishning asosiy mezonlari ishlab chiqilgan. Biroq bunday tovar belgilarini ro‘yxatdan o‘tkazish imkoniyati nisbatan yaqin yillardan boshlab qonun bilan mustahkamlangani sababli, noan’anaviy tovar belgilarini tan olish va himoya qilish sohasida barqaror siyosat haqida gapirish mushkul.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, noan’anaviy tovar belgilarini himoya qilishning asosiy mezonlaridan biri – ularning uzoq va keng qo‘llanilishi bo‘lib, buning natijasida tovar belgisi ajralib turadi. Bunday mezonning mavjudligi yangi yoki bozorga chiqmoqchi bo‘lgan tovarlarning noan’anaviy tovar belgilarini ro‘yxatdan o‘tkazish uchun to‘siqlarni yaratadi va iste‘molchilar e‘tiborini jalb qilish uchun yirik kompaniyalarga ko‘proq ustunlik beradi.

Bundan tashqari Xitoyda boshqa mamlakatlarda himoyalangan gologrammalar, pozitsion belgilar, harakatlanadigan belgilar kabi noan’anaviy tovar belgilarini ro‘yxatdan o‘tkazish imkoniyati mavjud emas.

Hojiboy ADASHOV,
mustaqil izlanuvchi

¹⁰ Sara Xia. Trademarking a Sound in China, 2021 // URL: <https://harrisbricken.com/chinalawblog/trademarkinga-sound-in-china/>



Huquq va fuqarolik protsessual huquqining teleologik asoslariga bag'ishlangan adabiyotlarda, xususan, ularni tadqiq qilish uchun "maqsad", "vazifalar", "prinsiplar", "funktsiyalar" atamalariga duch kelamiz. Shunga asosan, ta'kidlash joiz, tadqiqotlar jarayonida ularning terminologik aralashishi va o'xshatilishi kuzatiladi. Natijada ushbu tushunchalarni sof nazariy konstruksiyalar sifatida ko'riladigan holat yuzaga keladi.

Alohida tartibda ISH YURITISH maqsad va vazifalari



Nazarimda, ushbu pozitsiya fuqarolik sud ishlarini yuritishning, xususan alohida tartibda ish yuritishning maqsad va vazifalariga nisbatan to'g'ri emas. Biroq ushbu tezisni tasdiqlash uchun fuqarolik sud ishlarini yuritishning, xususan alohida tartibda ish yuritishning maqsadlari, vazifalari, prinsiplari va funksiyalari o'rtasidagi munosabatni aniqlash lozim bo'ladi.



Fuqarolik sud ishlarini yuritishning maqsadi va vazifalari

Ilmiy adabiyotlarda “fuqarolik sud ishlarini yuritishning maqsad va vazifasi” tushunchalarining o'zaro bog'liqligi to'g'risida ko'p fikr-mulohazalar mavjud. G. Jilinning fikriga ko'ra, bu tushunchalar sinonim bo'lib, ularning ma'no jihatdan yaqinligi vazifalar va maqsadlarni “maqsadli qoidalar” (“целевые установки”) nomi bilan bitta umumiy tushunchaga birlashtirish imkonini beradi¹.

Boshqa mualliflar “fuqarolik sud ishlarini yuritishning maqsad va vazifasi” tushunchalarini aralashtirib, “sudning subyektiv huquqlar va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarni himoya qilish bo'yicha yakuniy vazifalarini amalga oshirish yo'lidagi yaqin maqsadlari” haqida so'z yuritishadi².

Uchinchi pozitsiya tarafdorlari bu tushunchalarning o'zaro bog'liqligiga e'tibor berishadi.

Ammo fuqarolik sud ishlarini yuritishning maqsadi sifatida protsessual faoliyatning kutiladigan natijasini, vazifasi esa natijaga erishiladigan talabni tushunish deb ikkiga ajratishadi³.

“Fuqarolik sud ishlarini yuritishning maqsad va vazifasi” tushunchalarining o'zaro nisbatini aniqlashda falsafiy nuqtayi nazardan qarash to'g'ri bo'ladi.

Maqsad deganda ongda shakllantirilgan oldindagi natija tushuniladi. Maqsad harakatlarni yo'naltiradi va tartibga soladi, amaliyotni inson irodasiga bo'ysunadigan ichki qonun sifatida qamrab oladi⁴. Vazifa esa muayyan sharoitlarda faoliyatning maqsadi hisoblanadi⁵.

Maqsad va vazifalarning o'zaro nisbati haqida fanda shakllangan umumiy uslubiy havolaga asoslanib, maqsad huquq subyeksi ongli ravishda anglagan amaliy vazifalar to'plami deb xulosaga kelishimiz mumkin. Maqsad vazifalarda aniqlashtiriladi. Shunday qilib, vazifa kelajakda-

¹ Жилин Г.А. Цели гражданского судопроизводства и их реализация в суде первой инстанции. М. 2000. С.16.

² Елисейкин П.Ф. Предмет судебной деятельности в гражданском процессе (его понятие, место, значение): Автореф. дис. ... докт. юрид. наук. Ленинград., 2014. С. 25.

³ Богомолов А.А. Процессуальные гарантии правильности и своевременности рассмотрения и разрешения гражданских дел: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. Саратов., 2004. С. 11.

⁴ Философский словарь. Под ред. И.Т. Фролова. М. 2000. С. 534.

⁵ Словарь практического психолога. М. Под ред. С. Ю. Головина. 1998. С. 205.

gi natijaga (maqsadga) erishish uchun bosqich hisoblanadi.

E'tiborli jihati, aksariyat mamlakatlarda fan va qonunchilik "fuqarolik sud ishlarini yuritishning vazifalari" emas, balki "maqsadlari" tushunchasidan foydalanish bilan tavsiflanadi. Masalan, amaliy muammolarni hal qilish va fuqarolik ishlari bo'yicha odil sudlovdan foydalanish ta'minlangan. 1998-yildagi ingliz Fuqarolik protsessual qoidalarining 1-moddasida asosiy maqsad sifatida sud xarajatlarini taqsimlashning mutanosibligini hisobga olgan holda ishlarni adolatli ko'rib chiqish belgilangan⁶.

Maqsad ushbu maqsadga erishishga qaratilgan xususiyatlarini sanash orqali ochiladi:

- taraflarning teng huquqliligini ta'minlash;
- sud xarajatlarini tejash;
- ishni jalb qilingan mablag'lar miqdoriga, ishning ahamiyatiga, tekshirilayotgan masalalarning murakkabligiga, har bir tarafning moliyaviy ahvoriga mutanosib ravishda ko'rib chiqish;
- ishning tez va adolatli ko'rib chiqilishini ta'minlash;
- sud resurslarini oqilona taqsimlash;
- protsessual qoidalarga rioya qilish.

AQSh Federal fuqarolik protsessual qoidalarining 1-moddasida qoidalardan sud va taraflar ishini adolatli, vaqtida va tejamkor ko'rib chiqish va hal qilishni ta'minlash maqsadida foydalanishlari lozim deyiladi⁷.

Avstriyada fuqarolik sud ishlarini yuritishning maqsadlari haqidagi nazariyaning rivojlanishiga Frans Kleinning "jamiyatdagi yovuzlik" (yoki ijtimoiy ziddiyat) deb ta'riflagan protsessual mafkurasi ta'sir ko'rsatdi. Fuqarolik protsessi, uning fikricha, maqsadga muvofiqlik va samaradorlik nuqtayi nazaridan kamchiliklarni tuzatish vositasi hisoblanadi. Shunday ekan, fuqarolik sud ishlarini yuritishning maqsadi nafaqat ishlarni ko'rib chiqish va hal etish, balki ijtimoiy nizolarni bartaraf etish orqali jamiyat farovonligini oshirishga xizmat qilishdir⁸.

Aytish lozim, fuqarolik sud ishlarini yuritishning maqsadi xususida shunga o'xshash g'oya zamonaviy olimlar tomonidan ham aytilgan. Misol uchun, S. Degtyarev sud hokimiyatining asosiy maqsadini jamiyat ichidagi nizolarni bartaraf etish deb biladi⁹.

Norvegiyada fuqarolik sud ishlarini yuritishning ikki maqsadi bor: birinchidan, sudga murojaat qilgan shaxslarning huquqlarini himoya qilish; ikkinchidan, huquqni muhofaza qiluvchi organlari tomonidan sud qarorlarini ijro etish orqali moddiy huquqning ustuvorligini ta'minlashdir.

Norvegiya fuqarolik sud ishlarini yuritish to'g'risidagi qonunining (nizolar to'g'risidagi qonuni, 2005-yil) yakuniy maqsadi fuqarolik ishlari bo'yicha eng samarali odil sudlovni ta'minlashdan iborat. Bu degani nizoni to'g'ri, tez va tejamkor tarzda hal qilishdir. Shu bilan birga, qonun sudning faol ishtiroki orqali nizolarni hal qilish uchun keng imkoniyatlar yaratishga qaratilgan¹⁰.

Italiyalik olimlarning fikriga ko'ra, fuqarolik sud ishlarini yuritadigan barcha subyektlar sud tizimining sustligi va samarasizligiga utilitar yechim izlashadi.



⁶ <https://www.justice.gov.uk/courts/procedure-rules/civil/rules/part01>

⁷ URL: https://www.uscourts.gov/sites/default/files/federal_rules_of_civil_procedure_dec_1_2019_0.pdf.

⁸ Oberhammer, Domej, Germany, Switzerland and Austria (CA. 1800-2005) // Van Rhee (ed.), European Traditions in Civil Procedure, 2005, p. 121; Ballon.

⁹ Дегтярев С.Л. Реализация судебной власти в гражданском судопроизводстве (теоретико-прикладные проблемы): Автореф. дис. ... докт. юрид. наук. Екатеринбург, 2008. С. 8.

¹⁰ Backer I.L. The Norwegian Reform of Civil Procedure. URL: <https://scandinavianlaw.se/pdf/51-2.pdf>

“Fuqarolik sud ishlarini yuritishning vazifalari” tushunchasidan foydalanish MDH hududidagi mamlakatlar uchun xosdir. Masalan, fuqarolik va iqtisodiy nizolar bo‘yicha ish yuritish vazifalarining tarkibi Belarus Fuqarolik protsessual kodeksining 5-moddasida va Xo‘jalik protsessual kodeksining 4-moddasida, Ukraina Fuqarolik protsessual kodeksining 1-moddasida, Xo‘jalik protsessual kodeksining 2-moddasida aks etgan. Rossiya qonunchiligida ham shundaydir.

Xitoyning 1991-yildagi Fuqarolik protsessual qonunining 2-moddasida fuqarolik sud ishlarini yuritishning 11 ta vazifasi qayd etilgan, jumladan:

- sud muhokamasi taraflarining huquqlarini himoya qilish, ish holatlarining to‘g‘ri aniqlanishini va qonunlarning to‘g‘ri qo‘llanishini ta‘minlash, fuqarolik ishlarini tez ko‘rib chiqish, fuqarolik huquqlari va majburiyatlarini tasdiqlash, fuqarolik qonunchiligini buzgan harakatlar uchun javobgarlikni belgilash, fuqarolarning qonunga hurmat munosabatini tarbiyalash, ijtimoiy va iqtisodiy tartibni saqlash, sotsialistik tuzumning to‘siqsiz rivojlanishini kafolatlash.

Biroq taraflarning huquqlarini himoya qilish va jamoat tartibini ta‘minlashga ustuvor ahamiyat qaratilgan¹¹.

Agar fuqarolik sud ishlarini yuritish maqsadining turli yondashuvlarini tizimlashtirishga harakat qilsak, ularni quyidagicha soddalashtirish mumkin:

- davlat sudlari tizimi tomonidan nizolarni hal etish;
- ijtimoiy funksiyalarni amalga oshirish;
- ish bo‘yicha haqiqatga erishish;
- buzilgan (e‘tiroz qilingan) huquqni himoya qilish.

Turli mamlakatlar fuqarolik sud ishlarini yuritishning maqsadlaridagi terminologik farqlar-

ga qaramay, ular deyarli hech qachon bir-biridan ajratilmagan. Biroq davlat va huquq taraqqiyotining turli tarixiy bosqichlarida ular o‘rtasidagi nisbat har xil bo‘lishi va o‘zgarishi mumkin¹².

Fuqarolik sud ishlarini yuritishning maqsad va vazifalari o‘rtasidagi nisbat xususida tadqiqotchi N. Arapovning pozitsiyasiga qo‘shilish mumkin. N. Arapov quyidagilarni ta‘kidlaydi: “...ijtimoiy munosabatlarning tabiati va rivojlantirish zarurati ularni himoya qilish sohasida huquqiy tartibga solish maqsadini belgilaydi. Bu esa, o‘z navbatida, aniq shart-sharoitlar va vaqtni hisobga olgan holda, yurisdiksiya organining vazifalarini belgilaydi. Falsafiy tushunchada maqsad deganda muayyan harakatlar orqali erishishga qaratilgan ongda oldindan kutilgan natija tushuniladi. Maqsad harakatlarni yo‘naltiradi va tartibga soladi. Bu harakatlar insonni o‘z irodasiga bo‘ysunadigan ichki qonun sifatida qamrab oladi. Ideal holatda, odil sudlov va boshqa yurisdiksiya organlari faoliyatining maqsad va vazifalari o‘rtasida nisbat bo‘lishi kerak. Yurisdiksiya organining huquqni tartibga solish maqsadi uning tashkil etilishi va faoliyatining maqsadini aks ettirsa, bu organ faoliyatining vazifasi esa maqsadga erishishni ta‘minlaydi. Protsessual vositalar va usullar vazifalarning bajarilishiga ko‘maklashishi lozim”¹³.

I. Zaysevning so‘zlariga ko‘ra, “vazifa” atamasi “maqsad” dan ko‘ra ko‘proq amaliy mazmun bilan to‘ldirilgan. Shu ma’noda vazifani yaqin, juz‘iy, dolzarb maqsad deb hisoblash lozim. Shu bilan birga, vazifalar maqsadlar bilan bir xil emas va ularni farqlash amaliy ahamiyatga ega. Vazifalar har bir ish bo‘yicha ish yuritishda sudning sa‘y-harakatlari bilan oxirigacha hal qilinishi lozim. Chunki aniqlangan sud xatolari birinchi navbatda vazifalarning bajarilmaganligidan dalolat beradi. Misol uchun, sudning ayrim hujjatlari noto‘g‘ri (noqonuniy, asoslanmagan yoki o‘z vaqtida amalga oshirilmagan) ekanligi. Sud o‘z maqsadlarini faqat muayyan ish bo‘yicha ish yuritish doirasida emas, balki boshqa davlat yoki jamoat organlari va tashkilotlari bilan birgalikda amalga oshiradi¹⁴.

Shu tariqa fuqarolik sud ishlarini yuritishning maqsadini fuqarolik ishlarini ko‘rib chiqish va hal

¹¹ <https://www.refworld.org/pdfid/3ddbca094.pdf>.

¹² Uzelac. Editor. Goals of Civil Justice and Civil Procedure in Contemporary Judicial Systems. 2014. P.6.

¹³ Арпов Н.Т. Проблемы теории и практики правосудия по гражданским делам. Ленинград. 2004. С. 19

¹⁴ Зайцев И.М. Целевые установки гражданского судопроизводства. Проблемы реформы гражданского процессуального права и практики его применения. Межвузовский сборник научных трудов. Свердловск. 2010. С. 15.

qilish tartibiga yo'naltiruvchi, tartibga soluvchi degan xulosaga kelish mumkin. Fuqarolik sud ishlarini yuritishning vazifalari sud va ishda ishtirok etuvchi shaxslarning protsessual faoliyatining normativ tarzda belgilangan oraliq maqsadlari bo'lib, bunda fuqarolik sud ishlarini yuritishning yakuniy maqsadiga (fuqarolik huquqiy munosabatlari subyektlarining buzilgan yoki bahsli huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish) erishish mumkin bo'ladi.

Alohida tartibda ish yuritishning o'ziga xos xususiyatlari

Ayrim olimlar alohida tartibda yuritiladigan ishlarda isbotlashning o'ziga xos postulatlar mavjud degan xulosaga kelishgan. Shunday qilib, V. Argunovning ta'kidlashicha, alohida tartibda ish yuritish ishtirokchilari sud protsessida isbotlashning barcha shakllaridan foydalanishlari lozim. Shu sababli bu holatda protsessual materialni ko'rib chiqishning maxsus prinsipi – yordam ko'rsatish tamoyilidan kelib chiqish kerak. Ushbu prinsip barcha faktik protsessual materiallarni ishlab chiqishda sud va arizachining (manfaatdor taraflarning) hamkorlik qilishi bilan ifodalanadi¹⁵.

Masalan, farzandlikka olish to'g'risidagi ishlarda alohida tartibda ish yuritish orqali sud bolani asrab olishga talabgorning qonuniy manfaatlarini va bolaning oilada tarbiyalanish huquqini himoya qiluvchi funksiyasini bajaradi. Biroq bolaning huquqlarini amalga oshirish ustuvor ahamiyatga ega bo'lib, shu prinsip asosida sud o'z tashabbusi bilan har qanday zarur dalillarni talab qilishi mumkin.

Alohida ish yuritish tartibida qarama-qarshi bo'lgan ikki tarafning yo'qligi sababli taraflarning tortishuvi prinsipi kam darajada namoyon bo'ladi. Biroq alohida ish yuritish tartibida arizasiga ko'ra ish yuritish qo'zg'atilgan shaxsdan tashqari ishda manfaatdor shaxslar deb ataladigan shaxslar ishtirok etishi mumkin. Bular ishning to'g'ri hal etilishidan manfaatdor fuqarolar, davlat organlari va boshqa shaxslar bo'ladi. Chunki sud qarori ushbu shaxslarning manfaatlarini yoki huquqlariga daxl qilishi mumkin. Sud ish bo'yicha nafaqat isbotlash predmetini belgilaydi, balki ishda barcha manfaatdor shaxslarni ham majburiy ravishda jalb qiladi.

Alohida tartibda yuritiladigan ishlarni ko'rib chiqish va hal qilishning to'g'riligi ko'p jihatdan himoya qilinadigan manfaatning xususiyatiga bog'liq. Shuning uchun, masalan, ma'lum bir yuridik faktni aniqlash to'g'risidagi arizaga majburiy talab sifatida arizachi ushbu faktni aniqlash maqsadini ko'rsatishi lozimligi belgilangan, chunki isbotlash predmeti va ishda manfaatdor shaxslar doirasi shu so'ralgan talab natijasida vujudga keldigan oqibatiga bevosita bog'liq.

Shunday qilib, alohida tartibdagi ishlarni ko'rib chiqish va hal qilishdan maqsad fuqarolar va tashkilotlarning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish hisoblanadi. Ushbu maqsad ishni to'g'ri hal qilish uchun arizachi va manfaatdor shaxslar bilan hamkorlikda faktik materiallarni ishlab chiqishda sudning faol rolini nazarda tutadi.

Binobarin, fuqarolik ishini qo'zgatish bosqichida nizoli huquqiy munosabatlarni to'g'ri va o'z vaqtida aniqlash alohida tartibda ish yuritishning vazifalaridan biri deb hisoblanishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bundan tashqari, adolatli va obyektiv hal qiluv qarorlarini qabul qilish uchun sudlar Fuqarolik protsessual kodeksning 27-37-boblarida nazarda tutilgan xususiyatlarni hisobga olgan holda alohida ish yuritish tartibidagi ishlarini ko'rib chiqishlari lozim.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, alohida ish yuritish tartibidagi ishlarni ko'rishda sudlar uchun vazifani amaldagi FPKning 2-moddasida aks ettirish maqsadga muvofiqdir.

Ishlarning sud tomonidan ko'rib chiqilishi sud hokimiyatining nizoga o'rin qoldirmaydigan va ijrosi majburiy hujjatini ishlab chiqishni nazarda tutadi.

Alohida ish yuritish tartibida ko'riladigan ishlar bo'yicha sudning hal qiluv qarori taxminiy, ehtimoliy xarakterga ega bo'ladi. Ya'ni, sudya taraflar taqdim etgan ishonchli dalillar asosida qaror qabul qiladigan da'vo tartibidan farqli o'laroq sudga ma'lum bo'lgan va u taqdim etgan ma'lumotlar asosida qaror qabul qiladi.

Sherali SUBXONOV,

Toshkent davlat yuridik universiteti
Fuqarolik protsessual va iqtisodiy protsessual
huquqi kafedrasining o'qituvchisi

¹⁵ Argunov В.В. Судебное познание и доказывание по делам особого производства // Вестник гражданского процесса. 2021. № 5. С. 315.

Bank sohasida korrupsiyaviy huquqbuzarliklar shakllari, tasnifi, o'ziga xos xususiyatlari

Bank sohasidagi korrupsiyaviy holatlar turli shakllarda namoyon bo'lishi mumkin. Jumladan, poraxo'rlik, bank mablag'larini noqonuniy o'zlashtirish, "pul yuvish" va kreditlarni noto'g'ri yo'naltirish va boshqalar. Bular makroiqtisodiy barqarorlikka ham, jismoniy va yuridik shaxslarning mikroiktisodiy darajadagi faoliyatiga ham jiddiy xavf tug'diradi.



Korrupsiyalashgan bank tizimida kredit ajratish ko'pincha o'zining asosiy vazifasidan chetga chiqib, samarali investitsiyalarga emas, iqtisodiy samaradorligidan qat'i nazar korrupsionerlar tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan yoki ularga aloqasi bor loyihalarga yo'naltiriladi. Resurslarning bunday noto'g'ri taqsimlanishi uzoq muddatli iqtisodiy o'sishga putur yetkazadi.

Bank sohasidagi korrupsiyaviy holatlar kredit ajratish jarayoni bilangina cheklanmaydi. Bank sektoridagi korrupsiyaviy huquqbuzarliklarning shakllari, tasnifi va o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Konstitutsiyasining 151-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining bank tizimi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankidan va banklardan iboratdir.

Bugungi kunda O'zbekiston bank tizimi umumiy ma'noda quyidagi turlarga bo'linadi: 1) Markaziy bank; 2) tijorat banklari; 3) chet el banklari. Ammo kredit tizimi mablag'larni jalb qilish va ularni taqsimlashga qarab bir necha bo'g'inlardan iborat bo'lishi mumkin.

Mulk shakliga ko'ra: davlat, aksiyadorlik, aralash, qo'shma, xususiy banklarga bo'linadi. Bundan ko'rinib turibdiki, banklar faoliyat yo'nalishi, moliyaviy faoliyatiga qarab turlarga bo'linadi va o'z navbatida korrupsiyaviy holatlarning ko'rinishi va aksikorrupsiyaviy choralar ham ularning amalga oshiradigan faoliyatiga qarab farq qiladi.



Markaziy bank – mamlakatda pul-kredit siyosatini ishlab chiqadi va amalga oshiradi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- 1) banknotalar (naqd pullar) emissiyasi;
- 2) tijorat banklari kassa rezervlarini to'plash va saqlash;
- 3) oltin-valyuta zaxiralarini saqlash;
- 4) tijorat banklarini kreditlash;
- 5) davlat banki sifatida hukumat uchun kredit berish va hisob-kitob operatsiyalarini bajarish;
- 6) hisob-kitob va almashuv operatsiyalarini amalga oshirish;
- 7) pul-kredit siyosati.

Bundan tashqari Markaziy bank manfaatlar to'qnashuvining oldini olish, ularni aniqlash va boshqarishga oid siyosatni, shuningdek korrupsiyaning oldini olish yuzasidan Markaziy bankning hamda uning tasarrufidagi tashkilotlarning barcha xodimlari tomonidan rioya etilishi majburiy bo'lgan chora-tadbirlarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi¹.

“Valyutani tartibga solish to'g'risida”gi qonunning 7-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki valyutani tartibga soluvchi davlat organi hisoblanadi. Bunday funksiyalar hozirgi vaqtda barcha zamonaviy davlatlarning Markaziy banklari uchun xarakterlidir.

Ma'lumot uchun:

Jahon bankining 2021-yildagi “Global Findex” ma'lumotlar bazasiga ko'ra², O'zbekiston aholisining 56 foizida bank hisobi mavjud emas. Doimiy tarzda ishlatiladigan bank hisoblari bundan ham kam bo'lishi mumkin.

Tijorat banklari – korxonalar, tashkilotlar, fuqarolarga universal bank xizmatlari (hisob-kitob, to'lov operatsiyalari, omonatlarni saqlash, ssudalar berish, shuningdek, qimmatli qog'ozlar bozoridagi operatsiyalar) ko'rsatadigan yirik kredit muassasasi. Tijorat banki bank harakatlarini amalga oshirish uchun pulni asosan qo'yilmalar (omonatlar), banklararo kreditlar, o'z aksiya va obligatsiyalarini chiqarish hisobiga shakllantiradi.

Bank va moliya sektorida yuzaga keladigan korrupsiyaning ayrim turlarini ushbu tashkilotlarning faoliyat yo'nalishi va asoslariga qarab toifalaymiz³.

I. Markaziy bankning nazorat funksiyasini amalga oshirishda uchrashi mumkin bo'lgan korrupsiyaviy holatlar

Markaziy bank inspeksiyalari tomonidan tijorat banklari muntazam ravishda taqdim etadigan moliyaviy va boshqa hisobotlarni, ma'lumotlarni ko'rib chiqish jarayonida tekshiruv natijalari pora evaziga tijorat bankining foydasiga o'zgartiriladi.

¹ O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida”gi qonun. 7-modda. <https://lex.uz/acts/4590452>.

² URL: <https://www.worldbank.org/en/publication/globalfindex/Report>

³ Izoh: keltiriladigan korrupsiyaviy holatlar nazariy fikr-mulohazalar bo'lib, muallifning shaxsiy qarashlarini ifodalaydi. Shu bilan bir qatorda, mazkur holatlar o'z isbotini topmagan korrupsiyaviy xavf-xatar hisoblanadi.

Markaziy bank o'z nazorat xizmatlari orqali tijorat banklaridagi vaziyatni tezkor va samarali kuzatib boradi. Tijorat banklarining kichik va bir martalik suiiste'mollari yuqori bo'g'in bilan "kelishmasdan" amalga oshirilishi mumkin. Lekin tijorat banklari yirik va doimiy ravishda amalga oshiriladigan korrupsiyaviy operatsiyalarni Markaziy bankdan yashirish imkoniyatiga ega emas. Shu asosda Markaziy bank va tijorat banki o'rtasida "kelishib ish yuritish" ehtiyoji paydo bo'ladi.

1.1. Markaziy bank tomonidan kredit berish sohasida uchrashi mumkin bo'lgan korrupsiyaviy holatlar

Ushbu korrupsiyaviy bitim Markaziy bankning tijorat bankiga kredit berish bo'yicha ijobiy qarorini "sotib olish"ni nazarda tutadi. Ba'zan bunday qaror tijorat banki uchun juda muhim, chunki bu kreditlarsiz bank bankrot bo'ladi.

Kredit olish to'g'risida ijobiy qaror qabul qilingan taqdirda, tijorat banki tomonidan "xizmat"ni taqdim etgan shaxs foydasiga turli xil noqonuniy xatti-harakatlar (kreditning ma'lum foizi yoki undan tushadigan foydaning qismini xizmat evaziga berish yoki kredit taqdim etgan shaxsning yaqinlari, qarindoshlari, tanish-bilishlariga kam foizlarda yoki uzoq muddatli kreditlar taqdim etish) sodir etiladi yoxud moddiy, nomoddiy ko'rinishda pora beriladi.

1.2. Konfidensial axborotni tarqatish bilan bog'liq korrupsiyaviy holatlar

"Ichki" axborotni sotishga asoslangan Markaziy bankning "bitimlari". Misol uchun, Markaziy bankning valyuta bozorida yaqinlashib kelayotgan milliy valyuta kursining rejalashtirilgan o'zgarishi haqidagi ma'lumotlari. Bunday axborot mo'maygina pul hisoblanadi.

1.3. Budjet mablag'larini ajratishdagi lob-bichilik

Ushbu sohada banklar davlat tashkilotlari, organlariga katta miqdorda va uzoq yilga mo'ljallangan kreditlar taqdim etadi va davlatdan ma'lum bir imtiyozlar oladi. Imtiyozlar turli shaklda, masalan, budjetdan banklarning ustav kapitaliga mablag' ajratish orqali bo'lishi mumkin. Ya'ni, banklarni qutqarish soliq to'lovchilarning hisobidan amalga oshiriladi.

1.4. Bank sohasidagi siyosiy lobbizm

Banklarning korrupsiyaviy faoliyati nafaqat biznes va kapitalni ko'paytirish, balki siyosat bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin. Ko'pgina banklar

o'z faoliyatining davomiyligi uchun manfaatli qonunlarni qabul qilish, ya'ni lobbizm uchun qonun chiqaruvchini (parlament va boshqa davlat tashkilotlari) sotib olishi mumkin. Bundan tashqari, banklar maxfiy tarzda alohida siyosatchilar, siyosiy partiyalar, ommaviy axborot vositalari va boshqalarni moliyalashtiradi.

1.5. Nazorat faoliyatini amalga oshirishda sovg'alar olish

Markaziy bank xodimlarining tijorat banki foydasiga qilgan korrupsiyaviy harakatlari, xususan, noqonuniy ustunlik taqdim etishlari uchun ularga hashamatli sovg'alar berish kabi holatlarni uchratish mumkin. Bular: kvartira, avtomobil, qimmatbaho telefon, uzoq muddatli kredit va hokazo.

1.6. Nazorat faoliyatini amalga oshirishda mehmondo'stlik

Tijorat banklarining pul-kredit sohasidagi faoliyati bevosita Markaziy bank nazoratida amalga oshiriladi. Shu boisdan bo'ysunuvchi subyektlar tomonidan o'zlari haqida salbiy xulosalar shakllanmasligi uchun "mehmondo'stlik" harakatlari amalga oshiriladi. Ular quyidagicha ko'rinishda bo'lishi mumkin: ziyofat, kurortga bilet, mehmonxonada, transport xarajatlarini qoplash va hokazo.

II. Tijorat banklari faoliyatida uchraydigan korrupsiyaviy holatlar

2.1. Bank aktivlarini o'zlashtirish bilan bog'liq korrupsiyaviy holatlar

Bank aktivlari egalari yoki yuqori turuvchi bank boshqaruvi menejerlari turli sxemalardan foydalangan holda ushbu aktivlarni bank hisobidan chiqarib tashlash va olingan mablag'larni o'z foydasiga xususiyashtirishlari mumkin. Har qanday sxemaning yakuniy bosqichida olingan mablag'lar "yuviladi" va ular "qonunlar amal qiladigan iqtisodiyot"ga joylashtiriladi yoki korrupsiyaviy amaliyot ishtirokchilarining shaxsiy ehtiyojlari uchun sarflab yuboriladi. Bank aktivlarini o'g'irlash bir martalik yoki muntazam shaklda bo'lishi mumkin.

2.2. Bank operatsiyalarini amalga oshirishdagi korrupsiya

Kredit berish va uning shartlari to'g'risida qaror qabul qilishda har qanday darajadagi bank xodimi va mijoz o'rtasida korrupsiyaviy bitim tuzilishi mumkin. Bunday bitim mijoz tomonidan bank

xodimini “mukofotlash”ni nazarda tutadi. Mukofot pora shaklida berilishi mumkin. Ushbu korrupsiyaviy holatlar shartli ravishda chakana kreditlash tizimidagi korrupsiya va muddati oʻtgan kredit qarzlarni undirishdagi korrupsiyaga boʻlinadi.

2.3. Chakana kreditlash sohasidagi korrupsiya

Soʻnggi paytlarda banklar chakana kreditlashni faol targʻib qilmoqda. Sababi, yirik mijozlarning korporativ sektori nisbatan tor va bankning kredit liniyasi boʻyicha yillik foizlari chakana savdoga nisbatan ancha past. Shuning uchun banklar reklama kompaniyalaridan foydalanib, faol qarz oluv-

ga kelib, haq evaziga tegishli “xizmatlar” koʻrsatadilar. Xizmatlar uchun toʻlov nafaqat pul, balki boshqa moddiy vositalar ham boʻlishi mumkin. Maʼlum vaqtdan soʻng qarzdor kreditorning bosimi kamayganini sezadi. Bunday holatlarda muddat asosiy rolni bajaradi, sababi qarzdor uchun kreditni qaytarish imkoniyati mavjud boʻlmaganda unga vaqt suv va havodek zarur hisoblanadi.

2.5. Garovni soxtalashtirish shaklidagi korrupsiya

Garov boʻlinmalarining funksiyalari tashkilotning asbob-uskunolari, koʻchar va koʻchmas mulklari, inventarizatsiya buyumlarini vizual tek-

shirishdan iborat. Boshqa soʻz bilan aytganda, kreditni qaytarishni taʼminlash uchun garov sifatida rasmiylashtiriladigan barcha mol-mulk boʻlim mutaxassislari tomonidan tekshirilib, baholangan boʻlishi kerak.


Aniq belgilanmagan jarayonlarda mutaxassis sifatsiz uskunalar oʻrniga qimmatbaho uskunalarning fotosuratlarini koʻrsatish orqali maʼlumotlarni soxtalashtirishi mumkin. Hujjatlar oʻrnatilgan tartibda oʻrganilmaydi.

Garovga qoʻyilgan mol-mulkni qarz hisobiga musodara qilish maqsadida qoʻshimcha ravishda oʻrganilganda qalbakilashtirish holatlari aniqlanishi mumkin.

Ipoteka krediti berish

sohasida ham korrupsiya keng tarqalgan. Riyeltorlik va baholash kompaniyalari oʻz fotohisobotlarida mulkning bozor qiymatini oshirish maqsadida xaroba uy oʻrniga hashamatli, mustahkam uyni aks ettiradilar. Bank mutasaddilari buni bilganlari holda pora evaziga katta miqdordagi ipoteka kreditini rasmiylashtirib beradilar. Bunday holatlar bank mablagʻlarining qaytishini istisno qilib, oʻnglab boʻlmas zarar yetkazadi.

2.6. Bankda akkreditatsiya paytidagi korrupsiya



chilarga qulay kredit shartlarini taklif qiladilar. Kredit olish uchun murojaat qilinganda esa rad etiladi. Bunday hollarda vositachilar pulli asosda kredit olishda yordam koʻrsatishni taklif qiladilar.

2.4. Muddati oʻtgan qarzlarni undirishdagi korrupsiya

Muddati oʻtgan qarzlarni boshqarish sohasida korrupsiyaning turli shakllari mavjud. Isteʼmol kreditida muddati oʻtgan qarzlarni bilan ishlash boʻlimi mutaxassisi mijozga nisbatan bosim oʻtkazadi. Shu nuqtada vositachilar qarzdor uchun yordam-

U tadbirkorlik subyektlarini akkreditatsiya qilish jarayonida xodimlar kompaniya aktivlari haqidagi real ma'lumotlar o'rniga soxtalashtirilgan ma'lumotlarni taqdim etganlarida yuz berishi mumkin.

2.7. Kassa bo'g'inidagi korrupsiya

Ushbu turdagi korrupsiyaviy huquqbuzarliklar kassa xizmatlari paytida, xodim bank mablag'lari hisobiga shaxsiy kreditlarni to'lash bilan bog'liq muammolarni hal qilishi jarayonida yuz berishi mumkin. Bank mablag'laridan noqonuniy vaqtinchalik kredit predmeti sifatida foydalanib, kassir bankning yuqori nazorat xodimi ruxsati bilan kassadan pul olishi, shu bilan ish kuni oxirigacha hisobotlarga turli raqamlarni kiritib qo'yishi mumkin.

Yana bir korrupsiyaviy holatlardan biri – bank xodimlari o'zlarining nomlariga soxta plastik kartalar ochib, bank mablag'idan kredit sifatida foydalanadilar. Bunga qo'shimcha ravishda, ma'lum bir korxonaning pullari bloklanmagan tranzit hisob raqamida qolib ketadi va ushbu pullar bosh buxgalter tomonidan nazorat qilinmagan holatlarda xodimlar undan o'zlarining shaxsiy manfaatlari yo'lida foydalanadilar.

2.8. Shaxsiy ma'lumotlarni uchinchi shaxs manfaatlariga uchun o'g'irlash

Bank xodimlari shaxsiy ma'lumotlarni mijozning ruxsatisiz uchinchi shaxslarga beradi. Bu turdagi korrupsiyaviy xatti-harakatlar asosan yirik tadbirkorlik subyektlariga nisbatan sodir etiladi va bu halol raqobat muhitini buzish hisoblanadi.

2.9. Sovg'a berish bilan bog'liq korrupsiya

Tijorat banklari xodimlarining faoliyatini nazorat qilishda ushbu xodimlar tomonidan qimmatbaho sovg'alar berish bilan bog'liq korrupsiyaviy holatlar kuzatiladi.

2.10. Ichki va tashqi nazoratni amalga oshirishdagi mehmondo'stlik

Ushbu holatda nazorat obyekti hisoblangan bank xodimlari noqonuniy ustunlik olish, jazolanishdan qochish maqsadida nazoratchilarga "mehmondo'stlik" ko'rsatishadi.

2.11. Jinoiy daromadlarni qonuniylashtirishga yordam berish shaklidagi korrupsiya

U tijorat bankining noqonuniy yo'l bilan topilgan pullarni "yuvish" bo'yicha korrupsiyaviy operatsiyalarda ishtiroki shaklida amalga oshiriladi. Bunda mijozlar jismoniy shaxslar ham, yuridik shaxslar ham bo'lishi mumkin. "Yuvilgan" pullar odatda davlat amaldorlari, uyushgan jinoiy guruhlarining rahbarlari va a'zolari yoki bankirlarga tegishli bo'ladi. "Pullarni yuvish" deganda birinchi navbatda jinoiy faoliyat orqali topilgan naqd pulni, masalan, giyohvand moddalar savdosidan olingan daromadlarni "qonuniylashtirish" tushuniladi. "Pul yuvish"da banklar ko'pincha tashkiliy-huquqiy shakliga ko'ra bank bo'lmagan tuzilmalar bilan hamkorlik qiladi.

Ma'lumotni tekshiradigan va biznes manziliga boradigan bank mutaxassisi pul evaziga haqiqiy faktlar va hujjatlarda ko'rsatilgan faktlar o'rtasidagi farqni yoki operativ xizmat ko'rsatish jarayonida aniqlangan shubhali operatsiyalar faktini qasddan yashirishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, baribir hammasi o'sha eski muammolarga – imtiyozli kreditlar va bank tizimidagi davlatning o'zni masalasiga borib taqaladi. Avval shu masalalarga yechim topmasdan uning oqibatlari bilan kurashish samarasiz.

Qachonki banklarda davlatning o'zni keskin qisqarsa, banklar orqali imtiyozli kreditlar va shunga o'xshash ijtimoiy dasturlar doirasida resurslarni taqsimlash to'xtatilib, xarajatlar qisqartirilsa, banklarga xizmatlar narxini belgilashda erkinlik berilsa, banklararo raqobat bo'lsa, bu bozorga kirish yoki chiqishga cheklovlar bo'lmasa, tizimdagi muammolar barham topadi. Markaziy bank mustaqilligi ham o'sha ro'yxatning birinchisida turadi.

Yuqoridagi klassifikatsiyadan kelib chiqib, birinchi navbatda korrupsiyaviy holatlarni yuzaga keltiradigan omillarni bartaraf etishga qaratilgan choralar tizimi, strategiyasini amalga oshirish zarur.

Meronshox RASULOV,

Huquqni muhofaza qilish akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

“Benefitsiar mulkdor”

benefitsiar mol-mulkning subyekti sifatida



O‘zbekiston qonunchiligiga muvofiq mulk huquqiga egalik qiluvchi yoki mijozni haqiqatda nazorat qiluvchi jismoniy shaxs yoxud manfaati ko‘zlangan holda pul yoki boshqa mulk bilan bog‘liq operatsiya amalga oshirilayotgan yuridik shaxs benefitsiar mulkdor hisoblanadi.

“Financial Action Task Force” (FATF) tashkilotining “Shaffoflik va benefitsiar mulk” (24, 25-tavsiyalar) qo‘llanmasida benefitsiar mulkdor bevosita yoki bilvosita yuridik shaxsga egalik qiluvchi, jamg‘armaning kamida 25 foiz ulushiga ega bo‘lgan jismoniy shaxs ekani belgilangan.

Benefitsiar mulk va benefitsiar mulkdor tushunchalari borasida turli xil ta‘rif va talqinlar

mavjud bo‘lib, ular mohiyatan bir-biridan farq qilmaydi. Bunda benefitsiar mulkka nisbatan mulkdorlarning teng huquqliligi tan olinadi. Masalan, taniqli olim L. J. Herman benefitsiar mulkdorni na faqat mulkning qonuniy egasi sifatida ro‘yxatdan o‘tgan, balki o‘z nazoratidagi obyektlar yuzasidan qaror qabul qilish huquqiga yoki vakolatiga ega bo‘lgan shaxs deb ta‘riflagan.

A. Hudson o'zining "Understanding equity and trusts" kitobida "benefitsiar mulkdorlar pirovard natijada kompaniyadan olinadigan foydani nazorat qiluvchi yoki ulushga ega bo'lgan barcha jismoniy va yuridik shaxslardir" degan ta'rifni beradi¹.

Benefitsiar mulkdorlar tushunchasining talqini Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti sharhlarida ham mavjud bo'lib, unga ko'ra benefitsiar mulkdorlar kompaniya yoki tashkilotning haqiqiy egalari yoki nazorat qiluvchi shaxslaridir. Tashkilot benefitsiar mulkni oshkor qilishni rag'batlantiradi.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining bu boradagi tavsiyalari ko'plab davlatlar tomonidan qabul qilinmoqda va milliy qonunchiligiga kiritilmoqda. Ayni damda mamlakatimizda ham benefitsiar mulkdorlarni oshkor qilish bo'yicha qonun loyihalari ishlab chiqilmoqda².

Benefitsiar mulkdorlar ishonchli boshqarish shartnomasining subyektlaridan biri (asosiy foyda

oluvchi) hisoblanadi. Huquqshunos olim B. Topildiyev ishonchli boshqarish shartnomasi tushunchasining Fuqarolik kodeksiga kiritilishi ishonchli boshqarish shartnomasining obyektlari doirasini aniqlashtirishga, trust instituti mohiyatini ochib berishga xizmat qilishini e'tirof etadi³. Aynan mazkur institut benefitsiar mulk hamda mulkdorlar mohiyatini tushunishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda benefitsiar mulkni deyarli barcha sohalarda, masalan, moliya, iqtisod, soliq, bank, huquq va boshqa sohalarda uchratish mumkin. Kichik tadbirkorlik subektlarining benefitsiarlarini aniqlash qiyinchilik tug'dirmaydi, ammo tashkilot yiriklashgani sayin unga haqiqiy egalik qiluvchi shaxslar bir necha darajaga taqsimlanib ketadi va ildizlari hatto mamlakat tashqarisiga (ofshor zonalarigacha) chiqib ketish xavfi yuqori.

Yirik kompaniyalarning benefitsiar mulkdorlarini aniqlash murakkab jarayon hisoblanadi.


Benefitsiar mulkdorlarni aniqlashda quyidagi mezonlardan foydalanish maqsadga muvofiq:

- yuridik shaxsning 25 foiz va undan ortiq ulushiga egalik qiluvchi jismoniy shaxs yoki shaxslar;
- fuqarolik-huquqiy jihatdan aksiyadorlik jamiyatini boshqaruvchi jismoniy shaxs yoki shaxslar;
- yuridik shaxsning faoliyatidan moliyaviy foyda ko'ruvchi yoki mukofot oluvchi jismoniy shaxs yoki shaxslar;
- mulk huquqiga ega bo'lmasdan yuridik shaxs faoliyatini moliyalashtiruvchi jismoniy shaxs yoki shaxslar;
- yuridik shaxs faoliyatida strategik jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lgan qarorni qabul qilishga vakolati bo'lgan jismoniy shaxs yoki shaxslar;
- yuridik shaxsning boshqaruv tarkibiga kiruvchi va uning faoliyatini nazorat qiluvchi jismoniy shaxs yoki shaxslar;
- yuridik shaxsning rahbari yoki ta'sischilarining qaroriga ta'sir ko'rsata oladigan jismoniy shaxs yoki shaxslar;
- yuridik shaxsga doimiy ravishda moliyaviy yordam yoki kredit taqdim etuvchi jismoniy shaxs yoki shaxslar.

¹ A. Hudson. Understanding equity and trusts. Third edition.

² <https://zamin.uz/uz/dunyo/100384-ofshor-kompanijalarga-z-beneficiarlarini-ochilash-talabi-jilishi-mumkin.htm>.

³ B. Topildiyev. Мол-мулкни ишончли бошқариш шартномасини такомиллаштириш. 2020. УДК: 347.4 (043.5) (575:1)



Benefitsiar mulkdorlarni aniqlash barcha holalarda mijoz taqdim etgan ma'lumotlarni mustaqil manbalar bilan solishtirish orqali kompleks yondashuvni talab qiladi.

Benefitsiar mulkdori haqida ma'lumotlar taqdim etilmagani yoki noto'g'ri ma'lumotlar taqdim etilganida ichki nazorat xodimi tomonidan operatsiyani o'tkazishni bekor qilish va mazkur holat bo'yicha maxsus vakolatli davlat organiga xabar berish tavsiya etiladi.

FATFning 11-tavsiyasiga muvofiq, tashkilot xodimi tomonidan olingan mijozning benefitsiar mulkdori haqidagi ma'lumotlar operatsiyalar amalga oshirilganidan yoki mijozlar bilan amaliy ish munosabatlari to'xtatilganidan keyin kamida besh yil mobaynida saqlanadi.

Xalqaro amaliyotdan kelib chiqib tashkilotlar benefitsiar mulkdorini aniqlashda birinchi o'ringa uning shaxsi va vakolatlari haqidagi ma'lumotlarni yig'ishlari shart.

Benefitsiar mulk to'g'risidagi ma'lumotlarning yetarli, aniq va dolzarb bo'lishini ta'minlash, ayniqsa, mulkchilik zanjiri bir nechta yurisdiksiya bo'ylab tarqalgan yuridik shaxslar va yuridik tuzilmalar qatlamlarini o'z ichiga olgan murakkab tarmoqlarida qiyin bo'lishi mumkin.

Ushbu muammolarni hal qilish uchun FATF 2003-yilda benefitsiar mulkning shaffofligi bo'yicha birinchi xalqaro standartni yaratdi va 2012-yilda uni mustahkamladi⁴.

Bugungi kunda FATF baholashlariga ko'ra, qora ro'yxatda KXDR va Eron, kulrang ro'yxatda Albaniya, Bagama, Barbados, Botsvana, Gana, Zimbabve, Yaman, Islandiya, Kambodja, Mavrikiy, Mo'g'uliston, Myanma, Nikaragua, Pokiston, Panama, Suriya, Uganda, Yamayka davlatlari turadi. Ayni damda O'zbekiston oq ro'yxatda joylashgan.

Oxirgi benefitsiar mulk egalari masalasini tartibga solmaslik O'zbekistonning "kulrang" yoki "qora" ro'yxatlarga tushishiga olib kelishi va xalqaro bozorlarga chiqishiga to'sqinlik qilishi mumkin. Chunki ko'p davlatlar boshqa davlatlar bilan xalqaro munosabatlarga kirishishdan avval FATF tashkilotidan hamkorlik qilmoqchi bo'lgan davlat haqida ma'lumot olishlari va uning xulosalaridan foydalanishlari mumkin.

Xususan, 2022-yilning iyun oyida FATF tashkiloti O'zbekiston Respublikasining o'zaro baholash hisobotini ishlab chiqdi⁵. Mazkur hisobotda O'zbekistonda benefitsiar mulkdorlar tomonidan soliq to'lashdan bo'yin tovlash hamda savdo qoidalarini katta miqyosda buzish holatlari kuzatil-

⁴ Beneficial ownership of legal persons. 2023. FATF, www.fatf-gafi.org.

⁵ Евразийская группа по противодействию легализации преступных доходов финансированию терроризма Mutual Evaluation Report of the Republic of Uzbekistan <https://www.fatf-gafi.org/en/the-fatf.html>.

ganligi qayd etilgan. Misol uchun, butun respublikaga tanilgan “Ahmadboy ishi” FATF hisobotlarida qayd etilgan.

Bunda “Importer” MChJ tomonidan qisqa muddat (uch oy) ichida 30 million AQSh dollaridan ortiq turli xil tovarlar importi amalga oshirilganiga qaramay savdo tushumi ancha kam ko‘rsatilib, faqat bojxona to‘lovlariga yo‘naltirilgan. Shuningdek, ishonchnomalar asosida “Importer” MChJga tegishli import tovarlari uchinchi shaxslar tomonidan eksport qilingani aniqlangan.

“Importer” MChJning “soyadagi” rahbarlari “Volonter” MChJni boshqa shaxs nomiga ro‘yxatdan o‘tkazgan va shu kabi noqonuniy ishlarni amalga oshira boshlagan.

Keyinchalik “Importer” MChJ va “Volonter” MChJ kontragentlari va yuridik manzili bitta ekanini aniqlangan. “Volonter” MChJ mansabdor shaxslari pullarini xorij valyutasiga konvertatsiya qilish to‘g‘risida ariza bilan murojaat qilgan va ularni keyinchalik ofshor mamlakatda ro‘yxatdan o‘tgan “Company Limited” xorijiy kompaniyasi hisobraqamiga o‘tkazishni maqsad qilgan.

Keyinchalik tergov jarayonida ma‘lum bo‘lishicha, “Company Limited”, “Importer” MChJ va “Volonter” MChJning “soyadagi” rahbari Ahmadboy bo‘lib chiqdi. Ahmadboy “Company Limited”ning benefitsiar mulkdori ekanini va bu kompaniyaga o‘tkazilishi mo‘ljallangan pullariga Dubaydan ko‘chmas mulk sotib olish rejalashtirilganini tan olgan⁶.

Rivojlanayotgan mamlakatlar benefitsiar mulkchilik amaliyotidan noto‘g‘ri foydalanish natijasida kelib chiqadigan huquqbuzarliklar tufayli juda katta miqdorda zarar ko‘radilar.

Xususan, Indoneziya mazkur mulkchilik amaliyotidan noto‘g‘ri foydalanish natijasida yiliga taxminan 1 trillion AQSh dollari miqdorida zarar ko‘radi.



2022-yilning iyun oyida FATF tashkiloti O‘zbekiston Respublikasining o‘zaro baholash hisobotini ishlab chiqdi. Mazkur hisobotda O‘zbekistonda benefitsiar mulkdorlar tomonidan soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash hamda savdo qoidalarini katta miqyosda buzish holatlari kuzatilganligi qayd etilgan.

Tadbirkorlik subyektlarining benefitsiar mulkka oid ma‘lumotlarini identifikatsiyalash zaruriyati korrupsiyaga qarshi kurashish, jinoiy daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bilan izohlanadi.

Auditorlik tashkilotlari uchun jinoiy faoliyatlardan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha ichki nazorat qoidalarida benefitsiar mulkdorni qonunchilik hujjatlari bilan belgilangan ta‘sis hujjatlari (ustav yoki ta‘sis shartnomasi) asosida aniqlash, ya‘ni identifikatsiyalash belgilangan.

Mamlakatimizda benefitsiar mulkka doir munosabatlarni tartibga solish, shuningdek benefitsiar mulkdorlarga doir ma‘lumotlardan doimiy xabardor bo‘lish maqsadida yuridik shaxslarning benefitsiar mulkdorlari reyestrini yuritish orqali turli xil qonunbuzarliklarning oldini olish mumkin bo‘ladi.

Dilorom RAHIMOVA,

Toshkent davlat yuridik universiteti
Uzluksiz ta‘lim boshqarmasi uslubchisi

⁶ FATF. Отчет взаимной оценки Республики Узбекистан. 2022.

Global muammolar jamiyatimizga ham ta'sir o'tkazmasdan qolmayapti. Nafaqat jahonda, balki mamlakatimizda ham ota-onalik huquqidan mahrum bo'lganlar soni yil sayin ortib bormoqda. Huquqni qo'llash amaliyoti muammoning dolzarbligini aniq ko'rsatmoqda.



Ota-onalikdan mahrum qilish asoslari va oqibatlari



Statistik ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatimizda 2021-yilda profilaktik hisobda turgan ota-onalar soni 12941, 2022-yilda 17032 nafarni tashkil etgan¹. Ota-onalik huquqidan mahrum qilish bilan bog'liq ishlarni fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarning birinchi instansiyasida ko'rish statistikasiga e'tibor qaratsak, 2020-yilda 850 ta, 2021-yilda 1244 ta, 2022-yilda 1336 ta, 2023-yilning 6 oyida 601 ta² ish ko'rib tamomlangan va ota-onalar yoki ulardan biri ota-onalik huquqidan mahrum etilgan.

Ota-onalik huquqidan mahrum etish institutining vujudga kelishi va rivojlanish bosqichlari bir tarafdin bolaning oilaviy huquqiy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan. Ikkinchi tarafdin ota-onalar hokimiyatini cheklash va ularning qonunga xilof xatti-harakatlariga nisbatan aniq sanksiyalar ishlab chiqilishiga asos bo'lgan.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilish oilaviy huquqiy javobgarlikning bir turi, unda jazo elementi aniq namoyon bo'ladi. Shuningdek, ota-onalik huquqidan mahrum qilish to'g'risidagi ishni ko'rib chiqishning asosiy vazifasi bolaning manfaatlarini ta'minlashdir.

Bolalarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzganlik uchun himoya qilish va javobgarlikning amaldagi choralari oilaviy munosabatlar va

huquq tizimi rivojlanishining har bir yangi bosqichi bilan o'zgarib bormoqda. Bu esa ularni qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. Qayd etish joizki, oila qonunchiligidagi javobgarlik choralariga jiddiy e'tibor qaratilishi, ularni yangilash zarurati hamda ota-onalik huquqidan mahrum qilish institutini o'rganish jiddiy ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda xalqaro huquqda bolalarga taalluqli barcha qarorlarda bolaning manfaatlari birinchi o'rinda turishi kerak degan fikrni qo'llab-quvvatlovchi keng konsensus mavjud. Ushbu tamoyil ota-onalik huquqidan mahrum qilish bilan bog'liq muammolarga munosabatimizni ko'rib chiqish va oila huquqi instituti mavjud bo'lgan davrda yuzaga kelgan noqulay savollarga javob berish imkoniyatini beradi.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilish instituti XIX asrda vujudga kela boshladi. Yevropada zo'rvonlikka uchragan bolalarni himoya qilish to'g'risidagi qonunlar 1889-yildan paydo bo'la boshladi: Fransiyada – 1889-yilda, Angliyada – 1889-yilda, Germaniyada – 1896-yilda, Shveysariyada – 1907-yilda. Bu qonunlar bilan ota-onalarning hokimiyatini cheklash masalasi ko'tarildi.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilish institutini xalqaro huquqiy tartibga solish asoslari Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasida belgilab qo'yilgan. Ushbu konvensiyaning 9-moddasiga ko'ra, bola o'z xohishiga zid ravishda ota-onasidan ajralishi mumkin emas. Faqat bunday ajralishga bolaning manfaati taqozo etganda sud qaroriga asosan yo'l qo'yiladi. Bunday choralar muayyan holatlarda,

¹ O'zbekiston Respublikasi IIV arxiv materiallari. 2023-yil.

² O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi rasmiy sayti ma'lumotnomasi (murojaat etilgan sana 08.10.2023.)

masalan, ota-onalar bolalari bilan shafqatsiz munosabatda bo'lsa, ko'rilishi mumkin³.

O'zbekiston Oila kodeksi ota-onalik huquqidan mahrum qilish tushunchasini ichiga olmaydi, lekin ota-onalik huquqini cheklash va undan mahrum qilish asoslarini ko'rsatib o'tadi.

Oila kodeksining 79-moddasida ota-onani ota-onalik huquqidan mahrum qilishning qat'iy asoslari ko'rsatilgan.

Birinchiidan, ota-onalik majburiyatlarini bajarishdan bosh tortsa, shu jumladan aliment to'lashdan bo'yin tovlasa. Bunday holat bolaga ta'lim-tarbiya berish, birga yashash, unga g'amxo'rlik qilish, bolaning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, zararli axborot xurujidan himoya qilish, bolalarining sog'lig'i, jismoniy, ruhiy, ma'naviy va axloqiy kamoloti haqida g'amxo'rlik qilish va uni iqtisodiy ta'minlashdan bo'yin tovlashda namoyon bo'ladi.

Ikkinchiidan, uzrsiz sabablarga ko'ra o'z bolasini tug'uruqxona yoki boshqa davolash muassasasidan, tarbiya, aholini ijtimoiy himoyalash muassasasi va shunga o'xshash boshqa muassasalardan olishdan bosh tortsa. Masalan, bugungi kunda yolg'iz onalar, boquvchisini yo'qotganlar, turmush o'rtog'ining chet elga ketib qaytib kelmasligi oqibatida farzandlarini mehribonlik uylariga olib kelish holatlari ortgan. Ma'lumotlariga ko'ra, mehnat migratsiyasi sabab ota-onasi yoki qarindoshlaridan uzoqda, to'liq davlat ta'minotidagi muassasalarda tarbiyalanayotgan bolalar soni 935 nafar, shundan 75 nafarining ham ota, ham onasi mehnat migrantlaridir⁴.

Uchinchiidan, ota-onalik huquqini suiiste'mol qilsa, bolalarga nisbatan shafqatsiz muomalada bo'lsa, jumladan jismoniy kuch ishlatasa yoki ruhiy ta'sir ko'rsatsa. Ota-onalarning bolalarga nisbatan shafqatsiz muomalada bo'lishi, jumladan jismoniy kuch ishlatishi yoki ruhiy ta'sir ko'rsatishi ota-onalik huquqlarini suiiste'mol qilish sifatida baholanadi va qonunda belgilangan tartibda javobgarlikka asos bo'ladi. Statistik ma'lumotlariga ko'ra, Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish respublika markazining hududiy bo'limlariga 2022-yilda bolalarga zo'rvonlik qilingani haqida jami 346 ta

murojaat kelgan bo'lib, 21 ta jismoniy, 11 ta jinsiy, 294 ta ruhiy, 4 ta iqtisodiy zo'rvonlik hamda 16 ta boshqa turdagi zo'rvonlik sodir etilgan⁵.

To'rtinchiidan, muttasil ichkilikbozlik yoki giyovandlikka muhtalo bo'lgan bo'lsa. Ota-onalarni ota-onalik huquqidan mahrum qilish uchun ularda ushbu kasallikka muhtalolik faktining o'zi yetarli bo'ladi. Chunki ushbu holat bola uchun xavf tug'dirishi tabiiy. Bola nosog'lom oilaviy muhitga tushib qoladi, o'zi bilan o'zi qolib ketadi hamda ma'naviy va jismoniy qiynaladi.

Beshinchiidan, o'z bolalarining hayoti yoki sog'lig'iga yoxud eri (xotini)ning hayoti yoki sog'lig'iga qarshi qasddan jinoyat sodir qilgan bo'lsa, ota-onalik huquqidan mahrum qilinishi mumkin. Statistika ko'ra, 2021-yilda oilaviy zo'rvonlik bilan bog'liq 1568 ta jinoyat ishi ko'rib chiqilgan. Ushbu jinoyat ishlari doirasida jami 1692 nafar shaxs javobgarlikka tortilgan. Shuningdek, mazkur jinoyatlarda 1617 nafar shaxs jabrlanuvchi sifatida belgilangan bo'lsa, ularning 1184 nafarini yoki 73 foizini ayollar, 433 nafarini yoki 26 foizini erkaklar, 20 nafarini yoki 1 foizini voyaga yetmaganlar tashkil etadi.

Yuridik adabiyotlarda ota-onalik huquqidan mahrum etish instituti bo'yicha turlicha yondashuvlarni ko'rish mumkin. M. Boratovning fikricha: "Birinchiidan, ota-onalik huquqidan mahrum qilish yuridik faktidir, u tufayli fuqarolik huquq va majburiyatlari yangidan vujudga keladi, o'zgaradi yoki kimlargadir nisbatan bekor bo'ladi; ikkinchiidan, oilaviy-huquqiy munosabatlarda axloq normalarini ham zinhor unutmaslik kerak. Zotan, oilaviy-huquqiy munosabatlarda mulkiy emas, shaxsiy, axloqiy jihatlar ustundir". S. Muratova sudlarning (shu jumladan Konstitutsiyaviy sud va inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi) qarorlariga tayanib, ota-ona huquqlaridan mahrum qilish uchun asos, *birinchiidan*, ota-onalarning aybi, *ikkinchiidan*, bolani boshqa yo'l bilan himoya qilishning imkonsiz ekanini ta'kidlaydi⁶. Ota-ona huquqlaridan mahrum qilish instituti birinchi navbatda voyaga yetmagan bolaning manfaatlarini va huquqlarini himoya qilishga qaratilgan. Albatta, bola uchun yaqinlari bilan ota-onalari himoyasida

³ Конвенция Организации Объединенных Наций о правах ребенка [Электронный ресурс]: [заключена в г. Нью-Йорке 20.11.1989 г.]

⁴ M.M. Xayitov. Ota-onalik huquqidan mahrum qilishning huquqiy asoslari. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi; Toshkent davlat yuridik instituti. T.: "MO5N1K", 2013, 12-b.

⁵ Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish respublika markazining hududiy bo'limlariga 2022-yil 10 oyi davomida bolalar zo'rvonligi bo'yicha murojaatlar tahlili.

⁶ С.А. Муратова. Семейное право: учебник. – М.: Норма: Инфра-М, 2019. Ст. 214.

qolish muhimroq, hatto oila og'ir qiyinchiliklarga duch kelsa ham.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilish instituti bolalar manfaatlarini himoya qilishni tavsiflovchi va ota-onaning javobgarligi choralari birlashtirgan huquqiy institut ham sanaladi. Bola huquqlarini farzandlarining hayoti va sog'lig'iga qarshi qasddan jinoyat sodir etgan ota-onalarning harakatlaridan himoya qilish mamlakatda ota-ona huquqlaridan mahrum qilish institutining asosiy vazifalaridan biridir. Voyaga yetmagan oila a'zolarining huquqlari va manfaatlarini ustuvor himoya qilish zarurati bu shaxslar odatda oilaviy munosabatlarning eng zaif ishtirokchilari ekani bilan bog'liq.

An'anaga ko'ra, oilaviy huquq sanksiyalari ikki turga bo'linadi: oilaviy huquqiy javobgarlik choralari va subyektiv huquqlarni oilaviy huquqiy himoya qilish choralari⁷. Shu munosabat bilan ota-onalik huquqidan mahrum qilish oilaviy huquqiy javobgarlik chorasidir, chunki u faqat ota-onalarga yoki ulardan biriga nisbatan qo'llanadi.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilish natijasida yuzaga keladigan oqibatlarni shartli ravishda ikki turga, ya'ni moddiy va ma'naviy oqibatlarga ajratib olish lozim. Ota-onalik huquqidan mahrum qilishning moddiy oqibatlari ushbu jazo chorasini qo'llanganidan keyin yuzaga keladigan mulkiy munosabatlarni, meros va aliment, shuningdek, ayrim yuridik javobgarlik masalalarini o'z ichiga oladi. Ota-onalik huquqidan mahrum qilingan ota-ona qaysi bolaga nisbatan ota-onalik huquqidan mahrum qilingan bo'lsa, shu bolaga nisbatan qarindoshlik faktiga asoslangan barcha huquqlardan, shu jumladan, undan ta'minot olish, shuningdek, bolali fuqarolar uchun qonun hujjatlarida belgilangan imtiyozlar va nafaqalar olish huquqlaridan mahrum bo'ladi.

Yuridik adabiyotlarda ko'plab mualliflar ota-onalarni huquqlaridan mahrum qilishni ota-onalar huquqbuzarlik sodir etgan taqdirda qo'llanadigan oilaviy huquqiy javobgarlik chorasini sifatida talqin etadi. Huquqshunos S. Muratova bu borada quyidagi fikrni bildiradi: "Ota-onalik huquqidan mahrum qilish subyektiv oila huquqlaridan mahrum qilish shaklidagi oilaviy huquqiy javobgarlik chorasidir"⁸. Y. Tolstoyning fikricha: "Ota-onalik huquqlaridan mahrum qilish – bolalar manfaatlarini himoya qilish va ota-onalarni qayta tarbiyalashga qaratilgan sanksiya hisoblanadi"⁹.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilish bilan bog'liq munosabatlarni subyektiv yuridik majburiyatlar bilan quyidagicha ifodalashimiz mumkin.

Birinchidan, taqiqlangan hatti-harakatlarni sodir etishdan tiyilish, ya'ni ota-onalar bolalariga nisbatan munosabatda ota-onalik huquqini sui-iste'mol qilmaslik, bolalarga nisbatan shafqatsiz muomalada bo'lmaslik, jumladan jismoniy kuch ishlatmaslik yoki ruhiy ta'sir ko'rsatmaslik; mutasil ichkilikbozlik yoki giyohvandlikka muhtalo bo'lmaslik; o'z bolalarining hayoti yoki sog'lig'iga qarshi qasddan jinoyat sodir qilmaslikka majburdirlar.

Ikkinchidan, ota-onalar muayyan xatti-harakatlarni sodir etish, ya'ni bolalariga ta'lim-tarbiya berish, ularning sog'lig'i, jismoniy, ruhiy, ma'naviy va axloqiy kamoloti haqida g'amxo'rlik qilishga majburdir. Qayd etilgan yuridik majburiyatlarni ota-onalarning bajarmasligi ularga nisbatan qonunda belgilangan javobgarlikni keltirib chiqaradi. Ya'ni davlat yuridik majburiyatni bajarmagan shaxsga nisbatan majburlov chorasini qo'llaydi.

Keltirilgan fikrlarga ko'ra ota-onalik huquqidan mahrum qilish oilaviy huquqiy javobgarlikning bir turi bo'lib, unda jazo elementi aniq namoyon bo'ladi. Shuningdek, ota-onalik huquqidan mahrum qilish to'g'risidagi ishni ko'rib chiqishning asosiy vazifasi bolaning manfaatlarini ta'minlashdir.

Fikrimizcha, oila qonunchiligiga bolaning jinsiy daxlsizligiga tajovuz qilish, bolalarni jinsiy ekspluatatsiya qilish, boshqa oila a'zolarining ham hayoti va sog'lig'iga qarshi qasddan jinoyat sodir qilish, bolani jinoyat sodir etishga undash, axloqsiz xatti-harakatlar bilan bolaning tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatish ham ota-onalik huquqidan mahrum etishga sabab bo'lishi mumkinligi to'g'risidagi normalarni kiritish maqsadga muvofiq.

Umida MAHMUDXODJAYEVA,

Toshkent davlat yuridik universiteti
Fuqarolik huquqi kafedrasi dotsenti,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

⁷ П.Н.Мардахаева. Лишение родительских прав как мера семейно-правовой ответственности: дис. ... канд. юрид. наук.: 12.00.03 / П.Н. Мардахаева. – М., 2005. 189 л.

⁸ С.А.Муратова. Семейное право; учебное пособие. – М.: Юриспруденция, 2001. Ст. 159.

⁹ И.К.Толстой, А. П. Сергеев. Гражданское право: учебник. В 3 ч. – М.: Проспект, 2002. Ст. 426.

Mamlakatimizda 2019-yil 2-sentyabrda “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi 561-qonun qabul qilindi hamda 2023-yil 11-apreldagi 829-qonun bilan Jinoyat kodeksi “Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik” deb nomlanuvchi 126¹-modda bilan to‘ldirilib, oilaviy zo‘ravonlik kriminalizatsiya qilindi. 2023-yilda mazkur modda bo‘yicha 203 kishi sudlanib, 59 nafariga ozodlikdan mahrum etish jazosi, 144 tasiga esa boshqa jazo chorasi qo‘llangan.



Ayollarni

oilaviy zo‘ravonlikdan
muhofaza qilish masalalari

Ta'kidlash lozimki, oilaviy zo'rvonlik boshqa jinoyatlardan latentligi va ko'p uchrashi bilan ajralib turadi. Bu borada E. Z. Ilgamova ta'kidlaganidek, "oilaviy zo'rvonlik – davomiyligi doimiy ravishda oshib boradigan jismoniy, og'zaki, ruhiy va iqtisodiy zo'rvonlik bo'lib, nazorat qilish, qo'rqitish, qo'rquv hissini singdirish maqsadida sodir etiladi"¹.

I. R. Shikula va T. S. Kandabarovalar esa ayollarga nisbatan zo'rvonlik shahvoniy shilqimlik, xotini(o'ynashi)ning harakatlarini doimiy nazorat qilish, ruhiy zo'rvonlik, jarohat yetkazish, iqtisodiy zo'rvonlik, o'z manfaati yo'lida bolalarni manipulyatsiya qilish, imo bilan qo'rqitish, oila uchun muhim qarorlarni yakka o'zi qabul qilish, turli shakllarda kamsitish kabilarda namoyon bo'ladi² deb hisoblaydi.

Shubhasiz, oilaviy zo'rvonlik har qanday jamiyatga xos bo'lgan jiddiy muammolardan bo'lib, mamlakatimiz uchun ham begona emas.

Xususan, O'zbekiston 2022-yilda Jahon bankining "Ayollar, biznes va qonun" indeksida 77,1 ball to'plagan, bu erkaklarga tegishli bo'lgan huquqning 77 foizi va erkaklar 1 dollar oladigan ishda ayollar 77 sent olishini anglatadi. Garchi O'zbekiston bu sohada eng salmoqli islohotlarni amalga oshirayotgan 18 ta davlatdan biri sifatida tan olingan bo'lsa-da, bu borada qilinishi lozim bo'lgan ishlar ko'p.

Shu bilan birga, yuridik oqibat va javobgarlikning mavjud emasligi javobgarlikdan qutulib qolish hissini oshiradi va oilaviy zo'rvonlikni takrorlash uchun turtki bo'ladi³.

O'z vaqtida oilaviy zo'rvonlikning oldini olmaslik uning ko'p takrorlanishiga va oxiri jabrlanuvchiga og'ir jarohat yetkazilishi yoki o'limiga ham sabab bo'lishi mumkin. Masalan, Xorazm viloyati Shovot tumanida 72 yoshli erkak xotinini sehr-jodu qilganlikda ayblab, boshiga bolta bilan 17 marta urib o'ldirgan.

Shu bilan birga xorijiy mamlakatlarda ayollarni oilaviy zo'rvonlikdan himoya qilish bo'yicha maxsus qonunlar ham qabul qilinganini qayd etish lozim.

XUSUSAN:

AQSHda "Ayollarga nisbatan zo'rvonlikka qarshi kurashish to'g'risida"gi (1994-yil), Malayziyada "Oilaviy zo'rvonlik to'g'risida"gi (1994), Buyuk Britaniyada "Oilaviy zo'rvonlik, ushbu sohadagi jinoyatlar va jabrlanuvchilar to'g'risida"gi (2005), Sloveniyada "Oilada zo'rvonlikning oldini olish to'g'risida"gi (2008), Qozog'istonda "Maishiy zo'rvonlik profilaktikasi to'g'risida"gi (2009), Ozarbayjonda "Maishiy zo'rvonlikning oldini olish to'g'risida"gi (2010) qonunlar qabul qilingan.

Avstriyada "Xavfsizlik to'g'risida"gi qonun (1991-yil) bilan ayollar ham politsiya muhofazasiga olingan va politsiyaning bu boradagi majburiyatlari belgilab berilgan. "Oilaviy zo'rvonlik to'g'risida"gi qonunda (1997-yil) esa bir qator muhim qoidalar belgilandi: politsiyaga zo'rvonni 10 kundan 20 kunga qadar muddatga uydan olib chiqib ketish; jabrlanuvchiga fuqaroviy yustitsiya tizimi orqali uzoq muddatga himoya orderi olish huquqi berildi.



¹ Ilgamova Э. З. Социальная обусловленность исследования повседневных проблем детей в семье // Вестник экономики, права и социологии. 2010. №4. – С.164.

² Шикула И. Р., Кандабарова Т. С. Актуальные проблемы уголовно-правовой защиты женщин от домашнего насилия // Образование и право. 2023. №11. – С.505-506.

³ Криминальная агрессия женщин с психическими расстройствами / Т. Б. Дмитриева, К. Л. Иммерман, М. А. Качаева, Л. В. Ромасенко. – 2. изд., перераб. и доп. – М.: Медицина, 2003. – С. 125.

“Oilaviy zo‘ravonlik to‘g‘risida”gi qonun qabul qilinishi bilan mamlakatning har bir hududida politsiya va ijtimoiy xizmatlar harakatlarini muvofiqlashtirish, jabrlanuvchilarga yordam ko‘rsatish maqsadida intervensiya markazlari tizimi tashkil etildi. Markazlar Ichki ishlar vazirligi va Ayollar ishlari vazirligi tomonidan moliyalashtiriladi, lekin ularni ayollarga oid nodavlat notijorat tashkilotlar boshqaradi.

Mazkur qonun bilan Jinoyat kodeksiga ham bir qator tuzatishlar kiritildi, ularga ko‘ra har qanday zo‘ravonlik ta‘qib etiladi, qolaversa, takroriy zo‘ravonlik uchun jazo choralari kuchaytirildi⁴.

Turkiyada oilaviy zo‘ravonlikka qarshi kurashish ancha takomillashtirildi. Xususan, Turk jazo qonunidagi 2004-yilgi o‘zgarishlar natijasida nikohdagi nomusga tegish va madaniy odatlar, shu jumladan, ayollarni o‘g‘irlash jinoyat sifatida tan olindi, bokira bo‘lmagan va turmushga chiqmagan ayollarni kamsitish taqiqlandi, ish joyidagi shilqimlik kriminalizatsiya qilindi. Turkiyada, shuningdek, jabrlanuvchilarni himoya qilish bo‘yicha maxsus huquqiy choralar ham qabul qilingan. Masalan, 1998-yildan himoya orderi instituti ishlab kelmoqda, unga ko‘ra oilaviy zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan har qanday ayol va ushbu zo‘ravonlik guvohi bo‘lgan boshqa shaxslar politsiya yoki sudga himoya orderini so‘rab murojaat qilishlari mumkin. Himoya orderi 6 oylik muddat bilan cheklangan va uni buzgan zo‘ravon 3 oydan 6 oygacha muddatga qamoqqa olinishi mumkin⁵.

Moldova Jinoyat kodeksida ham oiladagi zo‘ravonlik (201¹-modda) uchun javobgarlik nazarda tutilgan. Unga ko‘ra oila a‘zosining boshqa a‘zosi-ga nisbatan quyidagi harakatlari oilaviy zo‘ravonlik hisoblanadi: a) do‘pposlash, yengil jarohat yetkazish yoki sog‘lig‘iga jiddiy bo‘lmagan zarar yetkazish; b) o‘z irodasiga bo‘ysundirish yoki nazorat qilish maqsadida ajratib qo‘yish, qo‘rqitish; v) iqtisodiy vositalardan, shu jumladan, yashash uchun mablag‘dan mahrum qilish (jazo – 150 soatdan 180 soatgacha haq to‘lanmaydigan jamoat ishlarida ishlash yoki 4 yilgacha ozodlikdan mahrum etish)⁶.

Braziliyada 2006-yil 7-avgustda kuchga kirgan 11340-federal qonun (Mariya da Penya qonuni)

ayollarga nisbatan oilaviy zo‘ravonlikning oldini olish uchun fuqarolik, jinoyat, protsessual, mehnat va tibbiy mexanizmlarni shakllantirdi. Mazkur qonunda oilaviy zo‘ravonlikka inson huquqlari buzilishining bir shakli, ayollarga nisbatan o‘lim, jarohat, jismoniy yoki ruhiy azob, shuningdek, ruhiy yoki ma‘naviy zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan harakat yoxud harakatsizlik sifatida ta‘rif berildi. Bunday jinoyatlar qonun chiqaruvchi tomonidan uncha og‘ir bo‘lmagan va o‘rtacha og‘ir jinoyatlar toifasidan chiqarilib, ular uchun jazo chorasi ancha kuchaytirildi. Shuningdek, 2015-yilgi “Feminitid to‘g‘risida”gi qonun bilan Jinoyat kodeksiga tuzatish kiritildi. Unga ko‘ra ayollarni ayol jinsiga mansubligi uchun o‘ldirish jinoiy javobgarlikka sabab bo‘ladi (JKning 121-moddasi)⁷.

Ta‘kidlash lozimki, mamlakatimizda ham tazyiq o‘tkazgan, zo‘ravonlik sodir etgan yoki ularni sodir etishga moyil bo‘lgan shaxs tomonidan himoya orderi talablarini bajarmaslik uchun ma‘muriy javobgarlik (Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 206¹-moddasi) nazarda tutilgan. Bu boradagi xorijiy tajribadan kelib chiqib, shuningdek, ushbu harakatlarni takroran sodir etishning ijtimoiy xavfi oshishi va bu himoya orderi berilgan shaxslarning hayoti va sog‘lig‘ini xavf ostiga qo‘yishi mumkinligini inobatga olib, himoya orderi talablarini takroran buzganlik uchun jinoiy javobgarlik kiritish, shu maqsadda, Jinoyat kodeksini 126²-modda bilan to‘ldirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Shu bilan birga ayrim davlatlarda, masalan, Qozog‘iston Jinoyat kodeksining 121¹-moddasi-da o‘n olti yoshga to‘lmagan shaxsga shahvoniy shilqimlik qilganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. O‘zbekiston Jinoyat kodeksida o‘n olti yoshga to‘lmagan shaxsga nisbatan uyatsiz-buzuq harakatlar qilish (129-modda) uchun javobgarlik belgilangan bo‘lsa-da, ushbu jinoyat tarkibi shahvoniy shilqimlikdan farqlanadi. Ta‘kidlash lozimki, 2023-yil 11-apreldagi 829-qonunga asosan MJTK-ga shahvoniy shilqimlik uchun (41¹-modda) javobgarlik kiritilgan edi. Amalda ushbu modda bilan javobgarlikka tortish uchun huquqbuzar har qanday shaxsga, shu jumladan voyaga yetmaganlarga

⁴ Роза Логар. Хороших законов недостаточно. Опыт Австрии в развитии комплексной системы вмешательства для предотвращения насилия в отношении женщин и поддержки жертв (октябрь, 2008) //www.osce.org/gender/item_6_32383.html.

⁵ Принося безопасность домой: борьба с насилием в отношении женщин в регионе ОБСЕ. Сборник примеров хорошего опыта. Секретариат ОБСЕ, Офис Генерального секретаря, Гендерная секция. Июнь 2009 г.

⁶ Уголовный кодекс Республики Молдова. https://continent-online.com/Document/?doc_id=30394923

⁷ Шавьер Ф., Нету Ф. Опыт бразильского законодательства в области борьбы с домашним насилием: теория и практика // Вестник университета им. О. Е. Кутафина (МГЮА). 2021. №1. – С.93-95.

nisbatan shahvoniy shilqimlik qilishi asos bo'ladi. Ushbu qilmishning boshqalarga qaraganda voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etilishi uning ijtimoiy xavfini oshiradi. Shu sababli o'n olti yoshga to'lmagan shaxsga shahvoniy shilqimlik qilganlik uchun Jinoyat kodeksida jinoiy javobgarlik belgilash taklif etilmoqda.

Yuqoridagilar asosida Jinoyat kodeksini quyidagi 129¹-modda bilan to'ldirish taklif etiladi:

“129¹-modda. O'n olti yoshga to'lmagan shaxsga shahvoniy shilqimlik qilish

O'n olti yoshga to'lmagan shaxsga nisbatan shahvoniy shilqimlik qilish, ya'ni shaxsga nisbatan uning uchun nomaqbul bo'lgan hamda uning sha'ni va qadr-qimmatini tahqirlaydigan, shaxsning tashqi qi-yofasini yoki qaddi-qomatini tavsiflashda, imo-ishora qilishda, teginishda, chaqirishda ifodalangan, shahvoniy xususiyatga ega bo'lgan harakatlarni bir marta qo'pol ravishda yoki bir necha marta sodir etish, –

ikki yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud ikki yildan uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Ushbu harakatlar telekommunikatsiya tarmoqlari yoki internet jahon axborot tarmog'idan foydalangan holda sodir etilgan bo'lsa, –

uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi”.

Yana bir muhim yo'nalish xotin-qizlar mehnati bilan bog'liq diskriminatsiyadir. Xorijiy davlatlar tajribasi o'rganilganda mehnat sohasida kamsitishlarning taqiqlangani va jazo choralari belgilanganini ko'rish mumkin. Xususan, bu kabi norma Qozog'istonda (MJTKning 90-moddasi) mavjud.

O'zbekistonda mehnat to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun ma'muriy javobgarlikni nazarda tutuvchi umumiy norma bor bo'lsa-da, biroq mehnat sohasida kamsituvchi xarakterga ega bo'lgan ma'lumotlarni (reklama va e'lonlarni) joylashtirganlik yoki tarqatganlik uchun javobgarlikni belgilovchi maxsus norma yo'q. Shu bois MJTKni quyidagi 49⁵-modda bilan to'ldirish maqsadga muvofiq:



“49⁵-modda. Mehnat sohasida kamsitishga yo'l qo'yish

Mehnat sohasida kamsituvchi talablar keltirilgan bo'sh ish o'rinlari to'g'risidagi ma'lumotlarni joylashtirish yoki tarqatish, – fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdori-ning uch baravaridan besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Xuddi shunday huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanganidan keyin bir yil davomida takroran sodir etilgan bo'lsa, –

fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdori-ning besh baravaridan o'n baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa o'n baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Xodimning teng mehnat uchun teng haq olish, shuningdek teng ishlab chiqarish va yashash sharoitiga ega bo'lish huquqining ish beruvchi tomonidan buzilishi, –

bazaviy hisoblash miqdori-ning besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.


Ushbu moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanganidan keyin bir yil davomida takroran sodir etilgan bo'lsa, –

bazaviy hisoblash miqdori-ning o'n besh baravaridan o'ttiz baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi”.

Ayni damda ushbu harakatlarni bir yil davomida takroran sodir etganlik uchun jinoiy javobgarlikni belgilash maqsadga muvofiqdir.

Mazkur takliflar xotin-qizlar va bolalarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularga nisbatan sodir etilayotgan zo'ravonliklarning oldini olishga xizmat qiladi.

Zulxumor IBROHIMOVA,
jinoiy ishlari bo'yicha Chilonzor tumani sudi sudya yordamchisi,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)



Jasorat tarannumi

(O'zbekiston Respublikasining birinchi Ichki ishlar vaziri, general-polkovnik Zokirjon Almatovning "Unutilmas xotiralarim" kitobini o'qiganda tug'ilgan mulohazalar)

O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf "Tavallo" she'rida shunday yozadi:

Hurlik qanday tansiq so'z,
Qullik qalbga sanchiq so'z.
Hurriyatni boshida
Tutganga ber, xudoyim.

Darhaqiqat, mamlakatimiz davlat mustaqilligiga, istiqlol in'om etgan bugungi tinch, osoyishta va farovon kunlarga osonlikcha erishmagan. Xalqimizning xohish-istagi va elimizning asl vatanparvar farzandlari sa'y-harakatlari bilan

ota-bobolarimizning asriy orzulari amalga oshib – O'zbekiston tenglar ichra teng, hur va ozod davlatga aylangan. Ayniqsa, istiqlolning dastlabki yillarida eng ulug' va eng aziz ne'mat – mustaqilligimizni mustahkamlash va asrab-avaylash uchun ona vatanimizning qanchadan-qancha fidoyi farzandlari yuksak jasorat va matonat ko'rsatishgan. O'zbekiston Respublikasining birinchi Ichki ishlar vaziri, general-polkovnik Zokirjon Almatovning "Unutilmas xotiralarim" (Toshkent, "NISO POLIGRAF", 2023) avtobio-

grafik asarini mutolaa qilgan har bir inson bunga yana bir bor amin bo'ladi.

Kitobxon ko'z oldida mustaqillikka erishish arafasi hamda istiqlolning dastlabki yillarida sodir bo'lgan suronli voqealar davrida ichki ishlar organlari va boshqa huquq-tartibot idoralari xodimlari ko'rsatgan qahramonliklar gavdalanar ekan, u erkinlikning oliy ne'mat ekanini teran anglab, bugungi tinch va farovon kunlarga chin qalbdan shukronalik keltiradi. O'zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyid ta'biri bilan aytganda:

Doim baland bo'lsin yurt qo'rg'onlari,
Nurga to'lsin bag'ri, uy-ayvonlari.
Sizga, ey yurtimning mard o'g'lonlari,
Sharaf-shon gullari dasta-dastadir.

Kitob sifat jihatidan xalqaro andozalarga muvofiq tarzda nihoyatda yuksak did bilan nashr etilgan. Uning muqovasi o'quvchi e'tiborini bir qarashda o'ziga jalb qiladi. Qog'oz sifati va sahifalarda ishlatilgan bezaklar esa kitobxon uchun mutolaa jarayonini osonlashtiradi. Kitobni mazmunan va shaklan boyitish maqsadida sahifalar orasida rangli suratlar ham berilgan. E'tiborlisi, har bir surat ostida qisqa izoh yozilgan va bu ularning qiymatini oshirgan.

"Unutilmas xotiralarim" kitobi tuzilishiga ko'ra tarixiy ocherklar va voqealar tafsilotidan iborat bo'lib, unda general-polkovnik Zokirjon Almatovning ibratli umr yo'li va hayotiy xulosalari yoritilgan.

Zokirjon aka 1949-yil 10-oktabrda Toshkent shahrining Yuzrabot mahallasida tavallud topgan. Ota-onasi dehqonchilik bilan shug'ullanib, uni bolaligidanoq halol mehnatga o'rgatishgan. Taqdirning achchiq sinovlari Zokirjon aka-ning yelkasiga juda erta tushib, sakkiz yoshida otasidan ayrilgan. Otasi yurak xurujidan vafot etgan. Shundan so'ng tirikchilik aravasini tortish onasi va to'ng'ich farzand – Zokirjon aka-ning zimmasiga qolgan. Hayot sinovlarida toblanar ekan, unda metin iroda, har qanday murakkab vaziyatda ham tushkunlikka tushmasdan oqilona qaror chiqarish qobiliyati bolaligidanoq shakllangan.

1966-yilda maktabni a'lo baholar bilan tamomlagan Zokirjon aka uch yil armiya safida Qozog'istonning Olmaota shahrida muddatli harbiy xizmatni o'tagan. Ichki qo'shinlarga qarashli harbiy qismda xizmat qilar ekan, jinoiy gu-

ruhlarni qo'lga olish bo'yicha tezkor tadbirlarda ham qatnashgan. Kelgusida ichki ishlar idoralari-da xizmat qilish orzusi unda aynan harbiy xizmat paytida aniq maqsadga aylangan.

Zokirjon Almatov 1970-yilda Toshkent davlat universitetining yuridik fakulteti kechki bo'limiga o'qishga kirgan. Moddiy yetishmovchiliklar sababli ham o'qib, ham ishlashga majbur bo'lgan. Kunduzi Toshkent shahar qurilish bosh boshqarmasi 6-trestida mehnat qilgan.

O'sha yillarni Zokirjon aka "Unutilmas xotiralarim" kitobida quyidagicha yodga oladi: "Bu yerda kechgan davrim men uchun katta hayot maktabi vazifasini o'tadi. Turli millat vakillari mehnat qiladigan jamoada turfa xarakterdagi odamlarga duch keldim. Jamiyatda inson sodda va samimiy munosabat, halollik va rostgo'ylik bilangina hurmat qozonishi mumkinligini teran anglab yetdim. Anglaganlarimni o'zim uchun mezon qilib oldim".

Oliy o'quv yurtida olgan bilimlarini amaliyot bilan mustahkamlash maqsadida Zokirjon aka qurilish tashkilotidagi faoliyatini to'xtatib, talabalik davridayoq Toshkent viloyati Ichki ishlar boshqarmasi pasport bo'limiga ishga kiradi. Shu tariqa uning ichki ishlar tizimidagi uzoq yillik faoliyati boshlanadi.

Universitetning yuridik fakultetini muvaffaqiyatli tamomlagach, Toshkent viloyatining Toshkent tumanida Ichki ishlar boshqarmasi pasport bo'linmasi boshlig'i lavozimida faoliyatini davom ettiradi. Keng dunyoqarashi va



zakovati, metin irodasi va qat'iyati bilan hamkasblari orasida hurmat qozongan Zokirjon aka ichki ishlar tizimida birin-ketin mas'ul lavozimlarga tayinlanib boradi. O'tgan asrning saksoninchi yillarida sovet davlati inqirozga yuz tutayotgan, aholi orasida norozilik ortib borayotgan nihoyatda murakkab sharoitda Zokirjon aka ichki ishlar organi mas'ul rahbari sifatida g'alayon va tartibbuzarliklarni tinch yo'l bilan hal etish, jamiyatda osoyishtalik va xavfsizlikni ta'minlashda yuksak jasorat ko'rsatadi.

Mamlakatimiz davlat mustaqilligini qo'lga kiritgan 1991-yilda Zokirjon Almatov O'zbekiston Respublikasining birinchi Ichki ishlar vaziri etib tayinlanadi va ushbu mas'uliyatli lavozimda 15 yil davomida sadoqat va fidoyilik bilan xizmat qiladi.

Davlat va jamiyatda hukmron mafkura hamda boshqaruv tizimi o'zgarganda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma'naviy-ta'limiy sohalarida bo'shliqlar paydo bo'lishi tabiiy hol. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki yillarda ana shunday bo'shliqlarni o'zlarining buzg'unchi g'oyalari bilan to'ldirishga, g'arazli maqsadlari yo'lida yurtimizda notinchlik, fitna va terror urug'larini tarqatishga intilgan diniy-ekstremistik guruhlar, giyohvand moddalar va odam savdosi bilan shug'ullanuvchi jinoiy to'dalar jamiyatimizga suqilib kirishga harakat qilgan, bir qan-



cha terror xurujlarini sodir etgan. Quyidagi fojiali voqealar:

- ♦ 1991-yildagi Namangan voqealari;
- ♦ 1992-yilda Toshkent shahrining Talabalar shaharchasida sodir etilgan ommaviy tartibsizliklar;
- ♦ 1999-yil 16-fevralda poytaxtimizda terrorchilar amalga oshirgan portlashlar;
- ♦ 2000-yilda Surxondaryoning Sariosiyo va Uzun tumanlari orqali yurtimizga bostirib kirmoqchi bo'lgan terrorchilar bilan to'qnashuvlar;
 - 2004-yildagi Qoramurt fojiasi;
 - 2005-yilda razil kimsalar Andijonda sodir etgan xunreziqlar mamlakatimiz tarixida qonli harflar bilan bitilgan.

“Unutilmas xotiralarim” kitobining ushbu fojialarga oid bo'limini o'qigan har bir inson yurtimiz tinchligi, sarhadlarimiz daxlsizligi, jamiyatda qonun va adolat ustuvorligini Zokirjon aka kabi xalqimizning qanchadan-qancha mard va jasur o'g'lonlari aziz jonlarini xatarga qo'yib, mardonavor himoya qilganlarini teran anglaydi. O'zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyid Zokirjon akaga bag'ishlab yozgan “Ulug'roq ish bormi elning tinchidan” nomli she'rida ta'kidlaganidek:

Yomonlik – yomonda,

Mehr – do'stdadir.

Olam mehr ila tinch, payvastadir.

Adolatning qo'li baland kelsa gar,

Razolat doimo tuban, pastdadir.

Xalqimizning haqiqiy qahramoni, yirik davlat arbobi Zokirjon Almatovning “Unutilmas xotiralarim” kitobi yaqin tariximizdagi voqealarni xolis yoritish orqali kitobxonda vatanparvarlik, elga muhabbat va davlatga sadoqat tuyg'ularini mustahkamlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri, general-leytenant Po'lat Bobojonov kitobga yozgan kirish so'zida ta'kidlaganidek, “Unutilmas xotiralarim” asari ilgari nashr qilingan “Zokirjon Almatov – bir umrlik jasorat” kitobining mantiqiy davomidir.

Shuningdek, 2022-yilda Zokirjon Almatov hamda Abdug'ofur Sattorov hammuallifligida nashr etilgan “Ortda qolgan tahlikali kunlar” kitobida bayon etilgan voqealar ushbu yangi nashrda yanada batafsil yoritilgan.

“Unutilmas xotiralarim” kitobi tuzilishiga ko'ra uch bo'limdan iborat.



Birinchi bo‘lim “Ajodlarimiz tarixiga bir nazar” deb nomlanadi. Unda Zokirjon Almatovning ota-bobolari tarixi, bolalik yillari, uning dunyoqarashiga kuchli ta‘sir ko‘rsatgan ibratli voqealar yoritilgan. Muallif bolalik davridayoq mutolaani yoqtirganini, kitoblardan o‘zi uchun kerakli fikrlarni saralab, ularga umri davomida rioya qilganini qayd etgan.

“Xitoy faylasufi Konfutsiy o‘z davrida yozib qoldirganidek, komil inson to‘qqiz narsaga erishish to‘g‘risida o‘ylaydi: ravshan ko‘rishni, aniq eshitishni, istarasi issiq bo‘lishni, ishiga boshqalar havas qilishini, so‘zlari samimiy bo‘lishini, harakatlarida ehtiyot bo‘lishni, gumon paydo bo‘lganda boshqalardan so‘rashni, qahrining oqibatlarini, foyda olish imkoniyati paydo bo‘lganida halol bo‘lishni. Ana shu tamoyillarga asoslangan va rioya etgan har qanday inson komillikka erishadi. Men o‘z hayot yo‘limda aynan ana shu qoidalarga, ustozlarimning maslahatlariga qat‘iy rioya qildim”, – deb yozadi muallif.

“Qismatimdagi tahlilali kunlarim” nomli ikkinchi bo‘limda mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki yillarida xalqimiz tinchligi va davlatimiz ravnaqiga tahdid solgan buzg‘unchi kuchlarga qarshi huquq-tartibot idoralari xodimlari olib borgan mardonavor kurash voqealari tasvirlangan. Muallif o‘sha paytda O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri sifatida jarayonlarning “qaynoq markazi”da turgani, jinoyatchilarga qarshi ko‘plab tezkor tadbirlarga shaxsan boshchilik qilgani mamlakatimizning yaqin o‘tmishini xolis tahlil qilish, ayniqsa, yosh avlodda to‘g‘ri tasavvur hosil qilishda muhim ahamiyatga ega.

Uchinchi bo‘lim “Zamondoshlarim haqida” deb nomlangan. Unda muallifning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov, shuningdek, Po‘lat Bobojonov, Ismoil Jo‘rabekov, Ubaydulla Mingboyev, Yodgor



Sa‘diyev, Bo‘ritosh Mustafoyev kabi davlat va jamiyat, fan va madaniyat arboblari to‘g‘risidagi xotiralari bayon etilgan. Jumladan, “Shukronalik” nomli ocherkda 2018-yilda davlatimiz rahbarining tavsiyasi bilan Zokirjon Almatov Ichki ishlar vazirining maslahatchisi etib tayinlangani mamnuniyat bilan ta‘kidlangan.

Zokirjon Almatovning vatan oldidagi fidokorona xizmatlari davlatimiz tomonidan munosib taqdirlangan – u 1995-yilda II darajali “Shonsharaf”, 1999-yilda I darajali “Shonsharaf”, 2005-yilda “Buyuk xizmatlari uchun”, 2021-yilda “Fidokorona xizmatlari uchun” ordenlariga sazovor bo‘lgan. Shuningdek, 2018-yilda Tojikiston Respublikasining “Do‘stlik” ordeni bilan taqdirlangan.

Zokir akaning unutilmas xotiralari bilan tanishar ekanmiz, O‘zbekiston xalq shoiri Mahmud Toirning quyidagi misralari yodimizga tushadi:

Elning sizdek generali bisyor bo‘lsin,
Shogirdlar ham ustozidek sarkor bo‘lsin.
Ezgu niyat, ezgu ishlar takror bo‘lsin,
Yaxshi bo‘lish yaxshi ekan, Zokir aka.

Xulosa qilib aytganda, ushbu kitob vatanga muhabbat, xalqqa va davlatga sadoqat bilan xizmat qilgan mard, dono va jasur insonning ibratli umr yo‘li haqida hikoya qiladi. Mutolaa asnosida bilimingiz ham, qalbingizdagi odamiylik tuyg‘ulari ham yuksalib borayotganini sezasiz. Kitob xotimasida keltirilgan muallifning quyidagi xulosasiga chin qalbdan iqror bo‘lasiz: “Balki hayotda yillar, zamonlar o‘tib, ko‘p qadriyatlar o‘z qadrini yo‘qotar. Lekin halollik, adolatparvarlik, jasorat, qahramonlik, fidoyilik, sadoqat kabi qadriyatlar hech qachon o‘z qadrini yo‘qotmaydi. Umrim kitobini varaqlab, o‘zim ko‘rgan, boshimdan o‘tkazgan turfa voqealarni tahlil qilib, ana shunday xulosaga keldim”.

Akmal SAIDOV,
akademik

Advokatning mediator sifatidagi faoliyati

O‘zbekistonning 2018-yil 11-oktabrdagi “Yuridik yordam va huquqiy xizmatlar ko‘rsatish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 497-qonuni bilan “Advokatura to‘g‘risida”gi qonunga o‘zgartirish kiritilib, advokatga haq olgan holda mediatorlik bilan shug‘ullanish huquqi berildi.

Xorijiy davlatlar tajribasiga qaraydigan bo‘lsak, Rossiyada mediatsiya ancha yillar oldin, ya’ni 2010-yilda shakllangan bo‘lishiga qaramasdan 10 yil davomida advokatning mediatorlik bilan shug‘ullanishiga keskin qarshiliklar bo‘lgan va 2020-yilga kelibgina Advokatlarning kasbiy axloq kodeksiga advokatlarning mediatorlik bilan shug‘ullanishi mumkinligi to‘g‘risidagi norma kiritilgan.



Milliy qonunchiligimizga kiritilgan ushbu o'zgartirishning huquqiy ahamiyati nimada?

O'zbekistonning 2018-yil 3-iyuldagi "Mediatsiya to'g'risida"gi 482-qonuniga muvofiq fuqarolik huquqiy munosabatlardan, shu jumladan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish munosabati bilan kelib chiqadigan nizolarga, shuningdek yakka mehnat nizolariga va oilaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarga, agar qonunda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, mediatsiyani qo'llash mumkin.

O'zbekiston qonunchiligiga ko'ra mediatorlar ikki turga bo'linadi: professional mediatorlar va noprofessional mediatorlar. Ularning bir-biridan asosiy farqi: professional mediator bo'lish uchun mediatorlarni tayyorlash dasturi bo'yicha maxsus o'quv kursidan o'tish zarur. Adliya vazirligida professional mediatorlar reyestri yuritiladi. Noprofessional mediatorlar tayyorlash dasturi bo'yicha o'quv kursida o'qishi mumkin. Maxsus o'quv kursida o'qish uchun fuqarolar markazlarga bevosita yoki elektron shaklda murojaat qiladi¹.

Shu sababli professional mediator bo'lish uchun huquqiy bilim talab etilmaydi. Professional mediatorning faoliyati pulli yoki bepul amalga oshirilishi mumkin. Mediatorning noprofessional faoliyati tekin amalga oshiriladi. Noprofessional mediatorning mediatsiyani amalga oshirish bilan

bog'liq xarajatlari, shu jumladan yo'l xarajatlari, yashash joyiga borish va ovqatlanish xarajatlari qoplanishi mumkin². Mediatorning faoliyati tadbirkorlik hisoblanmaydi. "Advokatura to'g'risida"gi qonunining 3-moddasiga muvofiq advokat mediatsiya bilan shug'ullanishi mumkin. Advokat yuqorida aytib o'tilganidek, professional yoki professional bo'lmagan mediator sifatida ishlash huquqiga ega. Ammo professional mediator sifatida ishlash uchun advokat maxsus o'quv kursida o'qishi kerak. Advokatdan mediator sifatida foydalanishning bir qancha afzalliklari bor. Xususan,



u huquq sohasi mutaxassisi sifatida mediatsiyaga oid normalarni to'g'ri qo'llay oladi.

"Mediatsiya to'g'risida"gi qonunga muvofiq mediatsiyani amalga oshirish muddati mediatsiya to'g'risidagi shartnomada belgilanadi. Bunda mediator va taraflar mediatsiya tartib-taomilini o'ttiz kundan ortiq bo'lmagan muddatda yakunlash uchun mumkin bo'lgan barcha choralarni ko'rishlari shart. Zarur hollarda mediatsiyani amalga oshirish muddati taraflarning roziligi bilan o'ttiz kungacha uzaytirilishi mumkin. Shuning uchun Fuqarolik protsessual va Iqtisodiy protsessual kodekslarda mediatsiyani amalga oshirish to'g'risida bitim tuzilgan taqdirda, protsess mediatsiya jarayoni tugaguniga qadar, lekin oltmish kundan ortiq bo'lmagan muddatga to'xtatib turiladi. Tomonlar mediatsiya kelishuviga erisha olmasa, oltmish kun

¹ Mediatorlarni tayyorlash dasturi. <https://lex.uz/ru/docs/-4185961>.

² O'zbekistonning "Mediatsiya to'g'risida"gi qonuni. <https://lex.uz/docs/-3805227#-3806804>.

ichida ishni davom ettirish uchun sudga murojaat qilishlari mumkin. Agar mediatsiyani qo'llash natijasida taraflar mediatsiya bitimini tuzishga va uni sudga taqdim etishga muvaffaq bo'lsa, sud arizani ko'rmasdan qoldirish to'g'risida ajrim chiqaradi. Mazkur ajrimning huquqiy oqibati davlat boji qaytarilishi hamda xuddi shu asoslar doirasida ayni bir predmet bo'yicha o'sha shaxslarning sudga qayta murojaat qilish huquqini saqlab qolishdan iborat. Tomonlar mediatsiya kelishuvini taqdim qilmasa, oltmish kun ichida sudga ishni davom ettirish uchun murojaat qilmasa, sud arizani ko'rmasdan qoldirish to'g'risida ajrim chiqaradi va bu holatda davlat boji qaytarilmaydi.

Taraflar ayni bir ish yuzasidan mediatsiyaga qayta-qayta murojaat qilishlari mumkinmi?

O'zbekistonning Fuqarolik protsessual va Iqtisodiy protsessual kodekslarida hamda "Mediatsiya to'g'risida"gi qonunida bu holatni taqiqlovchi norma yo'q. Shu sababli taraflar mediatsiyani bir necha marta amalga oshirishlari mumkin. Faqat mediativ kelishuv birinchi instansiya sudida sud alohida xonaga (maslahatxonaga) sud hujjatini qabul qilish uchun kirguniga qadar tuzilishi mumkin. Mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish to'g'risida kelishuv tuzilgan taqdirda da'vo muddati o'tishi to'xtatiladi³. Ya'ni da'vo qo'zg'atili-shi bilan da'vo muddatining o'tishi uziladi, bunda umumiy da'vo muddati uch yil bo'lsa, albatta maxsus da'vo muddatlari ham bor, masalan, da'vo muddatining oltinchi oyida sudga berilgan da'vo arizasi bo'yicha ish qo'zg'atilsa, shu paytdan da'vo muddati uziladi, uzilishdan keyin da'vo muddatining o'tishi yangidan boshlanadi, uzilishgacha o'tgan vaqt esa yangi muddatga qo'shilmaydi. Faqat da'vo sud tomonidan ko'rmasdan qoldirilgan bo'lsa, da'vo qo'zg'atilgunga qadar o'ta boshlagan muddat umumiy tartibda davom etadi. Bunda yuqorida aytilganidek mediatsiya munosabati bilan ish yuritish to'xtatilganda da'vo muddatining o'tishi to'xtaydi.

Ushbu nizo bilan bog'liq mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirishda mediator sifatida ishtirok etganlar sudga vakillik qila olmaydi, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan va mediatorning ishtiroki yuzasidan o'zaro rozilik bo'lgan hol-

lar mustasno⁴. Ya'ni, agar taraflar sudga murojaat qilishidan oldin mediator sifatida advokat xizmatidan foydalangan, lekin mediativ kelishuvga erishilmagan bo'lsa, ushbu ishda mediator bo'lgan advokat sud jarayonida bir tarafning vakili sifatida ishtirok etishi mumkin, bunda faqat ikkinchi tomonning roziligi talab etiladi, aks holda ushbu advokat mazkur ish bo'yicha vakil bo'la olmaydi. Aksariyat yuristlar agar advokat mediator sifatida ma'lum bir ishda qatnashgan bo'lsa, shu ish yuzasidan keyinchalik vakillik qila olmasligini ta'kidlashadi. Xususan, Moskva viloyatining advokatlar palatasi advokati Yelena Kolotilshikova mediatsiya tartib-taomilini o'tkazgan advokat mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish jarayonida taraflardan o'ziga ma'lum bo'lgan ma'lumotlarni oshkor qilishga, shuningdek tomonlardan birining vakili sifatida o'ziga tegishli bo'lgan mediatsiya tartibida ko'rib chiqilgan masala bo'yicha huquqiy nizoda ishtirok etishga haqli emas deb hisoblaydi⁵. Yelena Kolotilshikova advokatning mediatorlik faoliyatining afzalliklarini ta'kidlar ekan, "mediatsiyani o'rganish orqali advokatlar ishda g'alaba tushunchasini qayta kashf etadilar: u har ikki tomon uchun eng qulay va eng tezkor yechimga aylanadi – bu ham g'alabadir" deydi.

Bugungi kunda oilaviy nizolarda, mehnat nizolarida va tijoriy nizolarda mediatsiyani keng qo'llash targ'ib qilinmoqda. Albatta, ushbu nizolarda mediatsiyani qo'llashda professional mediator sifatida advokatlar xizmatidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Chunki advokatlar professional huquqshunoslar bo'lib, ushbu ish yuzasidan mediatsiyani qo'llashning afzalliklarini to'liq tushuntirib bera olishadi.

Yevropaning ko'p mamlakatlarida Advokatlarning etika kodekslarida advokatning nizoni sudgacha hal qilish va sudga ko'rib chiqilayotgan nizoni tinch yo'l bilan hal qilish choralarini ko'rish majburiyati mavjud. O'zbekistonda ham shunday amaliyotni joriy qilish mediatsiyaning rivojlantirishiga katta hissa qo'shadi.

Zarnigor BEBUTOVA,

Toshkent davlat yuridik universiteti
Fuqarolik protsessual va iqtisodiy
protsessual huquqi kafedrasida o'qituvchisi

³ O'zbekiston Fuqarolik kodeksi. <https://lex.uz/acts/-111189>.

⁴ O'zbekiston Fuqarolik protsessual kodeksi. <https://lex.uz/docs/-3517337#-3519234>.

⁵ Может ли адвокат быть медиатором и должен ли он для этого учиться? Елена Колотильщикова. 25.11.2020 <https://ros-advocat.ru/actual/mozhet-li-advokat-byt-mediatorom-i-dolzhen-li-on-dlja-etogo-uchitsya/>.